

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.PED.113.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 378.(07) 001

MUMINJONOVA MUXAYYO G'ULOMOVNA

**O'QUV MATERIALLARI MAZMUNINI LOYIHALASH
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
ILMIY DARAJASINI OLISH UCHUN YOZILGAN
DISSERTATSIYASI**

**Ilmiy rahbar: pedagogika fanlari doktori,
professor J.A.Hamidov**

MUNDARIJA

Kirish.....	3	3
I BOB. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV MATERIALLARI MAZMUNINI LOYIHALASHNING NAZARIY ASOSLARI.....		12
1.1-§. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv materiallarini yaratishning nazariy muammolari.....		12
1.2-§. O'quv materiallariga qo'yiladigan zamonaviy pedagogik talablar.....		31
Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....		43
II BOB. OLIY TA'LIMDA O'QUV MATERIALLARI MAZMUNINI LOYIHALASH TEXNOLOGIYASI.....		44
2.1-§. Zamonaviy o'quv materiallari mazmunini modellashtirish.....		44
2.2-§. Modulli-kreativ yondashuv asosida o'quv materiallarini ishlab chiqishning metodik asoslari va didaktik imkoniyatlari.....		61
2.3-§. Modulli-kreativ o'quv materiallaridan foydalanib "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" fanini o'qitish texnologiyasi.....		77
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....		109
III BOB. PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARI VA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.....		111
3.1-§. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish va o'tkazish metodikasi.....		111
3.2-§. Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining matematik statistik tahlili.....		118
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....		125
UMUMIY XULOSALAR.....		127
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....		129
ILOVALAR.....		143

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta'lim tizimini rivojlantirish, bo'lajak mutaxassislarining raqobatbardoshligini ta'minlash; kasbiy-pedagogik faoliyatni innovatsion shakllantirish; ta'limda ilg'or texnologiya, didaktik vositalar hamda uskunalardan keng foydalanish; o'qitishning zamonaviy usullarini integrasiyalash masalalari dolzarb vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuvlar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlashda o'z bilimini uzluksiz to'ldirib borishi va undan kasbiy mahorat hamda ijtimoiy faoliyatda ijodiy foydalana olish qobiliyatini rivojlantirish muhim sanaladi.

Dunyoda ta'limning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish metodikalarini ishlab chiqish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilib, ta'lim dasturlarini YUNESKO tomonidan qabul qilingan "Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi" darajalari bilan uyg'unlashtirish; o'quv jarayoniga Milliy kvalifikatsiya tizimini to'laqonli joriy etish; ta'lim tizimi va mazmunini innovatsion loyihalash; ta'limning innovatsion metodik modellarini yaratish va ularni muayyan ta'lim amaliyotiga joriy etilmoqda. Bugungi kunda zamonaviy talablar asosida ta'lim sifatini oshirish, kreativ usullarni qo'llash orqali ta'lim berish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o'quv dasturlari, o'quv-metodik adabiyotlarini xalqaro talablar asosida yangilash, o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish kabi ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning erishilgan darajasi xalqaro maydonda e'tirof etish, zamonaviy ta'limning sifat jihatlarini yanada oshirish, bu boradagi samarali ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilning 27 iyulidagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3151-son Qarorida "Respublikamiz hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali

kadrlarni o‘z vaqtida zarur ixtisosliklar bo‘yicha iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ehtiyojidan kelib chiqqan holda tayyorlash, istiqbolli rivojlanish dasturlariga muvofiq shakllantirish”-1 dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Ushbu vazifalarning ijrosini ta‘minlashda innovasion faoliyatni barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Ta‘lim tizimi rivojlanishi o‘qitishda innovatsion texnologiyalarning roli ortib borishi bilan xarakterlanib, u bilimlarni rivojlantirish, o‘zlashtirish va tarqatish xususiyatini o‘zgartiradi, o‘rganilayotgan fanlar mazmunini chuqurlashtirish hamda kengaytirish, uni yangilash, samarali o‘qitish usullarini qo‘llash jarayonini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2021 yil 1 apreldagi “Ilmiy va innovasion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” gi PF-6198-son farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3151-son, 2021 yil 1 apreldagi “Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovasion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5047-son qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодийот соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида» Қарори, 2017 йилнинг 27 июлидаги № ПҚ-3151-сон /[http://www.lex.uz](http://www.lex.uz/pages/SearchResult.aspx?f=1&sid) /pages/ Search Result.aspx?f=1&sid

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dissertatsiyaning nazariy g‘oyalarini ishlab chiqishda olimlar, pedagoglar, mutaxassislar va metodistlarning ilmiy ishlari o‘rganildi. Jumladan, pedagog olimlardan, U. N. Nishonaliyev, N.S.Sayidaxmedov, A.R.Xodjaboyev Sh. E. Qurbonov, K.T. Olimov, R. Safarova, N.I. Taylaqov, N. X. Avliyaqulov, E.T.Choriyev, N.Sh.Shodiyev, P.T.Magzumov, Ya.Xaydarov, R.X.Jo‘rayev, O‘.T.Tolipov, N.A.Muslimov, K.Mirsaidov, O.Abduquddusov, B.Nuriddinov, B.Muranov, X. X. Saidova, N. R. Ashurov, Yu T.Xolmurodov, S. Yu. Ashurova, X.Sariboyev va boshqalar esa o‘zlarining ilmiy ishlarida Texnologiya o‘qituvchisining kasbiy faoliyati va mahoratini takomillashtirish bilan bog‘liq masalalarni o‘rganganlar. A.R.Xodjaboyevning fundamental tadqiqotlari mehnat va kasb ta’limi o‘qituvchisini tayyorlashda o‘quv-uslubiy majmualar ishlab chiqish va amalda joriy etishga qaratilgan. U.N.Nishonaliyev tomonidan, Texnologiya o‘qituvchisining kasbiy va shaxsiy fazilatlari taraqqiyoti tarixi va kelajakdagi rivojlanish yo‘llarini ishlab chiqilgan. O‘.T.Tolipovning ilmiy tadqiqotlari bo‘lajak pedagog-o‘qituvchilarning umummehnat va umumkasbiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish muammolarini yoritishga bag‘ishlangan.

Darsliklar va o‘quv materiallarini loyihalash nazariyasi bo‘yicha M.N.Skatkin, V.V.Krayevskiy, I.Lerner, V.A.Adenin, B. M. Mirzaxmedov, M.X. Maxmudov, R. Safarova, Q.T. Olimov, A.Xaitov, D.Shodiyev, N.I. Tayloqov, U.K.Musayevlar, darsliklarining tarkibiy tuzilishi, uni loyihalashning o‘ziga xos xususiyatlari baholash metodikalari M.Rixsiyeva, D.D.Zuyev, V.S.Syetlin, X.Saidovalar, o‘quv materiallarining mantiqiy tuzilish A.M.Soxor kabi taniqli olimlar tomonidan o‘rganilgan. Ta’limni didaktik loyihalash mazmuni tamoyillari,

o‘quv materiali va uning turli shakllarini loyihalash muammosi M.Mahmudov, G.Ergasheva darsliklarning yo‘naltiruvchi apparatini takomillashtirish G.Beylinson tomonidan tadqiq qilingan. Elektron o‘quv adabiyotlarini yaratish masalalari A.A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, A.A.Tixonov, A.D.Ivannikov, N.Toyloqov, N.A.Muslimovlar tomonidan o‘rganilgan. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari nazariyasi hamda amaliyoti bo‘yicha V.P.Bespalko, N.Saidaxmedov, A.A.Abduqodirov, A.R.Xodjabayev, M.I.Maxmutov, N.X.Avliyoqulov, G.K.Selevkolarning fundamental tadqiqotlari o‘rganildi. Hozirga qadar darsliklar va o‘quv materiallarini loyihalashga oid nazariy va amaliy ahamiyatga ega tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsada, shu davrga qadar “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” fanidan darsliklarning yangi avlodini yaratish va o‘quv materiallarini loyihalash masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan.

Tadqiqot ishlarni o‘rganish va tahlili shuni ko‘rsatmoqdagi, zamonaviy ta’lim sharoitida “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” fani uchun darsliklar va o‘quv materiallarininig ishlab chiqish muammolari yetarli darajada o‘rganilmagan. Shuningdek, “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” fanidan pedagogik texnologiyalar asosida o‘quv materiallari va qo‘llanmalarini yaratish hamda amalda joriy etish jihatlari yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, tadqiqot ishini “O‘quv materiallari mazmunini loyihalash texnologiyasini takomillashtirish” mavzusi dolzarb pedagogik muammo sifatida tadqiq etishga asos bo‘ldi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqot ishi Jizzax politexnika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “AIF 1/4 - Kasb-hunarga yo‘naltirilgan markaz va elektronika bo‘yicha qo‘shma o‘quv laboratoriya yaratish” (2019-2021 yy.) mavzusidagi halqaro amaliy tadqiqot loyihasi hamda Buxoro-muhandislik texnologiya instituti ilmiy - tadqiqot ishlari rejasining AIF 2/20 – “Shaxsga yo‘naltirilgan innovatsion texnologiyalar asosida texnik yo‘nalishlar bo‘yicha malakali muhandis kadrlar tayyorlash va o‘qituvchilar

malakasini oshirish sifatini oshirish” (2019-2022 yy.) mavzusidagi loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta’lim muassasalarida o’quv materiallarini loyihalash texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy ta’lim muassasalarida fanlardan tuzilmaviy, tashkiliy va integrativ qamrov doirasidan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladigan o’quv materiallari mazmuni talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodologik yondashuvlari va didaktik tamoyillarini shakllantirish, kasbiy ta’lim sifatini oshiruvchi axborotli-kommunikatsion mobil muhitni tashkillashtirish hamda o’quv jarayonining axborot-metodik ta’minotini takomillashtirish;

innovatsion yondashuvlar asosida yangi avlod o’quv materiallarining integrativ-modulli tuzilmasiga asoslangan tashkiliy tuzilmaviy modelini ishlab chiqish;

oliy ta’lim muassasalarida o’quv materiallari mazmunini loyihalash texnologiyasini takomillashtirish metodikasi takomillashtirilgan

kreativ-modulli o’quv materiallaridan foydalanib fanlarni o’qitish bo’yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o’tkazish hamda olingan natijalarga matematik-statistik ishlov berish;

Tadqiqotning ob’yekti oliy ta’lim muassasalari boshlang’ich ta’lim va sport ta’lim yo’nalishlarida “Texnologiya va uni o’qitish metodikasi” fanini kreativ-modulli o’quv materiallaridan foydalanib o’qitish jarayoni belgilanib Jizzax, Guliston va Qarshi davlat universitetlaridan jami 355 nafar talabalar ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmeti oliy ta’lim muassasalarida fanlardan o’quv materiallarini kreativ-modulli yondashuvlar asosida loyihalashning mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot maqsadiga erishish va qo’yilgan vazifalar yechimini topish uchun kompleks ravishda ma’yoriy-huquqiy hujjatlar, psixologik-pedagogik va o’quv-metodik adabiyotlar tahlili; kuzatuv, pedagogik tajribani o’rganish va umumlashtirish; so’rovnoma, test, suhbat, pedagogik eksperiment;

tadqiqot natijalariga matematik-statistik ishlov berish kabi metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalarida fanlardan tuzilmaviy, tashkiliy va integrativ qamrov doirasidan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladigan o'quv materiallari mazmuni talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodologik yondashuvlari va didaktik tamoyillarini shakllantirish, kasbiy ta'lim sifatini oshiruvchi axborotli-kommunikatsion mobil muhitni tashkillashtirish hamda o'quv jarayonining axborot-metodik ta'minotini mazmunan takomillashtirish asosida aniqlashtirilgan;

innovatsion yondashuvlar asosida yangi avlod o'quv materiallarining integrativ-modulli tuzilmasiga asoslangan tashkiliy tuzilmaviy modeli motivasion maqsadli, mazmunli-texnologik va baholovchi-natijaviy bloklari mazmuniga o'quv materiallari tarkibiy komponentlarini loyihalash usullari (evristik, eksperimental va rasmiylashtirish) va bosqichlarini (mazmuni tanlash, o'quv maqsadlarni aniqlash va topshiriqlarni rejalashtirish) singdirish orqali takomillashtirilgan;

oliy ta'lim muassasalarida o'quv materiallari mazmunini loyihalash texnologiyasini takomillashtirish metodikasi differensial yondashuv orqali mobil va raqamli texnologiyalarni umumlashtiruvchi texnik apparatni ta'lim metodlari va pedagogik texnologiyalardan iborat metodik apparatga birlashtirish hamda fanlardan o'quv materiallarini o'zlashtirish darajalariga (o'qish, idrok qilish, bayon qilish, muhokama qilish va ijodiy tafakkur) ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

talabalar o'quv materiallari mazmunini loyihalashining vazniy va sifatiy ko'rsatkichlari (ko'rgazmalilik, ixchamlik, mobillik, mantiqiylik va mavzulararo aloqadorlik) hamda ularni adekvat baholash darajalarini modulli texnologiyalar asosida ishlab chiqish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarni kreativ-modulli yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'quv materiallarini ishlab chiqishning mazmuni, shakl, metod va

vositari aniqlangan va ilmiy asoslab berilgan hamda uning tavsiyalar ishlab chiqilgan;

“kreativ” va “zamonaviy o‘quv materiallari” kabi tushunchalarning mazmun va mohiyati mualliflik talqini asosida yoritilgan;

texnologiya va uni o‘qitish metodikasi o‘quv materiallarining modulli tuzilmasining takomillashtirilgan modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertasiya tadqiqotining nazariy-metodologik asoslari, unga mos darajadagi metodlar va tadqiqot metodikalari majmuasining, matematik-statistika usullarining ishonchliligi va samaradorligi hamda empirik tadqiqot natijalarini to‘g‘ri talqin qilinishi bilan ta‘minlangan. Ma‘lumotlarni qayta ishlash matematik-statistika metodlarini samarali qo‘llashni ta‘minlovchi kreteriyalar asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo‘lajak o‘qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovasion faoliyatga tayyorlashning asosiy prinsiplari takomillashtirilganligi bilan belgilanadi. Oliy ta‘lim muassasalarida boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishlari uchun “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” fanidan modulli o‘quv materiallari va topshiriqlar majmui ishlab chiqilib, ta‘lim jarayonini joriy etildi. “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitish sifatini oshirishga qaratilgan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tavsiya etilgan darslik modeli va uni yaratish metodikasi zamonaviy o‘quv adabiyotlarini yaratishga imkonini berishi asoslab berildi. Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishlarida “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi”ni modulli o‘quv materiallaridan qo‘llab o‘qitishda modulli texnologiyasidan foydalanish orqali ta‘lim sifatini oshirishga erishilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar asosida:

oliy ta‘lim muassasalarida fanlardan tuzilmaviy, tashkiliy va integrativ qamrov doirasidan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladigan o‘quv materiallari mazmuni talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodologik yondashuvlari

va didaktik tamoyillarini shakllantirish, kasbiy ta'lim sifatini oshiruvchi axborotli-kommunikatsion mobil muhitni tashkillashtirish hamda o'quv jarayonining axborot-metodik ta'minotini mazmunan takomillashtirish hamda innovatsion yondashuvlar asosida yangi avlod o'quv materiallarining integrativ-modulli tuzilmasiga asoslangan tashkiliy tuzilmaviy modeli motivasion maqsadli, mazmunli-texnologik va baholovchi-natijaviy bloklari mazmuniga o'quv materiallari tarkibiy komponentlarini loyihalash usullari (evristik, eksperimental va rasmiylashtirish) va bosqichlarini (mazmuni tanlash, o'quv maqsadlarni aniqlash va topshiriqlarni rejalashtirish) singdirish orqali takomillashtirishga oid tavsiyalardan 2019-2022 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019 yil 20 fevraldagi "Xalqaro Rivojlantirish Assotsiyasi" ishtirokidagi "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash" loyihasi doirasidagi Akademik innovatsiyalar fondining grant loyihalarini moliyalashtirish to'g'risida"gi 166-sonli buyrug'iga asosan moliyalashtirishga tavsiya etilgan AIF 2/20 – "SHaxsga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalar asosida texnik yo'nalishlar bo'yicha malakali muhandis kadrlar tayyorlash va o'qituvchilar malakasini oshirish sifati" mavzusidagi loyihani bajarishda foydalanilgan (Buxoro muhandislik-texnologiya institutining 2022 yil 15 maydagi 87-04-3244-son ma'lumotnomasi). Natijada oliy ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning o'quv adabiyotlari, manbalari va resurslari mazmunini takomillashtirilgan;

oliy ta'lim muassasalarida o'quv materiallari mazmunini loyihalash texnologiyasini takomillashtirish metodikasi differensial yondashuv orqali mobil va raqamli texnologiyalarni umumlashtiruvchi texnik apparatni ta'lim metodlari va pedagogik texnologiyalardan iborat metodik apparatga birlashtirish hamda fanlardan o'quv materiallarini o'zlashtirish darajalariga (o'qish, idrok qilish, bayon qilish, muhokama qilish va ijodiy tafakkur) ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid xulosa va tavsiyalardan Jizzax viloyat teleradiokompaniyasining "Dolzarb mavzu" va "Ustozlar haqida" kabi ko'rsatuvlarning senariysini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyat

teleradiokompaniyasining 2021 yil 8 noyabrdagi 1/293-son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

Tadqiqot natijalarining aprotasiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari jami 9 ta shundan, 2 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, 2 tasi xorijiy jurnallarda 4 tasi respublika jurnallarda chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligidan 1 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 128 betni tashkil etadi.

I-BOB. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV MATERIALLARI MAZMUNINI LOYIHALASHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv materiallarini yaratishning nazariy muammolari

O'zbekistonda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar bugungi kunda o'z natijalarini ko'rsatmoqda. Yangi oliy ta'lim muassasalari barpo etilib, moddiy texnik bazalari va o'quv-uslubiy ta'minoti yangilanib bormoqda. Shuningdek, umumiy o'rta ta'limni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda hamda pedagogik tajribalar o'tkazilmoqda.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash, umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar maktablari, professional ta'lim muassasalari hamda oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini zamonaviy talablarini hisobga olgan holda tanqidiy tahlil qilish hamda yangilash, kabi masalalarga alohida to'xtalib oldimizga vazifalar qo'yilgan edi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida hozirgi kunda ta'lim tizimini yangi darsliklar bilan ta'minlash, ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish borasida ishlar jadal davom etmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni kelajakda iqtisodiyotning barcha sohalarida samarali mehnat qilishga, kasb-hunarni ongli va erkin tanlashga yo'naltirishda "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" fanining roli beqiyosdir.

Biz "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" fani bo'yicha o'quv adabiyotlarni yaratish muammolariga to'xtalishdan oldin hozirgi kunga qadar Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar va olimlar fikrlari tahlilini keltirdik.

O'.Tolipovning konsepsiyasiga muvofiq, yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarda umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirish, ta'lim mazmunini yangilash, yangi metod va vositalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish, tajriba sinov ishlarini amalga oshirish hamda uslubiy

tavsiyanomalarni ishlab chiqish ta'lim tizimini isloh qilishning zaruriy shartidir [100].

Haqiqatdan ham barcha ta'lim turlari bo'yicha o'quv jarayonini pedagogik va axborot texnologiyalari asosida tashkil etish eng muhim vazifalardan ekanligi kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham ko'rsatib o'tilgan.

B.Jo'rayeva ta'kidlashicha – hozirgi bozor munosabatlari sharoitlarida o'quvchilarni mehnatga tayyorlashni takomillashtirish, ishlab chiqarish jarayonining an'anaviy bo'lib qolgan turli shakllariga o'quvchilarni jalb qilishning amalda oshirilgan tajribalaridan keng va faol foydalanilgani kabi uning yangi hamda yetarli darajada istiqbolli shakllarini rivojlantirishga asoslanishi mumkin [55].

Bugungi kunning dolzarb vazifalarida yana biri shundaki ta'lim turlari orasida o'quv dasturlarining uzviyligi va izchilligini ta'minlash orqali mavzular takrorlanishiga yoki tushib qolishiga yo'l qo'ymaslik, professional ta'lim muassasalari ushun ishlab shiqilgan o'quv dasturlarini umumiy o'rta ta'lim bosqishida o'qitiladigan fanlar bilan o'zaro muvofiqlashtirish lozim.

SH.S.Sharipov, Sh.Abduraximovlar fikrisha, o'quvshilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda uzviylikning asosiy vazifalaridan biri-fanning ishida, fanlararo bog'liqlik va o'zaro aloqadorligini ta'minlashdan iboratdir [123].

Bizning fikrimizcha, texnologiya va uni o'qitish metodikasi fani bo'yicha hozirgi amal qilinayotgan an'anaviy ta'limni mazmunan yangilash va ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o'quv materiallarini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlash dalzarb vazifalardan hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida texnologiya va uni o'qitish metodikasi fanini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qiladigan bo'lsak, B.B.Doniyevning nomzodlik ishida texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy mahoratini o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan va o'qituvchi faoliyatini nazorat qilish modeli ishlab chiqilib uning mazmuni va metodikasi yoritilgan [53].

B.M.Mirzaxmedov tadqiqotlarida xalq hunarmandchiligiga oid o'quv-tarbiyaviy tadbirlar mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan va fanlararo aloqadorlikning ta'minlash, o'quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirish bo'yicha ilmiy metodik tavsiyalar berilgan [75].

I.N.Islomovning dissertasiya ishida texnologiyada o'qituvchilarning dizaynerlik ijodkorligini rivojlantirishning tashkiliy – pedagogik tizimi ishlab chiqilgan. Texnologiya mashg'ulotlarida o'quvchilar dizaynerlik ijodkorligining rivojlanganlik darajasini aniqlovchi mezonlar ilmiy asoslangan [60].

Oliy ta'lim muassasasida tashkil etilayotgan texnologiya mashg'ulotlari talabalarga ishlab chiqarish, xalq xo'jaligi, sanoat va qishloq xo'jaligidagi bo'layotgan texnologik jarayonlar to'g'risida boshqa fanlarga nisbatan to'liq ma'lumotlar bera olishi bilan ajralib turadi.

N.R.Ashurovning ilmiy ishida o'quvchilarni mehnat va kasbga tayyorlashni takomillashtirishda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik sharoitlari o'rganilgan [45].

S.Umarovning dissertasiya ishida o'quvchilarni mehnat va kasbga tayyorlashda xalq hunarmandchiligidan milliy qadriyatlar sifatida foydalanishning tarixiy rivojlanishi va amaldagi holatining o'rganilib, o'quvchilarni mehnat va kasbga tayyorlashda milliy qadriyatlar orqali o'quv mashg'ulotlari imkoniyatlari yoritilgan [113].

Shuningdek, N.Jumayeva tadqiqotlarida o'quvchilarda mehnat ko'nikmalari shakllanganlik darajasini aniqlashning didaktik masalalari ochib borilgan [54].

E. Azimova tomonidan umumiy o'rta ta'lim tizimida "Texnologiya " va "Chizmachilik" fanlari mazmunining integratsiyasi o'rganilgan [34].

I. Yu. Aripov tomonidan o'quvchilarni Texnologiya jarayonida badiiy hunarmandchilik kasblariga yo'naltirish muammolari tadqiq etilgan [40].

A.A.Turg'unovanning ishlari xalq milliy an'alarida mehnat tarbiyasining roli va ahamiyatiga qaratilgan [110].

A.R.Xodjaboyevning fundamental tadqiqotlari mehnat va kasb ta'limi o'qituvchisini tayyorlashda o'quv-uslubiy majmualar ishlab chiqish va amalda joriy etishga yo'naltirilgan [118].

U.N.Nishonaliyev tomonidan, texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy va shaxsiy fazilatlari taraqqiyoti tarixi va kelajakdagi rivojlanish yo'llarini ishlab chiqilgan [87].

O'.T.Tolipovning ilmiy tadqiqotlari bo'lajak pedagog-o'qituvchilarning umummehnat va umumkasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish muammolarini yoritilib, pedagogik texnologiyalarni qo'llash imoniyatlariga bag'ishlangan.

A.I.Toshev tomonidan Texnologiya da "Yashil qo'riqchilar" va "Posbonlar" o'quvchilar uyushmalari asosida ekologik tarbiya berish masalalari o'rganilgan va ilmiy natijalar olingan [101].

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, aksariyat ishlar "Texnologiya" fani o'qituvchisini tayyorlash sifatini oshirish, maktab o'quvchilarini mehnatga o'rgatish, ularning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish, milliy an'ana va qadriyatlardan foydalanish masalalariga bag'ishlangan.

Yana shuni ta'kidlash joizki, texnologiya fanining asosiy xususiyatlaridan biri, maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning fundamental asosi hisoblanadi. Biz bu sohada ham bir qator izlanishlar olib bordik [90,96].

Kasbni to'g'ri tanlash shaxs hayotida katta ahamiyatga ega. Ammo kasb tanlash, to'g'rirog'i, o'z hayot yo'lini belgilash yoshlar uchun oson ish emas. Odatda o'qituvchilar o'quvchilarga kasb va mutaxassisliklar haqida hikoya qilib berishadi. Biroq bu bilan ularda darhol kasbga qiziqish uyg'onib qolmaydi. O'quvchilarni kasbga qiziqtirish uchun muntazam va izchil ish olib borish, maxsus mashg'ulotlar tashkil etish, ularga kasbni eggalash usullari va kasbiy malakaning o'ziga xos ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berish lozim. Buning uchun o'quvchilarda qaysi kasbga qiziqish va qobiliyat borligini bilish va shunga qarab ularni to'garak mashg'ulotlariga jalb qilish, ularga yakka tartibda vazifa va topshiriqlar berish, qo'shimcha maxsus adabiyotlarni tavsiya etishi kerak. Bunday

ishlarni epizodik xarakterda emas, balki doimiy, izchil va aniq maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etish samarali natija beradi [100].

Biz bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga texnologiya va uni o'qitish metodikasi ixtisolik fanini o'qitish jarayonida maktabda texnologiya fanini kasbga yo'naltirib o'qitish jarayonini amalga oshirishning quyidagi shakllarini tavsiya etdik.

- o'quvchilarga tuman va shahardagi kasb-hunar kollejlari va ulardagi o'rgatiladigan kasblar haqida ma'lumot berish;

- kasb-hunar kollejlariga ekskursiyalar uyushtirish;

- kasb-hunar kolleji o'quvchilarinig hayoti va o'qishi haqida videofil'mlar namoyish qilish;

- tarbiya jarayoni va turli kasblar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash mazmunini aks ettiruvchi stendlar hamda ko'rgazmalar tayyorlash;

- kasb-hunar kolleji va akademik lisey o'quvchilari bilan uchrashuv kechalari tashkil etish;

- "Kasblarni kim yaxshi biladi?" tanlovlarini, "Kasblar haqida gaplashamiz" maktab lektoriylarini tashkil etish;

- maktablarda alohida yoki "Texnologiya" fani xonalarida "Kasb tanlovchiga yordam" burchaklarini tashkil etish:

- Kasbga yo'naltirish xonalarini tashkil etish;

- kasb-hunar kolleji va akademik lisey o'quvchilarinig maktablarda kasbiy to'garaklarini tashkil qilishda va ular ishini yo'lga qo'yishda uslubiy yordam ko'rsatishi;

- kasb-hunar kollejlari va akademik litsey o'quvchilarinig maktab o'quvchilari huzurida muayyan kasblar haqida ma'ruza bilan chiqishlarini tashkil qilish;

- kasb-hunar kolejlari va akademik liseylarda "Ochiq eshiklar" kunlarini o'tkazish;

- o'quvchilarning ota-onalari uchun kasbga yo'naltirish mavzusida seminarlar tashkil qilish.

Bundan tashqari, o'quvchilarga O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarining umumjahon va tarixiy ahamiyatini tushuntirish, katta avlodning mehnat yutuqlari va an'analari haqida ma'lumotlar berish, ularni ommaviy kasblar bilan tanishtirish, buyuk bobokalonlarimiz qoldirgan madaniy meroslarni ularning kasblar haqida fikr-mulohazalarini, kasb egallash usullarini tahlil qilish muhimdir.

Shuni ta'kidlash joizki, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishi ularni maktabni tugatib, kasb-hunar kollejiga o'qishga kirishi bilanoq to'xtab qo'yilmasligi shart.

Bu ish o'quv yilining birinchi yarmida quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

- o'qishga yangi qabul qilinganlarni ta'lim muassasasidagi o'quv sharoitlari bilan tanishtirish;

- mehnat faxriylari ishtirokida "Mening kelajagim kasbim" mavzusida kechalar o'tkazish;

- kasblar haqida himoya qilingan videofil'mlar ko'rish;

- shahar yoki tumandagi tarixiy joylar, me'morchilik yodgorliklari bilan tanishtirish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarning kollej yoki akademik lisey bitiruvchilari bilan uchrashuvi;

- "Mening liseyim yoki kollejim" mavzusida anketa so'rovlarini o'tkazish.

Ana shu ishlarni amalga oshirish uchun avvalambor oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv-uslubiy ta'minoti va metodik ko'rsatmalar ishlab chiqilishi kerak.

Bizning fikrimizcha, boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda uzviylikni ta'minlash uchun maktab va kasb-hunar kollejlarning o'zaro hamkorligini keng yo'lga qo'yish hamda ushbu yo'nalishni o'quv-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlash lozim.

Oliy ta'lim muassasalarida "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" ixtisolik fanini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan har qanday yo'nalishlarni natijalarining samarasi uquv-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlanishga bog'liq. Demak, texnologiya va uni o'qitish metodikasi ixtisolik fanini sifat va

samaradorligini oshirishning asosiy yoʻnalishlaridan biri bu zamonaviy darsliklar, metodik koʻrsatmalar, elektron taʼlim resurslari bilan taʼminlash hisoblanadi.

Oʻquv adabiyotlari, nafaqat taʼlimiy, ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy –siyosiy bilimlar manbaigina boʻlib qolmay, u yoshlarni maʼnaviy, ruhiy-estetik, ijtimoiy-iqtisodiy, vatanparvarlik, iqtisodiy - siyosiy, insoniy va boshqa jihatlarini tarbiyalashning qudratli omilidir [103].

Kadrlar tayyorlash milliy modeli talablariga muvofiq uzluksiz taʼlim tizimida joriy etilgan yangi davlat taʼlim standartlari asosida «Uzluksiz taʼlim tizimi uchun oʻquv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish konsepsiyasi» asosiy vazifalariga oʻquv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish uchun ilmiy-gʻoyaviy, uslubiy-didaktik, psixologik-pedagogik, sanitariya-gigiyenik talablarni ishlab chiqish, oʻquv adabiyotlaridan toʻgʻri va rasional foydalanish maqsadida ularning mavjud shakllari va turlariga aniq taʼriflar berish, hamda mamlakatimiz miqyosida zamonaviy oʻquv adabiyotlarini tayyorlash boʻyicha dasturlarni amalga oshirish uchun strategik masalalar koʻlamini aniqlash kiritilgan edi.

Oʻtkazilgan tahlillar shuni koʻrsatdiki, keyingi yillarda uzluksiz taʼlim tizimi uchun oʻquv adabiyotlarini yaratish boʻyicha quyidagi ikki yoʻnalishda ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar olib borilgan:

1. Oʻquv adabiyotlar zamonaviy avlodini yaratish nazariyasiga bogʻliq muammolarni hal qilishga yoʻnaltirilgan fundamental tadqiqotlar.

Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilariga oʻqitiladigan “Texnologiya va uni oʻqitish metodikasi” ixtisolik fanini rivojlantirish muammolariga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlili shuni koʻrsatadiki, texnologiya va uni oʻqitish metodikasi ixtisolik fanidan zamonaviy taʼlim talablari asosida darslik va oʻquv materiallarini ishlab chiqishga oid izlanishlar deyarli olib borilmagan. Sifatli oʻquv adabiyotlarning yaratilishi va oʻquv jarayoniga tadbiq etish taʼlim sifat va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Oʻquv adabiyotlarini yaratish va nashrdan chiqarish jarayoniga oid amaliy tadqiqotlar. Bu yoʻnalishda amaliy ahamiyatga ega boʻlgan bir qator metodik ishlar olib borilgan. Ilmiy ahamiyatga ega boʻlgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Oliy ta'lim muassasalari uchun yangi darsliklar yaratilib, nashrdan chiqarildi, hamda amalda joriy etildi.

Biz tomondan olimlar, pedagoglar va tadqiqotchilar tomonidan darslik to'g'risida berilgan fikrlar o'rganildi. "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish konsepsiyasi" ga muvofiq o'quv-uslubiy adabiyotlarga quyidagicha ta'riflar beriladi [26]:

Darslik – davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, uslubiyoti va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqloq g'oyasi singdirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, hamda turdosh ta'lim yo'nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr²:

O'quv qo'llanma – darslikni qisman to'ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo'yicha tuzilgan va fan asoslarining chuqur o'zlashtirilishini ta'minlovchi, ayrim bob va bo'limlarni keng tarzda yoritishga yoki amaliy mashq va mashg'ulotlar yechimiga mo'ljallangan nashr³;

Metodik qo'llanma – o'qituvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda bir darsning maqsadi, dars o'tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida tavsiyalar bayon qilinadigan, ta'lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr⁴;

S.G.Antonova o'quv adabiyotlarini dasturiy –uslubiy, o'quv –uslubiy, ta'lim beruvchi uchun mo'ljallangan hamda qo'shimcha adabiyotlarga ajratib, xar biriga o'zining ta'riflarini beradi [39].

Ilmiy adabiyotlarda darslikni boshlang'ich sinf o'quvchilarini fanning fundamental asoslari bilan tanishtiruvchi manba deb ham yuritiladi.

O'quv adabiyotlarini yaratish nazariyasiga bag'ishlangan ilmiy asarlarda darslikka quyidagicha ta'rif berilgan: "Darslik fan mazmunini aks ettiruvchi o'quv materialini va u bilan ishlash metodikasini tavsiya etadi, hamda o'qituvchiga o'quv

² <https://tnu.tj/index.php/ru/glavnaja/>

³ <https://jdpu.uz/>

⁴ <https://jdpu.uz/>

materialini boshlang'ich sinf o'quvchilarga yetkazish va o'rgatish, boshlang'ich sinf o'quvchisiga esa o'rganish va o'zlashtirish metodlarini taqdim etadi. Boshqacha qilib aytganda, darslikda ta'lim maqsadlari mazmun va metodlar ko'rinishida mujassamlashtiriladi" [52].

Darsga qo'yiladigan ko'plab ta'lim talablarini bajarish va o'quv materialini mustahkamlashda o'qituvchi uchun darslik eng yaxshi yordamchi didaktik vosita hisoblanadi. Yangi yaratilgan darslikning har bir mavzusi o'ziga xos yaxlit va to'liq o'quv materialini o'zida qamrab oladi [93].

Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra "Darslik – bu fanning ilmiy asoslarini o'rgatish vositasi bo'lib, unda qaysidir darajada o'quv predmetini o'qitish metodikasi taqdim etiladi" yoki "Darslikni yaratish – bu o'quv tarbiya jarayonini loyihalashtirishdir" [96].

V.V. Krayevskiy va I.Ya. Lernerlar darslik butun o'qitish jarayonini tashkil qilish uchun xizmat qiladi unda nafaqat boshlang'ich sinf o'quvchisining faoliyati, balki o'qituvchining faoliyati ham dasturlashtiriladi [64,72] degan fikrni bildirganlar.

Ba'zi ilmiy ishlarda «Darslik o'quv jarayonining o'zagi va o'quv predmetining modeli bo'lib, undagi yoritilgan bilim, ko'nikma, malaka davlat ta'lim standartida belgilangan minimum deb qaraladi [67].

Rossiyalik nazariyachi olim V.P. Bespal'kning fikricha⁵: "Darslik – axborotli model bo'lib, unda pedagogik tizimning quyidagi to'rtta elementi: ya'ni o'qitish maqsadlari, o'qitish mazmuni, didaktik jarayonlarni tanlash va ishlab chiqish, o'qitish shakllarini tashkil qilish kabi jihatlar o'z aksini topadi. Bunda darslik boshlang'ich sinf o'quvchisining imkoniyatini inobatga oluvchi o'qitish vositalaridan biri hisoblanadi" [47].

Shuningdek ilmiy asarlarda "Darslik – bu moddiy ob'yekt bo'lib, u ma'lum bir aniq tizimli ko'rinishdagi ma'lumotlarni o'zida qamrab oladi. Bularga ilmiy bilimlar, o'qitish maqsadlari, vazifalari va mazmunlariga muvofiq faoliyat usullari

⁵ <https://tnu.tj/index.php/ru/glavnaja/>

to'g'risidagi bilimlar, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'zaro ta'sirini modellashtiruvchi materiallar kiradi" degan ta'riflar ham keltirilgan [47].

E.Yangabayevaning ta'kidlashicha, darslik boshlang'ich sinf o'quvchilarining davlat standartida va o'quv dasturida belgilab berilgan bilimlarni faol va ongli suratda o'zlashtirishlari uchun mo'ljallangan asosiy o'quv kitobi hisoblanadi. To'laqonli yaratilgan darslik axborot modelining majmuidan iborat bo'lib, bu model' pedagogik tizimning o'qituvchi-darslik-o'quv jarayoni-boshlang'ich sinf o'quvchisidan iborat to'rt muhim tarkibiy qismini aks ettiradi va ularni amaliyotga tadbiiq etishga imkon beradi⁶. Bunda darslik o'qitishning texnik vositasi sifatida boshlang'ich sinf o'quvchisining, ya'ni o'z iste'molchisining imkoniyatlarini hisobga olishi zarur bo'ladi [130].

Bir qator mualliflar tomonidan darslik muayyan o'quv fani bo'yicha asosiy bilim manbai bo'lib, u bilimlarni boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan mustaqil o'zlashtirib olinishiga mo'ljallangan degan fikrlar ham bildirilgan [130].

Darslik – bu bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida muayyan o'quv fanining aniq mazmuniga ega bo'lib qolmay, balki undan bilim olishni o'rganish⁷, o'rganilgan bilimlarni umumiyashtirishni va ega bo'lgan bilimlarni qancha to'g'ri ekanligini taqqoslashni va amaliy ko'nikmalarda qo'llashni o'rgatadi. Darslikni o'qituvchi va boshlang'ich sinf o'quvchisining o'zaro hamkorligi vositasi birligi sifatida tasavvur qilish kerak. Darslik o'qitish vositasi majmuasining yadrosi hisoblanadi, qaysiki uni atrofida qolgan o'quv vositalari guruhlashtiriladi [132].

R.Safarova darslikni pedagogik tizimning axborotli modeli sifatida qarab, darsliklar yangi avlodi boshlang'ich sinf o'quvchisi yoshlarda yuksak dunyoqarashni qaror toptirish ifodasi sifatida taqdim etishi lozimligini ta'kidlaydi. Muallif fikricha, yangi darsliklar va o'quv kitoblari axborotga boyligi, ta'lim mazmunini aniq ifodalay olishi, boshlang'ich sinf o'quvchisi shaxsiga yo'naltirilganligi, muayyan janrga egaligi, o'quv materialining ravonligi, bayonning ifodaliligi, pedagogik-psixologik g'oyalar sindirilganligi, metodik

⁶ <https://tnu.tj/index.php/ru/glavnaja/>

⁷ <https://elibrary.ru/defaultx.asp?>

jihtadan yo‘naltirilganligi, aniq didaktik apparatiga, uzviy, kommunikativ, hamda muvoffiqlashtiruvchi funksiyaga egaligi bilan ta‘lim vositalari sifatida alohida ahamiyatga ega⁸ [101].

Uzluksiz ta‘lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarini yangi avlodini yaratish konsepsiyasiga muvofiq hozirgi paytda yaratiladigan o‘quv adabiyotlarining zamonaviy avlodi shaxsni rivojlantirishga yo‘naltirilishi kerak. Chunki bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchisining shaxsi ta‘lim jarayonining markaziy figurasi hisoblanadi. Shuningdek ilm, fan-texnika va texnologiyalarning taraqqiy etishi esa ta‘lim mazmuniga yangilanishni talab qiladi. Bu esa shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar asosida darsliklarni yaratishni talab etadi.

Shu o‘rinda shuni ta‘kidlash joizki, hozirgi paytda ilm - fan, texnika va texnologiyalarning kun sayin yangilanib borishi va axborotlar ko‘payishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan kelajakda yangi bilimlarga intilishni va mustaqil o‘rganish ko‘nikmasiga ega bo‘lish talab etadi⁹.

Ba‘zi tadqiqotchilar fikricha, zamonaviy ta‘lim sharoitida darslik – o‘qitish jarayonini yo‘naltiruvchi va mustaqil ta‘lim olishga imkoniyat yaratuvchi vosita bo‘lishi kerak [102,104].

Sh.Qurbonovning fikricha, hozirgi davrda o‘qitish jarayoni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil ta‘lim olish va o‘rganish ko‘nikmasini shakllantirishga va ularda bilim olishga qiziqishni uyg‘otishga yo‘naltirilishi lozim¹⁰. Aks holda esa ta‘lim oluvchilarning shaxsini rivojlantirishga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, ularda ta‘limning keyingi bosqichlarida o‘qishni davom ettirish xohishi va istagini kamaytiradi [71].

Q.T.Olimovning nazariy konsepsiyasiga ko‘ra shaxsning butun hayoti davomida mustaqil va muntazam bilim olishi zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan o‘quv adabiyotlarni yangi avlodini yaratish va ularni ta‘lim jarayoniga joriy etish orqali ta‘minlanadi [91].

⁸ <https://tnu.tj/index.php/ru/glavnaja/>

⁹ <https://library.tuit.uz/>

¹⁰ <https://elibrary.ru/defaultx.asp?>

Ushbu fikrlar shundan dalolat beradiki, zamonaviy ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'quv adabiyotlaridan mustaqil foydalanishga o'rgatish, bilimlarni mustaqil izlash, topishga hamda ularning erkin fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Shu jihatdan qaralganda umumta'lim maktablari "Texnologiya" fani bo'yicha foydalanilayotgan darsliklar zamonaviy ta'lim talabiga javob bermay qoldi. Chunki darslikda shaxsga yo'naltirilgan va rivojlantiruvchi ta'limga bog'liq jihatlar inobatga olinmagan. Hozirgi foydalanilayotgan darsliklarini avtoritar ta'lim tamoyillari, eski tushunchalar va qarashlar asosida yozilgan. Bunday darsliklar faqat nazariy ma'lumotlarni uzatishga mo'ljallangan bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchisining mustaqil bilim olishga imkoniyat yaratmaydi.

Shuningdek, umumiy o'rta ta'limiga xos bo'lgan pedagogik, psixologik va didaktik talablar yetarlicha e'tiborga olinmagan. Ba'zi Texnologiya darsliklarida mehnat jarayonlari yoki faoliyat usullarining mazmuni yoritilishida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil ishlashga yo'naltirilgan amaliy materiallar berilmagan.

Tadqiqotchilarning fikricha boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'quv adabiyotlaridan mustaqil foydalanishga o'rgatishda quyidagilar mo'ljalga olinadi:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'z bilimini tekshirish malakasini shakllantirish;

- uyda kitob bilan ishlash orqali dars davomida olingan bilimlarni mustahkamlash;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv materiali mazmunini tushunishlari uchun ularni reja asosida o'qishga, sxemalar va jadvallardan foydalanishga, konspekt yozish kabi amaliy ishlarga o'rgatish [84].

Darslikda boshlang'ich sinf o'quvchisini yangi bilimlarni egallashi uchun o'quv materiallarida tasviriy materiallar va amaliy mashqlarning mavjud bo'lishi talab etadi¹¹ [88].

¹¹ <https://elibrary.ru/defaultx.asp?>

Xorijiy olimlar fikriga ko'ra "Darslik boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil ishlash malakalarini rivojlantirishi, turli o'rgatish metodikalarini tavsiya etishi, olingan bilimlarni amaliyotga qo'llashni taqdim etishi kerak" [99].

X.Muhiddinovaning fikricha, darsliklar o'zidan avvalgi bosqich uchun yaratilgan darsliklarning takrori emas, balki davomi bo'lmog'i kerak. Buning uchun ushbu darsliklarning tamoyili bir xil bo'lishi darkor [84].

O'quv adabiyotlarini yaratishda boshlang'ich sinf o'quvchilarini yo'naltiruvchi, qiziqtiruvchi, muammoni yechish yo'llarini ko'rsatuvchi jumboqli, krossvord, mashq, savol va topshiriqlardan foydalanish bilimlarni mantiqiy o'zlashtirishga asos yaratadi [78].

Hozirgi davrda mustaqil ta'lim olish usullaridan biri bu o'quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlashga oid topshiriqlar berish va ularning bajarilishini o'qituvchi tomonidan doimiy nazorat qilib borishi kerak.

Q.T.Olimov fikricha darsliklar yangi avlodi bilimlarni boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan mustaqil o'zlashtirib olishga, ularda ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, kerakli materialni mustaqil izlash va topishga hamda amaliy faoliyatda qo'llashni o'rgatishga va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak¹² [91].

Zamonaviy darslik o'zida "boshlang'ich sinf o'quvchilarining darslik bilan mustaqil ishlash dasturini va o'z - o'zini baholash tizimini" qamrab olishi kerak [92].

Yana shuni ta'kidlash joizki, o'quv materialini mustaqil o'zlashtirishga erishish, balki darslik orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qilishi kerak.

Darsliklarni shunga o'xshash ta'riflari va vazifalari to'g'risidagi fikrlar bir qator [96,97] ilmiy tadqiqot ishlarida keltirilgan.

Maxsus fanlardan o'quv adabiyotlarini yaratish muammolari bo'yicha A.G'afforov [48] va o'quv adabiyotlari sifatini baholash metodikasi bo'yicha H.Saidova [98] lar tadqiqotlar olib borganlar.

¹² <https://elibrary.ru/defaultx.asp?>

Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarini yaratish muammolariga qaratilgan bir qator tadqiqotlar olib borilgan.

M.X. Maxmudov tadqiqotlarida darslikda o'quv materiali, uning turli shakllarini loyihalash muammolari tadqiq qilinib, ularning yechimlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan [73].

N.I.Tayloqovning o'quv adabiyotlarini yaratish muammolariga qaratilgan doktorlik dissertasiya ishida quyidagi ilmiy natijalar olingan [96]:

- o'quv adabiyoti yangi avlodini yaratishga qo'yiladigan pedagogik talablar, mezonlar, o'quv adabiyotlarning tuzilishi, shakllari va turlari bir butun yaxlit tizim sifatida ilmiy pedagogik tahlil etilgan;

- darsliklarni yaratish bosqichlari, mezonlari pedagogik nuqtai nazardan ochib berilgan;

- umumta'lim maktablari, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim muassasalari uchun turkum darslik va o'quv qo'llanmalar yaratilishda ularni ta'lim bosqichlari aro uzviylik va uzluksizligini ta'minlashning ilmiy nazariy asoslari ishlab chiqilgan¹³;

- ta'lim bosqichlari uchun elektron darsliklar yaratish va ulardan masofali ta'limda foydalanishning pedagogik asoslari ishlab chiqilgan.

- o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishni takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

J.Musayevning ilmiy maqolasida darslik metodik jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchisining mustaqil fikrlashining rivojlantirishiga imkoniyat bera oladigan bo'lishi, fan asoslarining hayot bilan kundalik turmush bilan o'zaro bog'lanishini amalga oshirishni; hozirgi zamonning tabiat va jamiyatning bosh muammolarini tushunishda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ko'maklashish hamda ularni bilish va ijodiy izlanish qobiliyatlarini rivojlantirishi lozimligi ko'rsatib o'tilgan [77]

Bizning fikrimizcha "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" fani darsliklari boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimini, ko'nikmasini va malakalarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi,

¹³ <https://tnu.tj/index.php/ru/glavnaja/>

mazmunida mehnat qilish usullarining to'laqonli yoritilishi, boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishga hamda mustaqil ta'lim olishga imkoniyat yaratishi, egallagan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashni ta'minlashi, o'z-o'zini baholash metod va materiallarini o'zida qamrab olgan holda pedagogik va axborot texnologiyalari asosida yaratilishi kerak.

“Texnologiya va uni o'qitish metodikasi” darsligida muammoli savol va masalalar, mashqlar va ijodiy topshiriqlarni kiritish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilim va ko'nikmalarni mustaqil egallashga ehtiyoj hamda qiziqishni oshirish mumkin¹⁴.

Shu o'rinda darslikda o'quv materialini loyihalash va taqdim etishga to'xtaladigan bo'lsak, fanda o'quv materialini haqida turli fikr va muloxazalar mavjud.

Ya.A.Komenskiyning yozishicha, o'quv materialini-bilimning o'qituvchi tomonidan boshlang'ich sinf o'quvchilariga uzatiladigan asosiy mazmundir.

V.V.Krayevskiy ta'kidlashicha o'quv materialini uzatiladigan ma'lumot va axborot mazmuni bilan tuziladigan didaktik loyiha o'rtasidagi oraliq [64].

V.S.Syetlin esa o'quv materialini darslikning birligidir deb qaraydi [].

O.Roziqovning tavsificha, ta'lim mazmuni o'quv materiallarida moddiylashadi [].

Didaktikashunoslarning (A.M.Soxor, T.A.Il'ina, A.A.Chensov) tadqiqotlarida didaktik loyihalarni o'quv materialini xususiyatlaridan kelib chiqib tayyorlash g'oyasi asoslangan.

A.A.Abduqodirov va A.X.Pardayevning monografik asarida o'quv materiallari - o'quv dasturiga muvofiq o'zlashtirish zarur bo'lgan axborot hisoblanadi [25].

O.A.Adbquddusov fikricha, bugungi kunda o'quv materialining mantiqiy tuzilishi, hajmi tushunarli, matnni asosiy va ikkinchi darajaga ajratilishi, aniq va mavhumligining nisbati, illyustrasiyalarning xususiyatlari va ularni matn bilan

¹⁴ <https://elibrary.ru/defaultx.asp?>

bog‘liqligi, predmetlararo aloqadorligi shu paytgacha yetarli darajada tadqiq etilmagan [28].

Umumiy o‘rta ta’lim samaradorligini oshirishning eng muhim yo‘llaridan biri o‘quv materialining yangi tuzilmasini loyihalashdan iborat.

O‘.Sh. Yo‘ldashev dissertasiya ishida o‘quv materialini bayon qilishga tarixiy yondashish prinsipi ilmiy asoslanib, pedagogik texnologiya prinsiplari uyg‘unligini ta’minlashning didaktik imkoniyatlari aniqlangan. Shuningdek o‘quv materiallarini bayon etishda tarixiylik prinsipiga tayangan holda saralash va bayon etish qonuniyatlari ochib berilgan¹⁵ [62].

Shuningdek, darslikda o‘quv materiallarini loyihalashda boshlang‘ich sinf o‘quvchisining bilimlarni mantiqiy bosqichma-bosqich o‘zlashtirishiga e’tibor berish lozim.

G.Ergasheva ta’kidlashicha o‘quv fanining mazmuni bevosita o‘quv materiallarini strukturalashga bog‘liq bo‘ladi. Buning uchun o‘quv materiali muayyan didaktik tamoyillari asosida tartibga keltiriladi [126].

Muallif fikriga ko‘ra o‘quv materialida bir necha bilimlar tizimi to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘quv faniga kiritilmaydi, balki maktab dasturiga mos holda:

- o‘quv materialining tanlanishi;
- o‘quv materialining joylashish tartibi;
- o‘quv materialining hajmi va mazmuni;
- o‘quv materiali bayonining ilmiyligi;
- o‘quv materiali bayonining tushunarli bo‘lishi;
- o‘quv materialini bayon etish usuli;
- o‘quv materialidagi voqealar va qonuniyatlarni yechib berishning teranligi;
- o‘quv materialida o‘z vaqtida ta’minlanishi;
- o‘quv materialining amaliy bog‘liqligi¹⁶;
- illyustrativ materiallarning sifatiga bog‘liq bo‘ladi.

¹⁵ <https://tnu.tj/index.php/ru/glavnaja/>

¹⁶ <https://elibrary.ru/defaultx.asp?>

B.Adizovning fikriga ko'ra, o'quv materiali ma'lumot mazmunini moddiylashtirishning eng so'nggi darajasidir. U ta'lim boshlanguncha me'yoriy loyiha - darslik tarkibida tayyor holda bo'ladi [33].

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Texnologiya bo'yicha darsliklar yangi avlodini yaratish metodikalarini ishlab chiqish umumiy o'rta ta'limni rivojlantirishdagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'limi uchun "Texnologiya" fani bo'yicha darsliklarni yaratish muammolariga qaratilgan ilmiy izlanishlar juda kamdir.

Quyidagi savollarga ilmiy asoslangan javoblar yo'q: "Zamonaviy Texnologiya darsligi qanday bo'lishi kerak?", "Qanday pedagogik, psixologik va didaktik talablarga javob berishi kerak?", "O'quv jarayonidagi ta'siri va roli qanday bo'lishi kerak?", "Darsliklar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qanday imkoniyatlarni yaratishi kerak?"

Biz tomondan oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan seminarlarda, malaka oshirish kurslarida, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" fanini o'qitadigan o'qituvchilaridan so'rovnomma olib borildi va natijalari taxlil qilindi¹⁷.

So'rovnomada ishtirok etgan o'qituvchilar, Siz o'qitayotgan texnologiya va uni o'qitish metodikasi ixtisolik fani darsligi mazmuni ta'lim standarti talablariga va o'quv dasturiga mos keladimi? degan savolga 13.6 % ha; 81.1% qisman, 4.5 % esa yo'q deb javob berishgan va o'quv dasturini takomillashtirish tavsiya etishgan. Darslikda "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" ixtisolik fani bo'yicha o'quv dasturidagi barcha o'quv materiallar to'liq yoritilganmi degan savolga 9 % o'qituvchilar ha, 68.2 % qisman, 22.7 % esa yo'q deb javob berishdi. Texnologiya darsligidagi barcha asosiy o'quv materiallari to'liq qamrab olinmaganligini qayd etishgan, bu esa asosiy kamchiliklardan biridir. Darslikda nazariy va amaliy o'quv materiallari bilan o'zaro bog'liqligi ta'minlanganmi¹⁸? degan savolga 27.3% o'qituvchilar ha, 59 % qisman, 13.6% esa yo'q deb; "Texnologiya va uni o'qitish

¹⁷ <https://library.tuit.uz/>

¹⁸ <https://elibrary.ru/defaultx.asp?>

metodikasi” ixtisolik fani darsligi bugungi kun ta’lim talablariga mos keladimi? degan savolga 9 % o’qituvchilar xa, 50 % qisman, 40.9% esa yo‘q deb; darslikda “Texnologiya va uni o’qitish metodikasi” ixtisolik faniga tegishli zamonaviy texnika va texnologiyalar va ilm fan yutuqlaridan foydalanilganmi¹⁹? degan savolga 4.5 % o’qituvchilar xa, 50 % qisman, 45.5 % esa yo‘q deb; matnning murakkablik darajasi maktab boshlang‘ich sinf o’quvchisilari yoshiga mos keladimi? degan savolga 54.5 % o’qituvchilar xa, 36.4 % qisman, 4.5 % esa yo‘q deb; darslikda milliy xususiyatlar inobatga olinganmi? degan savolga 18.2 % o’qituvchilar xa, 40.9% qisman, 40.9% esa yo‘q deb; darslik sizga mashg‘ulotlarni loyihalashtirishga, savollar va testlar tuzishga yordam beradimi? degan savolga 31.8 % o’qituvchilar xa, 54.5 % qisman, 13.6 % esa yo‘q deb; darslikda amaliy mashqlar va topshiriqlar kiritilganmi? degan savolga 36.4 % o’qituvchilar xa 50 % qisman, 13.6% esa yo‘q deb; darslikda savollar o‘z-o‘zini baholash uchun testlar berilganmi? degan savolga 18.2 % o’qituvchilar xa, 18.2 % qisman, 63.6 % esa yo‘q deb; darslikdagi tasviriy materiallar mazmuni tushunishga yordam beradimi? degan savolga 18.2 % o’qituvchilar xa 59 % qisman, 18.6% esa yo‘q deb; maktabingizda “Texnologiya va uni o’qitish metodikasi ixtisolik fani”dan o’quv ustaxonasi mavjudmi? O’quv ustaxonasi jihozlanganmi? degan savolga 59 % o’qituvchilar xa, 18.2 % qisman, 22.8% esa yo‘q deb; maktabingizda kasbga yo‘naltirish ishlari yo‘lga qo‘yilganmi? degan savolga 13.6 % o’qituvchilar xa, 54.5 % qisman, 31.8% esa yo‘q deb; “Texnologiya va uni o’qitish metodikasi ixtisolik fani” bilan kasbga yo‘naltirish o‘zaro aloqadorligi ta’minlanganmi? , degan savolga 77.3 % o’qituvchilar xa, 22.3 % qisman, % esa yo‘q deb javob berishdi.

Anketaga tushirilgan barcha savollarga 50% dan ortiq ishtirokchilar qisman deb javob berishganligi shundan dalolat beradiki, bugungi kunda Texnologiya va uni o’qitish metodikasi fanidan o’quv dasturlarini va darsliklarini zamonaviy ta’lim talablari asosida qayta ishlab chiqish eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

¹⁹ <https://elibrary.ru/defaultx.asp?>

Shu nuqtai nazardan, biz Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi darsliklarini avvalombor o‘quv materiali mazmunini ishlab chiqishda, matni yoritishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish va darslikka qo‘yiladigan didaktik, psixologik hamda uslubiy talablar asoslanishi muhim ahamiyatga kasb etishni asoslashga harakat qildik.

Bizning fikrimizcha hozirgi davr sharoitida hamda zamonaviy ta’lim talablarini bajarishda o‘quv adabiyotlarning yangi avlodi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida yaratilishi lozim. Pedagogik va axborot texnologiyalari asosida yaratilgan darslik boshlang‘ich sinf o‘quvchisining mustaqil bilim olishga va o‘rganishiga to‘la imkoniyat yaratadi²⁰.

1.2. O‘quv materiallariga qo‘yiladigan zamonaviy pedagogik talablar

Hozirgi paytda darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar, uzluksiz ta’lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarini yaratish konsepsiyasida o‘rta ta’lim maktablari uchun ham o‘quv adabiyotlariga qo‘yiladigan umumiy talablar asosida yaratilib kelinmoqda. Ammo bugungi kunga qadar “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” darsliklariga qo‘yiladigan talablar ishlab chiqilmagan. “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” boshqa fanlarga nisbatan o‘ziga xos farqli belgilarga ega bo‘lib, bu fandan yaratiladigan darsliklarga alohida talab va yondashuvlar ishlab chiqilishi kerak. Chunki “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” ixtisolik fanidan eski talablar, qoidalar va tamoyillar asosida yaratilgan darsliklardan foydalanib kelinmoqda. Bu hol esa texnologiya fani darsliklarining mazmuniga, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning yosh xususiyatiga, ularning o‘quv materialini o‘zlashtirish imkoniyatlariga mos emasligiga²¹, nazariy jihatdan murakkab o‘quv materiallariga ko‘proq e’tibor berilganligiga olib keldi. Shuning uchun ham respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab darsliklarning

²⁰ <https://elibrary.ru/defaultx.asp?>

²¹ <https://library.tuit.uz/>

yangi avlodini yaratish, ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Oliy ta'lim uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish muammolariga qaratilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar doirasi kengayib borsada, hanuzgacha "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" ixtisolik fani darsligiga qo'yiladigan yagona zamonaviy talablar ishlab chiqilmagan²².

Agar ushbu sohadagi ilmiy ishlarni tahlil qilsak, umumiy o'rta maktablar darsliklari yangi avlodini sifatini oshirishda ularga qo'yiladigan talablar va yondashuvlar A.A.Abduqodirovning [25], darsliklar yangi avlodini yaratish muammolariga qaratilgan bir qator talablar, darsliklarda pedagogik texnologiyalar ifodalanishi yoki o'z aksini topishi masalalari U.K.Musayevning ilmiy maqolalarida yoritilgan [78].

R.Safarova tomonidan umumiy o'rta maktab darsliklariga qo'yiladigan talablar ishlab chiqildi [101].

Xalq ta'limi tizimida o'quv dasturlarini takomillashtirish muammolari bo'yicha R.I.Axlidinov [42], oliy ta'lim muassasalari darsliklari yangi avlodiga qo'yiladigan talab va ularni baholash mezonlari masalalariga oid D.Shodiyev va boshkalar tomonidan [124] fundamental tadqiqotlarini keltirish mumkin, A.Akmalov matematika ta'limi jarayonida tarixiy materiallarni tanlash mezonlarini [36] ishlab chiqqan, elektron o'quv adabiyotlariga qo'yiladigan talablar A.N.Tayloqov [104] ishlarida aks etgan.

V.M.Rozin darsliklarni yangi avlodini yaratish tamoyillarini ishlab chiqqan [97].

U.Musayev fikricha darsliklarning yangi avlodini yaratishda Davlat ta'lim standarti talablari va o'quv dasturi hajmida me'yorlangan o'quv yuklamasining modeli va taqdim etilayotgan o'quv materiallarining ta'limiy-tarbiyaviy qiymatligini ta'minlash parametrlariga, boshlang'ich sinf o'quvchisilarni yangi bilim va axborotlar bilan qurollantirishning didaktik va texnologik asoslariga tayanish maqsadga muvofiqdir [78].

²² <https://library.tuit.uz/>

M.E.Inoyatova darslik yaratish nafaqat zamonaviylikka, balki o'tmish ma'naviy merosimizga xususan an'anaviy, milliy asoslariga suyanish, darslikdagi ayrim bezaklar sxema, jadval, rasmlar, chizmalar o'quv yilining davrlari moslashtirilishi lozim deb ta'kidlaydi [59].

Bir qator olimlar sifatli darslik yoki o'quv adabiyotlarini yaratish uchun quyidagi mezonlarga asoslanishi lozimligini e'tirof etadilar [60]:

1. Matnda ifoda etilgan fikrlar tushunarli, qo'llanilgan fikrlar mantiqan bir-biriga bog'langan, shuningdek, mazmuni ochib berishga turli tasvir hamda chizmalardan samarali foydalanish imkoniyatining mavjud bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

2. Darslik matni ta'lim oluvchilarning yoshi, psixologik va fiziologik xususiyatlari inobatga olingan holda yaratilishi, fikrlarning ilmiy jihatdan asolanishiga e'tibor qaratish lozim²³.

3. O'quv adabiyotlarini tarkibiy tuzilmasidan o'rin olgan band va boblar muayyan izchillikda berilishi lozim.

4. O'quv adabiyoti ta'lim oluvchilarning mavjud ehtiyojlarini qondira olish va o'ziga xoslikka ega bo'lishi zarur.

5. O'quv adabiyotining davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari talablariga asosan yaratilishi maqsadga muvofiq.

6. Darslik matnining grammatik, orfografik hamda fonetik talablarga muvofiq yozilishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

G.S.Ergasheva nomzodlik dissertasiyasi ishida o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishda biologiya darsligining boshlang'ich sinf o'quvchisilar yoshi, psixologik va fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tuzilishi; mantiqiy va tarkibiy tuzilmasiga ko'ra didaktik talablarga muvoffiq kelishi; ijtimoiy g'oya, nazariya va amaliy birligi turdosh fanlar va ishlab chiqarish bilan integrasiyalashuvi, shuningdek zamonaviy ilm, fan, texnika va texnologiya yutuqlarini aks ettira olishi lozimligi ilmiy metodik jihatdan asoslangan²⁴ [127].

²³ <https://elibrary.ru/defaultx.asp?>

²⁴ <https://tnu.tj/index.php/ru/glavnaja/>

S.G.Antonova va A. G. Tyurinalar “Zamonaviy ta’lim sharoitidagi o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishda bir qator yangi talablarini e’tiborga olish kerak” deb ta’kidlaydilar [39].

B.A.Al’muxambetovning fikricha muallif yaratayotgan darslik mazmunini metodistlar va amaliyotchi o‘qituvchilar hamda psixologlar bilan chuqur tahlil etish, o‘quv materialining didaktik talablarga va boshlang‘ich sinf o‘quvchisilar yoshiga mos kelishiga e’tiborni qaratishlari kerak [38].

Ye.Yangabayevaning ta’kidlashicha darsliklar quyidagi asosiy talablarni bajarishi kerak: ta’limiy-metodologik tamoyillar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchisilarga bilim berish, tarbiyaviy boshlang‘ich sinf o‘quvchisilar ma’naviy didaktikalarini shakllantirish, ilmiy bilimlarga munosabatni rivojlantirish, rivojlantiruvchi-bilim olish va ijodiy faoliyatlarni rivojlantirishdan iboratdir²⁵ [130].

Bizning fikrimizcha texnologiya va uni o‘qitish metodikasi ixtisolik fanidan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quv materialini bilan mustaqil ishlashga o‘rgatish va darslikda mustaqil foydalanishga o‘rgatishga quyidagi umumdidaktik tamoyillarga rioya etish tavsiya etiladi. Mustaqil o‘rganilishi lozim bo‘lgan o‘quv materialini tanlash va o‘quv materialini murakkablik darajasini aniqlash; bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quv materialini mustaqil o‘rganish holatini aniqlash, mustaqil ish vaqtini belgilash, qo‘shimcha maslahatlar berish.

L.Tyurina sifatli darslik yaratishda quyidagi asosiy talablarga amal qilish lozimligi keltiriladi [105]:

- ilmiy fikr rivojlanishining asosiy yo‘nalishi va natijalariga, uning zamonaviy holatiga mos kelishi;
- fanga oid majburiy bilimlar yig‘indisini belgilab beruvchi ta’lim standartlari talablariga mos kelishi;
- ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni mustahkamlash, mustaqil ishlashni rag‘batlantirishi;
- mavzularning aniq belgilanishi, zarur ma’lumot apparati va adabiyotlar;

²⁵ <https://elibrary.ru/defaultx.asp?>

- darslik hech qanday qiyinchiliksiz o'qituvchining ilmiy va pedagogik kosepsiyasiga kiritilishi hamda o'quv jarayoni grafigi va ishchi rejasi bilan mos keluvchi vosita bo'lishi lozim²⁶;
- darslik mavjud o'quv jarayonini tashkil etish tizimi va istiqbolni qoniqtirishi lozim.
 - Biz ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish bilan bir qatorda oliy ta'lim muassasalarilarining 60010500 -Boshlang'ich ta'lim yo'nalishlariga dars o'tadigan 52 nafar professor-o'qituvchilari bilan suhbatlar o'tkazdik. Suhbat natijalari shuni ko'rsatadiki:

1. Darslik yangi avlodini qanday tushunasiz? degan savolga o'qituvchilar fan bo'yicha yangi ma'lumotlar yoritib berilishi, zamonaviy texnika va texnologiyalar haqida to'liq ma'lumotlar berilishi, har tomonlama mukammal bo'lishi, ko'proq amaliy va ko'rgazmali materiallar berilishi, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga tushunarli bo'lishi, tasviriy materiallar bilan boyitilgan, zamonaviy ta'lim talablari asosida yaratilgan darslikni tushunishlarini ta'kidlashgan²⁷.

Darslikning yangi avlodini yaratish muhim ahamiyatga ega, lekin bugunga qadar hali yaratilmaganligi e'tirof etilishgan.

2. "Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi" fani mashg'ulotda darslikdan boshqa yana qanday o'quv- uslubiy adabiyotlar va materiallardan foydalanasiz? degan savolga ishtirokchilar yog'och o'ymakorligi, qishloq xo'jaligi, maktab hayotiga oid materiallar va uslubiy qo'llanmalardan; texnologiya va uni o'qitish metodikasi ixtisolik fanining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lab o'tishga oid o'quv materiallaridan; maktab va hayot, uy ro'zg'or ensiklopediyasi; gazetalardan, jurnallardan, kataloglardan, kasbga yo'naltirish bo'yicha uslubiy qo'llanma va materiallardan, xorijiy davlatlarda chiqarilgan adabiyotlardan, hunarmandchilik, duradgorlik, kashtachilik, to'qimachilik, ishlarida qo'llaniladigan vositalardan, internetdan²⁸; ustalar va hunarmandlar ishlaridan

²⁶ <https://elibrary.ru/defaultx.asp?>

²⁷ <https://elibrary.ru/defaultx.asp?>

²⁸ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

lavha va namunalardan; tarqatma materiallar, slaydlardan foydalanayotganligi haqida javob berishdi. Bu esa texnologiya va uni o‘qitish metodikasi ixtisoslik fani o‘qituvchilarining pedagogik va kasbiy mahorati yuqori ekanliklaridan, bugungi kun o‘zgarishlarini inobatga olib o‘qitishlaridan dalolat beradi.

3. Sizningcha “Texnologiya ta’limi va uni o‘qitish metodikasi ixtisoslik fani” ning boshqa fanlar bilan farqi va o‘ziga xosligi nimada? degan savolga o‘qituvchilar kasbga oid texnologik jarayonlar va milliy hunarmandchilikka oid ishlarni bajarish bosqichlari bajarishda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbga qiziqtirish va hayotga tayyorlab borish, boshqa fanlar bilan uzviylikni o‘rnatishiga, amaliy jihatdan kasbga tayyorlashini ta’kidlab, bu jihatlar bilan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ishlash qobiliyati va tafakkurini rivojlantiriladi degan fikrni bildirganlar.

Shuningdek ularning fikricha Texnologiya ta’limi va uni o‘qitish metodikasi fani bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mustaqil mehnat qilishga o‘rgatadi. Nazariyani amalda bajarilishi, nazariy bilimlar amaliyot bilan qo‘shib olib borilishi bilan farq qiladi Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi ixtisoslik fani yosh avlodni jismoniy mehnat, hunarga bo‘lgan mehrni erta uyg‘otish, qo‘shimcha kasb olishga o‘rgatadi.

Haqiqatdan “Texnologiya ta’limi va uni o‘qitish metodikasi” fanining boshqa fanlardan asosiy farqi shundaki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari aniq kasblar bo‘yicha asosiy faoliyat usullarini, amaliy ishlarni bajaradilar.

4. Sizningcha bugungi kunda “Texnologiya ta’limi va uni o‘qitish metodikasi ixtisoslik fani” darsligi qanday talablarga javob berishi kerak? degan savolga ishtirokchilar hozir zamon ta’lim talablariga mos kelishi, zamonaviy texnologiyadan va fan yutuqlari inobatga olinishi, Davlat ta’lim standarti talablariga to‘la javob berishi va har bir bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi “Texnologiya ta’limi va uni o‘qitish metodikasi” darsligi bilan ta’minlanishi, har tomonlama mukammal bo‘lish, barcha mavzularni to‘liq o‘z ichiga olishi, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini shakllantira olish, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini yoshi e’tiborga olinishi kerakligini

ta'kidlaganlar. Ularning fikriga ko'ra DTSga belgilangan faoliyatlar barcha turlarini qamrab olishi, amaliy ishlarni alohida qilib ko'rsatilishi, darslikda barcha ma'lumotlar, to'liq bayon etilishi, rasmlar va turli chizmalar bo'lishi shart.

Tikuvchilik, qishloq xo'jaligi sohalarida bo'layotgan yangiliklar va sahifalarga boy bo'lishi, keng hunarmandchilikni yaratishga oid nazariy va amaliy lavhalar bo'lishi, nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'z ichiga olishi, milliy xususiyatlarga asoslangan bo'lishi, zamonaviy texnologiya talablariga javob berishi kerak²⁹.

5. Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi ixtisolik fani darslarda qanday o'qitish texnologiyalari va metodlaridan foydalanasiz? degan savolga o'qituvchilar modulli, muammoli, interfaol texnologiyalar hamda debat, musobaqa, kichik guruhlarda ishlash, vyenn diagrammasi, klaster, zinama-zina, o'yinli, munozarali, mashq, ijodiy ishlash kabi texnologiyalar va metodlardan foydalanishlarini e'tirof etishgan.

6. Modulli o'quv materiallari, modulli o'qitish texnologiyalari haqidagi tushunchangiz? degan savolda o'qituvchilar modulli o'qitishning kichik-kichik elementlari haqida to'xtalganlar. Modulli o'qitishning mohiyati va mazmuni haqida to'liq tushuncha bildirishga qiynalishgan.

7. Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi ixtisolik fanini rivojlantirish bo'yicha takliflaringiz degan savolga yangi darsliklar, uslubiy qo'llanmalar, testlar to'plami bilan ta'minlash, texnologiya va uni o'qitish metodikasi ixtisolik fanini hozirgi zamon talablariga mos holda o'qitish, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash, mehnat darslarini ishlab chiqarish korxonalarini bilan boglangan holda olib borish, milliy hunarmandchilikka ko'proq e'tibor berilishi, o'quv xonalari to'la jihozlar va elektron ta'lim resurslar bilan ta'minlash, mukammal texnologiya va uni o'qitish metodikasi ixtisolik fani dasturini ishlab chiqish, o'quv xonalarini takomillashtirish va jihozlar bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega ekanligi to'g'risida e'tirof etishgan³⁰.

²⁹ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

³⁰ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

Umumiy suhbatlar tahlili shuni ko'rsatdiki, texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi ixtisolik fani darsligiga qo'yiladigan zamonaviy talablarni ishlab chiqish o'qituvchilarda pedagogik texnologiyalar va faol metodlardan foydalanish qo'shimcha o'quv materiallari va qo'llanmalar yaratish muhim vazifalardan hisoblanadi.

“Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi” ga [111] muvofiq ta'lim turlarining xususiyatlaridan va nashr shaklidan qat'iy nazar barcha o'quv adabiyotlari:

- davlat ta'lim standartlari (davlat talablari) asosida tayyorlanishi;
- ta'lim-tarbiya jarayoniga hamkorlik pedagogikasi va o'qitishning interfaol uslublarini tadbqiq qilishda ko'mak berishi;
- tegishli o'quv fanining nazariy va amaliy rivojlanishida, uzoq va yaqin o'tmishdagi boy intellektual merosimizning o'rni va ahamiyatini ko'rsatishi;
- intellektual insonparvarlik g'oyalarini aks ettirilishi insonning tabiat va ijtimoiy hayotda o'ta mas'uliyatlilikini anglatishga qaratilishi;
- vatanparvarlik va milliy g'urur hissini shakllantirilishi, mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirilishi;
- ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirilishi, ta'lim va tarbiya uzviyligini ta'minlashi;
- bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish, qiziqish uyg'ota oladigan va mustaqil fikrlashga yo'naltira oladigan xususiyatlarga ega bo'lishi;
- bilim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilishi, mustaqil ta'lim olishga qiziqish uyg'otishi;
- yuqori darajada umumlashtirilgan va zamonaviy, ilmiy bilimlarga asoslangan ma'lumotlar dan tashkil topishi;
- illyustrasiyalarga boy, ko'rgazmali tasvir va badiiy-uslubiy jihatdan amaliy faoliyatga qaratilgan bo'lish³¹;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlarini hisobga olishi;

³¹ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

- bilimlarning mutlaqligi va nisbiyligini yorqin ifodalashi;
- ta'lim oluvchilarning bilimi, o'quvi va ko'nikmalarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lishi;
- ta'lim va tarbiyani ijtimoiy hayot, unumli mehnat bilan uzviy bog'lanishiga e'tibor berishi;
- fan va texnika yutuqlarining ahamiyatini ifodalashi, ilmiy masalalarning mantiqiy ketma-ketlikda, fanning o'quv dasturiga muvofiq bayon etilishi;
- yaxlitlikni idrok qilish hissi shakllanishi uchun barcha ma'lumotlar mantiqiy bir tizimda berilishi, matn jozibali shaklda bayon etilishi;
- asosiy tushuncha va xulosalarning ta'riflari nihoyatda aniq va ravshan yozilishi, atamalarning umumiylikiga erishilishi kabi umumiy talablarga javob berishi kerak.

Oliy ta'limdagi o'quv adabiyotlarga quyidagi talablar qo'yiladi:

- fanning o'quv dasturidagi mavzular to'la yoritilishi;
- fanlararo bog'liqlikning ta'minlanishi, bilimlarni bayon etishga muammoli yondashish usulini qo'llash;
- mavzularning oddiy va sodda tilda, tushunarli va ravon bayon etilishi hamda talabalarda bilim olishga intilish hissi, mustaqil fikrlash malakalarining shakllanishiga xizmat qilishi;
- o'quv adabiyoti dizaynining tegishli o'quv fani mazmuniga mutanosibli ta'minlanishi;
- muayyan fan bo'yicha o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi turida beriladigan bilimlar orasidagi uzviylikning ta'minlanishi;
- o'quv adabiyotining hajmi muayyan fanning o'quv dasturi va talabalarning o'zlashtirish darajasidan kelib chiqqan holda belgilanishi;
- o'quv adabiyoti muqobil variantlarda yaratilishi va chop etilishi.

Biz tomondan o'tkazilgan izlanishlar, so'rovnoma va suhbatlar natijalari asosida "Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi" fanidan o'quv materialini

loyihalashda va yangi darsliklarni yaratishda qo‘yiladigan quyidagi talablar ishlab chiqildi³²:

- Malaka talabari, ta’lim standarti va o‘quv dasturiga mazmunan to‘la mos kelishi kerak;

- O‘quv materiali pedagogik va axborot texnologiyalari asosida ishlab chiqilishi kerak;

- Texnologiya ta’limi va uni o‘qitish metodikasi fani o‘quv maqsadlari va vazifalarining aniq yoritilishi;

- nazariy va amaliy o‘quv materiallarining o‘zaro bog‘liqligi ta’minlanishi;

- darslikda amaliy mashg‘ulotlarda topshiriqlarni bajarish va mashqlarni yechish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar berilishi, matn, illyustrasiya va grafiklar yordamida bilim olish orqali kengaytirilgan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyati yaratilishi lozim.

- O‘quv materialini tushunarli va mantiqiy holda tuzish, amaliy ishlarni o‘rganish jarayonini yengillashtirish uchun rasmlar, sxemalar bilan boyitish³³.

- O‘quv materialining osondan qiyinga, soddadan murakkabga tomon taqdim etilishini ta’minlash;

- Darslikda vatanparvarlik va milliy g‘urur hissini shakllantirish, tabiatni sevmok mas’uliyatlarni anglatishga qaratilgan o‘quv materiallarning berilishi;

- O‘quv materiali amaldagi asosiy ma’lumotlar, rasmlar, grafiklar, jadvallar, sxema va diagrammalarga tushuntirishlar orasidagi o‘zaro uzviy bog‘liqligini ta’minlash;

- O‘quv materialini loyihalashda talabalarning ijodiy qobiliyat darajalarini inobatga olinishi lozim³⁴;

- o‘quv materialida talabalarni faol bo‘lishga va mustaqil fikrlashga undovchi va ularning qiziqishlarini o‘ziga jalb qiladigan komponentlar mavjud bo‘lishi;

- fanlararo va fan ichida o‘zaro uzviylik va aloqadorlik ta’minlanishi;

³² <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

³³ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

³⁴ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

- “Texnologiya ta’limi va uni o‘qitish metodikasi” fani bilan kasb- maxsus fanlar darsliklari o‘quv materiallari orasidagi o‘zaro uzviylik ta’minlanishiga e’tibor qaratish;

- fan, texnika va texnologiyalar so‘nggi yutuqlaridan foydalanish;

- hududiy va milliy xususiyatlar, turli madaniyatlarning inobatga olinishi;

- o‘quv materialini loyixalashda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining yoshi, psixologik xususiyatlari, o‘zlashtirish imkoniyatlari inobatga olinishi;

- talabalarining o‘z- o‘zini baholash uchun savollar, topshiriqlar, mashqlar va testlar bilan ta’minlanishi;

- talabalarining mustaqil ishlari hamda uyga vazifalari uchun amaliy topshiriqlar, mashqlar berilishi;

- “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi ixtisolik fanini” o‘qitish texnologiyasini ishlab chiqishga imkoniyat yaratish;

- o‘quv materialida atrof-muhit, uning ifloslanish va jamiyat salomatligini saqlash haqidagi ma’lumotlar;

- talabalar bajaradigan amaliy ishlarni kichik guruhlarda yoki individual tashkil etish imkoniyatini berish;

- darslikda maxsus belgilardan foydalanish va muhim ma’lumotlar ajratib ko‘rsatilishi.

Yuqoridagi barcha talablar qondirilib yaratilgan darslik o‘quv materiali bosma shaklda va elektron tashuvchida taqdim etilishi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Ushbu talablar inobatga olinib darsliklar zamonaviy avlodini yaratilganda texnologiya ta’limi va uni o‘qitish metodikasi fanini o‘qitish sifati va samaradorligini oshirish imkoniga ega bo‘lamiz.

1- bob bo‘yicha xulosalar

O‘tkazilgan nazariy izlanishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, uzluksiz ta’lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarini yaratish muammolariga oid tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsada, texnologiya va uni o‘qitish metodikasi ixtisolik fani darsliklari yangi avlodini yaratish bo‘yicha izlanishlar kam.

O'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish muammolariga qaratilgan tadqiqotlar tahlili asosida olimlar va tadqiqotchilarning «darslik» haqida bergan tushunchalari, ta'riflari, fikrlari tahlil qilindi.

O'tkazilgan so'rovnoma va suxbatlar asosida zamonaviy ta'lim sharoitida "Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi" fani bo'yicha darsliklar yangi avlodini yaratish zaruriyati, ularga qo'yiladigan talablar o'rganildi.

Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi darsliklarining tuzilmasiga va mazmuniga qo'yiladigan asosiy talablar hamda yondashuvlar ishlab chiqildi.

Zamonaviy ta'lim talablari asosida yaratilgan Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi darsligi o'qitish samaradorligini va sifatini oshirishga erishish mumkinligi, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ishlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, hamda kasbga qiziqishini kuchaytirish ko'rsatib o'tildi.

II BOB. OLIY TA'LIMDA O'QUV MATERIALLARI MAZMUNINI LOYIHALASH TEXNOLOGIYASI

2.1. Zamonaviy o'quv materiallari mazmunini modellashtirish

Hozirgi paytda oliy ta'lim tizimidagi boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari talabalarini kasbga yo'naltirish, ularda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, o'z qobiliyatlari, xohish va istaklari bo'yicha mustaqil hayot yo'lini belgilab olishlari uchun sharoit yaratish, dunyoqarashini, yuksak mehnat intizomi va madaniyatini shakllantirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Chunki kelajakda yangi texnika va texnologiyalarni qo'llay oladigan, mustaqil qarorlar qabul qiluvchi yuksak malakali kadrlar tayyorlash aynan oliy ta'lim muassasalaridan boshlanadi. Bu vazifalarni amalga oshirishda ta'lim jarayonining ishlab chiqarish sohasining so'nggi yutuqlarini, yangi texnika va texnologiyalarni qamrab olgan zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim muassasalari uchun zamonaviy "Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi" ixtisolik fani darsliklarining yaratilishi va o'quv jarayoniga joriy etilishi nafaqat yosh avlodning zamonaviy bilimlarini egallashda³⁵, balki ularda amaliy ko'nikma va malakalarning shakllanishida ham katta rol o'ynaydi.

Shu o'rinda B.M. Mirzaxmedov "Zamonaviy ta'limning rivojlanish bosqichida darsliklar yangi avlodini yaratish bo'yicha pedagogik o'zgarishlarni o'rnatishni talab etadi va ushbu o'zgarishlar orqali o'quv adabiyotlarini tahlil qilish mezonlari va shakllari aniqlanadi. Yaxshi yozilgan darslik o'quv jarayonidagi ko'p muammo va qiyinchiliklardan xalos etadi, o'qitish samaradorligini oshiradi, boshlang'ich sinf o'quvchisilarning bilimlarini tizimlashtirishni ta'minlaydi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, hamda kasbiy qiziqishini kuchaytiradi" deb ta'kidlaydi [75].

³⁵ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

Darsliklarning yangi avlodi o‘z tarkibida o‘quv predmetining mazmuni hamda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini bilish faoliyatining ko‘rinishlarini mujassam tarzda ifodalashi zarur [75].


Shuning uchun ham “Texnologiya ta’limi va uni o‘qitish metodikasi” fanining bugungi kundagi o‘rni va rolini, vazifasi va maqsadini aniq belgilab olish, yuqoridagi paragrafda keltirilgan talablar asosida, hamda pedagogik o‘zgarishlarni inobatga olgan holda darslikning yangi avlodini yaratish maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Oliy ta’lim uchun darsliklarni yaratish nazariyasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan olimlar tomonidan quyidagi didaktik tamoyillari ishlab chiqilgan.

- bilimlarni puxta egallash;
- rivojlantiruvchi ta’limga yo‘naltirish;
- ta’lim jarayonining tarbiyaviy yo‘nalganligi;
- ta’lim va tarbiya birligi;
- ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;
- ilmiylik;
- tushunarlilik va qiziqarlilik;
- hayotiylik va tarixiylik;
- ta’limning hammabobliligi;
- ta’limning amaliyot bilan bog‘liqligi;
- bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirilishi;
- o‘quv materialida aniq va mavhum tushuncha va dalillarning birligi;
- ta’limning ijtimoyilligi;
- bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olinishi;
- ta’limning bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari yoshi, psixologik xususiyatlari va saviyasiga mosligi;
- ta’limning uzviyligi va uzluksizligi³⁶;
- gender tamoyillari.

³⁶ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

Darslikni modellashtirishdagi qaratilgan bir qator olimlar jumladan A.K.Kusainov [66], Q.T.Olimov [91], I.Ya.Lerner [72], R.Mayer[], M.N.Skatkin [103] lar fundamental tadqiqotlarini o‘rganish asosida biz “Texnologiya ta’limi va uni o‘qitish metodikasi” darsligining quyidagi modelini tavsiya qilamiz (2.1.1-rasm).



2.1.1-rasm. “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” fani o‘quv materiallarining takomillashtirilgan modeli

Ushbu modelga muvofiq darslik 2 qismdan iborat bo‘lib, 1 qismda asosiy o‘quv materiallari bosma shaklda taqdim etiladi³⁷.

³⁷ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

O‘quv materiali darslikning asosiy mazmunini tasvirlaydi. Biz tomondan o‘quv materiali tuzilmasini ishlab chiqish va uni loyixalash bo‘yicha bir qator olimlarning [96,99,103] fundamental tadqiqotlari xam o‘rganildi va asosiy talablar hamda tamoyillarga rioya qilindi.

Ba’zi mualliflar o‘quv adabiyotini yaratish bosqichlarini quyidagi tartibda amalga oshirishni izohlaydilar [108]:

1. Maqsadlarni belgilash va mualliflar jamoasini tanlash.
2. Izlanish va o‘quv materialini to‘plash.
3. O‘quv adabiyotini yozish jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish.
4. Qo‘lyozma tayyorlash va ekspertizadan o‘tkazish.
5. Qo‘lyozma sifatini aniqlash.
6. Tahrir qilish va nashr etish.

Darslik yoki mezonning har bir tarbiyaviy elementi mohiyatini va mazmunini ochib berdi.

Asosiy matn bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi tomonidan o‘rganilishi va o‘zlashtirilishi majburiy bo‘lgan o‘quv materialini bayon qiluvchi asosiy manbai vazifasini bajaradi.

Pedagogik adabiyotlarda asosiy matnlarni ham ikki guruhga ajratiladi:

Nazariy – ilmiy matnlar. Bu matnlar quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- fanning asosiy atamaları va tilini; asosiy dalillarni-hodisalarni, ob‘yektlarni, texnologik jarayonlar, texnologik operatsiyalar, ixtirolar va kashfiyotlarni, eksperimental tajribalarni; asosiy nazariyalarni; yetakchi g‘oyalar va dolzarb yo‘nalishlarni; fan-texnika yutuqlarini; dunyoqarashga oid mafkuraviy umumlashtirish va baholashlarni tavsiflash lozim.

“Texnologiya ta’limi va uni o‘qitish metodikasi” ixtisoslik fani darsliklarining asosiy matnlarida texnikaviy bilimlar, texnologik jarayonlar, butun ijtimoiy ishlab chiqarish asosida yotuvchi fakt va qonuniyatlar nazariy jihatdan to‘liq yoritilishi lozim, chunki u bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini texnik bilimlar va malakalarining ilmiy va amaliy asoslarini yagona birlikda bog‘laydi. “Texnologiya ta’limi va uni o‘qitish metodikasi” ixtisoslik fani darsliklarida

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ko'p mehnat qurollari (asbob-uskuna, moslamalar, priborlar, stanoklar) ko'pgina ishlab chiqarish uchun tipik bo'lgan texnologik operatsiyalar bilan ishlashni o'rganadilar³⁸, mehnat xavfsizlik qoidalarini o'zlashtiradilar, ya'ni ishchilar mehnat faoliyati asoslari haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Sekin-asta ular ongida ishlab chiqarish jarayoni va uning komponentlari haqida yaxlit tasavvur shakllanib boradi.

Buning uchun uchta quyidagi komponent o'rganiladi: mehnat predmeti (materiallar), mehnat quroli, texnologik jarayonlar.

Texnologiya va uni o'qitish metodikasi ixtisoslik fani darsligi asosiy matnlarida materiallarni o'rganish masalasiga e'tibor qilinadi. Butun texnologiya va uni o'qitish metodikasi ixtisoslik fani mobaynida qog'oz, karton, mato, plastmassa, yog'och, metallar kabi materiallar kerak bo'ladi.

Matnda materiallarni o'rganish ya'ni ularning qo'llanilishi sohasi, ishlab chiqarish usullari, materiallarning asosiy xossalari (asosan fizik va mexanik); zichligi, rangi, chidamligi, plastikligi, mo'rtligi, egiluvchanligi, nam tortish xususiyati va boshqalari.

Tajribaviy – amaliy matn. Bu matnda “Texnologiya va uni o'qitish metodikasi” ixtisoslik fani o'quv materialini o'zlashtirishda va mustaqil tarzda bilim olishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi bajaradigan amaliy faoliyat usullari, o'quv dasturidagi barcha mavzularni o'rganishga texnologik jarayon asos qilib olinib, shu asosda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari texnologik operatsiyalarni izchillik bilan o'rganib boradilar³⁹.

Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi darslarida o'rganiladigan barcha texnologik operatsiyalar ketma-ketlikka asoslanib, ularni quyidagi guruhlarga ajratilishi matnda ko'rsatilishi lozim.

Matnda yangi texnologik operatsiyasi o'rganishga kirishilganda ma'lum izchillikka rioya qilinishi yoritib berilishi kerak.

Masalan:

³⁸ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

³⁹ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

1. Mehnat xavfsizlik qoidalarini va texnologik operatsiyaning vazifasi va tabiiy mohiyatini tushuntirish.
2. Uni bajarish uchun zarur bo'lgan mehnat qurollari (yoki stanok mashinalar bo'lishi mumkin).
3. Bajarish texnikasi ish usullari namoyish qilinishi.
4. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ishning mashinalar (stanoklar) yordamida ishlab chiqarish sharoitida bajarilishi bilan tanishtiriladi.

Matnda ishlab chiqarish jarayonining muhim komponenti bo'lgan mehnat quroli – texnika guruhlaridan biridir. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari buni aniq bilishlari kerak. Ko'pincha, hatto katta yoshdagi kishilar ham, «texnika» tushunchasini «mashina» tushunchasiga tenglashtiradilar.

Texnika-bu mehnat vositalarini tashkil qiladigan barcha ishlab chiqarish quroli, sanoat inshootlari, aloqa va transport vositalari, ya'ni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan moddiy sharoitlardir.

Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi darslarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ko'p sonli asboblari, qaychi, nina, lobzik, egovlar, bolg'a, zubilo, parma va shu kabilar, shuningdek turli moslama va o'lchov asboblari: shtangensirkul, strubsina, gira, patron, andoza, kechkichlar, yo'naltirgich va boshqalardan foydalanishga to'g'ri keladi. Bularning hammasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida texnik bilim va malakalar bilan boyitadi. Matnda asbob va uskunalarni o'rganish quyidagi tartibda olib borilishini yoritish lozim. Masalan:

1. Vazifasi.
2. Tuzilishi va ishlash prinsipi.
3. Asbob tayyorlanadigan material.
4. To'g'ri ish usullari, saqlash va qarash qoidalari.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini asboblari bilan tanishtirishga yana bir misol.

Qo‘shimcha matnlar. Bularga darslikdagi belgilashlar, hujjatli materiallar, amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan mashqlar, xulosalar, tavsiyalar, ma’lumotli materiallar kiradi.

Matnning bunday turi o‘tilgan materialni mustahkamlaydi, uni tizimlashtirishga yordam beradi⁴⁰. Og‘zaki va yozma mashqlar boshlang‘ich sinf o‘quvchisilarning bevosita amaliy ishlashlari uchun mo‘ljallangan. Bunday ishlarni bajara borib, boshlang‘ich sinf o‘quvchisilar ma’lum ko‘nikma va mahoratni egallaydilar.

Tushuntirish matni – o‘quv materiali tushunishga va chuqurroq o‘zlashtirishga mo‘ljallangan yozma tuzilmadir. Darslik o‘quv materialini o‘zlashtirishda tushuntirish matnlari ko‘p yordam beradi. Ularga quyidagilar kiradi: kirish so‘zi, izohlar, ilovalar, tayanch iboralar, tushuntirishlar, lug‘atlar⁴¹. Bu matnlar tushunarli qisqa va ma’lum tushunchani aniq shakllantirgan bo‘lishi kerak. Masalan, texnologiya va uni o‘qitish metodikasi ixtisolik fanida ko‘p uchraydigan tayanch iboralarga material, detal, fabrikat va yarim fabrikatlar, xom ashyo, termik ishlov, mexanik ishlov berish, texnologiya, operasiya, texnologik karta, rejim, ishlab chiqarish seriyasi va hokazolar kiradi.

O‘zlashtirishni tashkil qiluvchi komponent. Zamonaviy “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” ixtisolik fani darsligida qanchalik turli xildagi ko‘rsatmalar, tavsiyalar, topshiriqlar, savollar, testlar va amaliy mashg‘ulotlar berilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bular bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faollashuvi va bilim, malakalarni mustahkam egalashlarini ta’minlaydi, ularning kasbiy qiziqishlarini rivojlantiradi, ishlab chiqarish sharoitlarida mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Didaktikada ularni darslikning uslubiy apparati deb ham atashadi.

Tasviriy materiallar. O‘quv adabiyotlarni tasviriy materiallarni shakllantirishga alohida e’tibor berilishi lozim⁴². O‘quv adabiyotida o‘quv materiali mazmunini tushunish, yangilash tizimi uchun diagrammalar, grafiklar,

⁴⁰ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

⁴¹ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

⁴² <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

jadvallar, tuzilmalar, rasmlar va xaritalardan foydalanildi. Tasviriy materiallar yaqqol ko‘rinarli bo‘lishlari lozim.

O‘quv adabiyotini yaratishda shakllantiriladigan tasviriy materiallarga quyidagi talablar qo‘yiladi:

-tasviriy materiallar axborotlarni yaxshi tushunishga, to‘ldirishga, boyitishga, mazmunini ochish va tushuntirishga xizmat qilishi lozim;

-tasviriy materiallar turli saviyadagi boshlang‘ich sinf o‘quvchisilar uchun tushunarli va tahlil qilishga mos bo‘lishi;

-tasviriy materiallar ta‘lim oluvchining mavzu mazmunini tushunib olishga xalaqit beruvchi ortiqcha axborotga ega bo‘lmasligi⁴³;

-o‘quv adabiyotidagi tasviriy materiallar bir xil texnikaviy ijroda bo‘lishi kerak.

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, darslikning tasviriy materiali uning mazmunini o‘ziga xos ochib beradi, o‘rganiladigan ob‘yektning ko‘rgazmali tasvirlaydi va texnologik jarayonni tushunishni osonlashtiradi⁴⁴.

O‘quv adabiyotlarida tasviriy material axborot funksiyasini bajarib, ta‘lim oluvchilarga noma‘lum narsalar, ob‘yektlar, jarayonlar, mahsulotlar va hodisalar haqida tasavvur hosil qildiradi.. Shuningdek, tasviriy materiallar o‘quv materialini mustahkam o‘zlashtirilishi uchun tayanch vosita bo‘lib xizmat qilishi lozim [55].

Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi ixtisolik fani darsliklarda ob‘yektki rasmlar berilishi ko‘proq talab qilinadi. Darslikdagi tasviriy matyeriallar bilan ham mazmunan ham joylashishi bo‘yicha o‘zaro bog‘liq hamda joylashtirilishi lozim. Darsliklarining tasviriy jihatlariga yuqorida qo‘yilgan talablardan kelib chiqib, amaliy nuqtai nazardan quyidagilarga e‘tibor berish muhim. Muqovadagi fototasvirning darslik mazmuniga mos kelishiga; tasviriy materialning matn mazmuni bilan mos kelishiga; tasviriy material o‘lchamining maqbul tanlanishiga; matn va tasviriy material orasidagi o‘zaro aloqadorligining bog‘liqlikni; tasvirning o‘rganilayotgan ob‘yektga mos kelishiga; aniq ob‘yektlarni real holati bo‘yicha

⁴³ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

⁴⁴ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>


tasvirlanishiga; tasviriy materiallar haqiqiyligiga va yoritilishiga, tushuntirilishiga; yopiq jarayonlarni tasvirlanishiga; tasvirlarning ko'rgazmaviyligiga; tasviriy rangning tanlashga; tasviriy materialning matni o'qishga halaqit bermasligiga e'tibor qaratish kerak.

Tasviriy materiallar orqali qo'yilgan savollar va topshiriqlar ta'lim oluvchilarning fikrlash qobiliyatini faollashtirish imkonini beradi. Yuqorida izohlanganlarning barchasi shunday xulosa qilishga imkon beradiki, asosiy o'qitish vositalaridan biri bo'lgan darslikning tasviriy materiallar bilan ta'minlanishi ta'lim oluvchilarning intellektual darajalarini oshiradi. Ba'zi mualliflar tasviriy materiallarning ta'lim berish jarayonidagi ahamiyatiga uncha e'tibor bermaydi va ulardan to'liq foydalanishmaydi. Shuning uchun tasviriy materiallarni tanlash ko'proq tasodifiy xarakterga ega bo'lib, tasviriy materiallarning ilmiy tamoyillari hisobga olinmaydi. Ba'zida mualliflar darslikning sifati va uning didaktik imkoniyatlariga ziyon yetkazib, tasviriy materiallarning faqat alohida turlariga e'tibor beradilar. Bir qator darsliklarda bitta jarayonning turli jihatlarini ifodalayotgan tasviriy materiallar orasidagi mavzuviy bog'liqlikka ahamiyat berilmaydi. Ba'zida darsliklar tasviriy materiallarida ta'lim oluvchilarning fikrlash qobiliyatini faollashtiruvchi savol va topshiriqlar yetarlicha tasvirlanmagan yoki bu savol (topshiriq) muvaffaqiyatsiz tuzilgan. Shuning uchun mualliflar ham, muharrirlar ham bunga ijodiy yondashishlari kerak va darslikning tasviriy materiallariga diqqat bilan qarashlari tavsiya etiladi.

Tasviriy materiallar o'zlarining asosiy vazifalarini bajarishdan tashqari o'quv adabiyotini ta'lim oluvchi uchun jozibali va yoqimli qiladilar, bu esa, uning mazmuniga qiziqishni orttirishdan tashqari, estetik tarbiyasiga ham xizmat qiladi⁴⁵.

Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi ixtisoslik fani darsligida o'quv axborotini o'zlashtirishda va fanni egallashda muhim bo'lgan tasviriy materiallarga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Darslikda diagramma, grafiklar, jadvallar, tuzilmalar, eskizlar, rasmlar va texnologik xaritalardan foydalanish, ayniqsa, samaralidir.

⁴⁵ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>



2.1.2.-rasm. Darsliklardagi tasviriy talablar ko'rinishi

Tasviriy material darslikning predmetli funksiyasini bajarib, boshlang'ich sinf o'quvchisilarga notanish narsalar, ob'yektlar, mahsulotlar va hodisalar haqida tasavvur hosil qiladi.

Yo'naltiruvchi komponent. Darslikda yo'naltiruvchi apparatning bo'lishi shart. U darslikning boshqa adabiyotlaridan ajratuvchi, uning muhim uslubiy va texnik xususiyatini ko'rsatuvchi bo'lib hisoblanishi kerak.

Yo'naltiruvchi komponentga quyidagilar kiritilishi kerak: so'z boshi, mundarija, turli belgilar-ramzlar, ko'rsatkichlar. O'quv materialini o'zlashtirish va uni mustahkamlash uchun matnda tayanch nuqtalarining albatta bo'lish lozimligini talab qiladi. Tayanch nuqtalarga darslik mavzularidan tashqari matnda ajratib ko'rsatilgan atamalar, shaxslarning ismlari, nomlanishlar, aniqliklar, qoidalar va uslubiy elementlar kiradi.

Texnik hujjatlar. Mehnat ob'yekti konstruksiyasini va uni tayyorlash izchilligini bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tushuna oladigan formada bayon etish zarur. Oliy ta'lim muassasalari texnologiya va uni o'qitish metodikasi ixtisolik fani darslarida texnik hujjatlarning bir necha turlari qo'llaniladi. Ammo ularning eng asosiylari chizma (chizma texnik rasm) va texnologik xaritadir.

Agar buyum oddiy shakldagi bir-ikki detallardan iborat bo'lsa va ularni

tayyorlash tartibi qiyinchilik tug'dirmasa, odatda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarilari chizma bo'yicha ishlaydilar⁴⁶.

Bir necha detallardan iborat bo'lgan va tayyorlash uchun murakkab operasialarni talab qiladigan, ularning ketma-ketligini buzib bo'lmaydigan buyumlarga texnologik karta tuziladi. Talabalar buyumni tayyorlash tartibi xususida mustaqil qaror qabul qilish uchun yetarlicha bilim va tajriba bo'lmagan paytlarda foydalaniladigan texnologik xaritalar texnik hujjatning asosiy turi bo'lib xizmat qiladi.

Texnologik xarita. Odatda darsliklarda bitta umumiy prinsipda tuzilgan texnologik xaritadan foydalaniladi. Buyumning chizmasini texnik rasmi va u haqidagi zarur ma'lumotlar beriladi⁴⁷. Ishning eng xarakterli bosqichlarini ifodalovchi buyumning tayyorlanish tartibi haqida to'xtalamiz.

Texnologik xarita vertikal bo'ylab to'rtta grafaga bo'linadi: birinchi grafada ish bosqichining nomeri beriladi, ikkinchi grafada ishlov berishning asosiy bosqichlarida ob'yektni tayyorlash izchilligini ko'rsatuvchi eskizlar (yoki chizmalar) joylashtiriladi. Uchinchi grafada ishning mazmuni qisqa tavsiflangan; to'rtinchi grafa ish qurollari (asbob-uskunalar, moslamalar, stanoklar) ko'rsatiladi.

"Eskizlar" grafasi asosiy axborot beruvchi grafadir. Unda berilgan chizmalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisiga o'zi tayyorlaydigan detalni tasavvur qilishga va o'zi qanday ish qilishi kerakligini bilib olishga yordam beradi.

Xarita formasi sinfdan sinfga unchalik o'zgarib bormaydi: lekin tayyorlanadigan buyumlarning murakkablanishi munosabati bilan chizma qiyinroq bo'ladi.

Ko'p yillar davomida talabalar texnologik xaritalar bilan va xaritalarsiz ishini kuzatish ularni qo'llash maqsaga muvofiqligini ishonarli tarzda ko'rsatib berdi. Texnologik ko'rinishdagi texnik hujjatlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun tushunarli, ular o'qituvchini qo'shimcha tushuntirishlardan xalos qiladi. Xaritalarni muntazam ravishda qo'llanish esa talabalarni

⁴⁶ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

⁴⁷ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

mustaqillikka va intizomga o‘rganadi, kasbga qiziqish tuyg‘ularini, ularda tasavvurni o‘stiradi, ularning texnika tili-chizmani o‘rganishga yordam beradi.

Baholash materiallari va mezonlari. Har bir bo‘limning oxirida talabalarning o‘z-o‘zini baholash testlari, amaliy ko‘nikmalarini shakllantiruvchi tekshirish topshiriqlari va mashqlari, ularni baholash mezonlari berilishi kerak⁴⁸.

2. Qism. Darslikning elektron shakli.


Elektron shaklli darslikning bosma ko‘rinishida chop qilingandan keyin uning oxirgi betiga elektron diskda biriktiriladi. Talabalar elektron diskni komp’yuterga qo‘yib xohlagan paytda foydalanishga imkoni bo‘ladi.

Oliy ta‘lim muassasalarida “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitishda elektron ta‘lim resurslari qo‘llanilganda ta‘lim jarayoni sezilarli ravishda individuallashtiriladi, talabalarning mustaqil ishlashlarining chegaralari kengayadi. Talabalar uchun qulay bo‘lgan individual ravishda fanning asoslarini o‘rganish, vertikal muhitda mashq qilish yo‘li bilan amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lish, o‘z-o‘zini nazorat qilish imkoniyatini yaratadi. Bitta elektron darslikning o‘zidan mashg‘ulotlarda, mustaqil ta‘lim olish, hamda nazoratni o‘tkazish paytida foydalanishi mumkin. Ta‘lim oluvchilarning bilim darajasi nazoratini amalga oshirish va testlashtirishga mo‘ljallangan elektron dasturli vositalarning qo‘llanilishi o‘qituvchilarning ko‘p variantli amaliy topshiriqlarni ishlab chiqish va ularni bajarilishini nazorat qilish bo‘yicha sarf bo‘ladigan vaqtini sezilarli ravishda kamaytiradi. Bilimlarni tez-tez nazorat qilish imkoniyati talabalarning ta‘lim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi .

“Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” fanidan elektron ta‘lim resurslarini faolroq joriy qilinishi mashg‘ulotlarni o‘tkazish doirasida ko‘zga tashlanadi⁴⁹. Bu butun bir qator faktorlar bilan izohlanishi mumkin:

⁴⁸ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

⁴⁹ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>



2.1.3. - rasm. Elektron ta'lim resurslarini amalda joriy qilinishi ketma-ketligi

“Texnologiya ta’limi va uni o’qitish metodikasi” fanidan mashg’ulotlarda qo’llaniladigan elektron ta’lim resurslari talabalarga mashg’ulot mavzusi, maqsadi va o’tkazilish tartibi haqida ma’lumot yetkazishi; javobning to’g’riligi yoki noto’g’riligi haqida axborot berishi; har bir ta’lim oluvchining bilimni nazorat qilishi; topshiriqlarning zaruriy nazariy material va yechish uslubini ko’rsatish; «pedagog- elektron vosita - ta’lim oluvchi» tartibotida teskari aloqani amalga oshirishi kerak⁵⁰.

Texnologiya ta’limi va uni o’qitish metodikasi fanidan yaratiladigan elektron ta’lim resurslarining tuzilmasi va mazmuni o’quv materialini chuqur o’rganishga mo’ljallash bilan bir vaqtda o’rganilayotgan fanning o’quv dasturiga mos kelishi kerak. Ta’lim tizimi uchun yaratiladigan elektron ta’lim resurslari quyidagi umumiy talablarni qanoatlantirishi kerak:

- elektron ta’lim resurslarining mazmuni va tarkibi ta’lim standartining talablariga mos kelishi kerak;
- elektron ta’lim resurslari muammoli, amaliy topshiriq va mashqlarining intellektual o’rgatuvchi tizimiga ega bo’lishi kerak;

⁵⁰ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

- elektron ta'lim resurlari o'quv faoliyatining izlash, yig'ish, saqlash, tahlil, ishlov berish kabi ko'rinishlarini avtomatlashtirishni; hisoblashlarni, amaliy mashqlar natijalariga ishlov berishni, nazorat topshiriqlarni, avtomatlashtirishni ko'zda tutishi kerak;
- elektron ta'lim resurslari murakkab ob'yektlar va jarayonlar (mashina, uskuna, apparat, moslama, texnologik jarayonlar va h.k.) ishining imitatsiyasini, turli xildagi mehnat jarayonlarni real, tezlashtirilgan yoki sekinlashtirilgan vaqt masshtabida o'tish vositalarini o'z tarkibida saqlashi kerak;
- elektron ta'lim resurslarining trening vositalari- ta'lim oluvchini kelajakdagi kasbiy faoliyatiga bog'liq holda virtual muhitda tayyorlashni amalga oshirishi kerak;
- elektron ta'lim resurslari barcha o'zgaruvchan o'rganiladigan ob'yektlar yoki jarayonlarning bog'liqligi namoyish qilinishi kerak.

Yuqoridagi afzalliklar va qulayliklarni inobatga olib biz Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi darsligi ikkinchi qismini kiritdik. Elektron shaklining asosiy komponentlariga to'xtalamiz.

Asosiy o'quv materialining elektron shakli. Bosma shaklda bayon etilgan asosiy, tushuntiruvchi, amaliy matnlarning elektron versiyasi taqdim etiladi. Bunda talabalar o'ziga kerakli mavzu bo'yicha o'quv materialini printerdan qog'ozga chiqarib olish imkoni bo'ladi⁵¹.

Multimediali vositalar. Bularga turli tipdagi axborotlarni va texnologik jarayonlari, mehnat usullarini matn, rasm, sxema, jadval, diagramma shaklida taqdim etish, virtual muxitlarni yaratish, ma'lumotlarga ishlov berish ob'yektlarni raqamlashtirilgan va jarayonli ko'rinishda amalga oshirish bo'yicha yaratilgan dasturiy vositalar kiradi.

Elektron tajriba – ob'yektlar, jarayonlar, mehnat usullari, mahsulotlar va mavjudotlar ko'rgazmali modellarini yaratish va izlanish imkonini beruvchi elektron muhit bo'lib, texnologiya va uni o'qitish metodikasi ixtisolik fanida

⁵¹ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining real tasavvurini kengaytiradi⁵². Murakkab ob'yektlar va jarayonlarni tushuntirishni yangilashtiradi.

Elektron topshiriqlar - ta'lim oluvchilarning individul imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularning mustaqil ishlari uchun topshiriqlar majmuini o'zida aks ettiradi. Talabalar topshiriqlarni komp'yuter yordamida mustaqil bajarish va natijalarni tekshirib ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldi. axborot manbasining muhim ko'rinishidir.

Elektron testlar – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini bilim va ko'nikmalarni baxolash uchun komp'yuter texnikasi yordamida taqdim etiladi. Testlar o'rganilgan o'quv materialini bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qanchalik darajada o'zlashtirganligi haqida o'z-o'zini baholash imkonini beradi. Komp'yuter test va uning natijalarini ko'rsatib beradi. Elektron testlar turli ko'rinishlarda ishlab chiqiladi.

Elektron lug'at - an'anaviy «qog'ozli» lug'atning elektron versiyasi bo'lib, maxsus ajratilgan ko'rsatma orqali istalgan dasturdan chaqarilishi mumkin. Elektron lug'atlar matn va grafikaviy tasvirlar bilan bir qatorda video va animasion lavhalar, tovush, musiqa va boshqalar bilan birga ob'yektlarning butun spektrlarini o'z ichiga olishi mumkin. Bu esa an'anaviy lug'atda farqli ekanligini imkoniyat doirasida kengligini ko'rsatdi.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlarning elektron shakli.

Savol, mashq va topshiriqlar zamonaviy darslikning yetakchi va jadal rivojlanayotgan komponentidir. Savollar va topshiriqlarning elektron shaklda berilishi talabalarga o'z-o'zini baxolash, ularni faollashtirish va bilimlarni mustahkam egallashlarini ta'minlaydi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy qiziqishlarini rivojlantiradi, ishlab chiqarish sharoitlarida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

O'quv adabiyotlar ro'yxati. Texnologiya va uni o'qitish metodikasi ixtisolik fanida foydalanadigan boshqa o'quv adabiyotlari, manbalar, kataloglar, saytlar, jurnallar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati beriladi⁵³.

⁵² <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

Foydali dasturlar. Bularga “Texnologiya ta’limi va uni o’qitish metodikasi” darsligining 2- qismidan foydalanish tartibi, qoidalari o’quv materialini o’rganishga tegishli elektron vositalar (mul’timedia, virtual stendlar, animasiyalar va h.k.) va ulardan foydalanish tartib va qoidalari kiradi.

Darslikning ikkinchi qismi quyidagi afzalliklar va imkoniyatlariga ega.

- darslikning ikkinchi qismi ochiq tizim bo’lib, o’qituvchi istalgan paytda yangi o’quv materialini va fanga tegishli ilm, fan, texnika va texnologiyalar so’nggi yutuqlarni kiritish imkoniyatiga ega.
- ta’lim oluvchining mustaqil bilim olish, o’zgarish izlanish va ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda o’z-o’zini baxolashga imkoniyat yaratiladi.
- murakkab ob’yektlar, texnologik jarayonlar va mehnat usullari hodisalar haqida animasiyalar orqali boshlang’ich sinf o’quvchisida real tasavvur hosil qildiradi.
- elektron topshiriqlar, mashqlar, savollar va testlarining ko’p variantlilikini ta’minlaydi.
- o’quv materialini ko’rish, eshitish va emosional xotiralarga ta’sir qilish yo’llari bilan yetkazish orqali talabalarda tushunishni yengillashtiradi;
- komp’yuterdan foydalanib ko’p sondagi ma’lumotlarni qarab chiqish va ko’proq amaliy masalalar yechishga va mashqlarni bajarishga imkon yaratadi.

Yuqorida aytib o’tilgan barcha fikrlar zamonaviy “Texnologiya va uni o’qitish metodikasi” ixtisoslik fani darsligi modeli asosidagi mashg’ulotlar vazifalarni quyidagiga ifodalash imkonini beradi⁵⁴:

- texnologiya va uni o’qitish metodikasi ixtisoslik fani davomida olgan bilim va ko’nikmalarni mustahkamlash, umumlashtirishda hamda kengaytirish, umum mafkuraviy qadriyatlarni singdirish.
- Talabalarni unumli mehnatga asoslangan ijodiy faoliyatga jalb qilish;

⁵³ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

⁵⁴ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

- Hozirgi zamon ishlab chiqarish asoslari haqidagi talabalar tasavvurini kengaytirish;
- Mehnatga nisbatan talabalarning ijobiy munosabatini shakllantirish;
- Texnologiya va uni o'qitish metodikasi ixtisolik fani jarayonini zamonaviy ta'lim texnologiyasi talablari bo'yicha olib borish⁵⁵.

Shunday qilib, respublikada amalga oshirilayotgan yangiliklar, ta'lim sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi bu inson, uning barkamol rivojlanishi, farovonligi, shaxs qiziqishlarini amalga oshirish, sharoitlarini ta'minlash, mas'uliyatini his qilar ekanmiz, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mustaqillik, mehnatsevarlik, erkinlik, ijodkorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik kabi sifatlarini shakllantirish, ularni intizomlilik, do'stlik, birdamlik, vatanga sodiq ruhida tarbiyalashda o'quv adabiyotlar yangi avlodini yaratish va amalda joriy etilishi orqali o'z oldimizga qo'yilgan pirovard maqsadimizga imkon beradi.

2.2. Modulli-kreativ yondashuv asosida o'quv materiallarini ishlab chiqishning metodik asoslari va didaktik imkoniyatlari

O'quv adabiyotlari yangi avlodini shaxsga yo'naltiruvchi va rivojlantiruvchi texnologiyalar asosida yaratish va amalda joriy etilish bugungi kunning dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi darsliklari bo'yicha o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda darslikka didaktik, psixologik-pedagogik jihatdan yondashuv yetarli emasligi, o'quv materiali o'quv maqsadlari asosida to'laqonli ishlanmaganligi, boshlang'ich sinf o'quvchisilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratilmaganligi muammo sifatida qaralmoqda. Bundan tashqari shaxsga yo'naltirilgan o'qitishga asoslangan darsliklarni yaratishning ilmiy metodik asoslarini ishlab chiqish bo'yicha yetarlicha ilmiy izlanishlar olib borilmagan.

⁵⁵ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limga va rivojlantiruvchi g'oyalarga asoslangan darsliklarni yaratish va ta'lim jarayoniga tadbiiq etishda maxsus o'qitish texnologiyalari yoki metodikalarini ishlab chiqish taqozo etadi.

Biz texnologiya va uni o'qitish metodikasi ixtisoslik fanidan kreativ-modulli texnologiya asosida o'quv adabiyotlarni yaratish imkoniyatlarini yoritishdan oldin darslikda pedagogik tizimni shakllantirish haqida fikr yuritdik.

Darslikdagi pedagogik tizimning modelini quyidagi tuzilma orqali ifodalik [63].

- Avvalambor pedagogik tizimning maqsadlari aniqlanadi va qo'yilgan maqsadlarga talablar qo'yiladi;
- umumdidaktik tamoyillarni hisobga olib, o'quv material mazmuni yoritiladi;
- o'quv materialida talabalar faoliyatlarida o'zlashtiriladigan asosiy qonunlar, xossalr, qoidalar, tamoyillar, algoritmlar, usullar, xususiyatlar kabi zaruriy bilimlar aks ettiriladi, shuningdek, o'qitish mazmunini tanlash o'quv maqsadiga mos ravishda amalga oshiriladi;

Darslikni yaratish va unda ma'lum pedagogik tizimni modellashtirishning navbatdagi bosqichi bo'lib, didaktik jarayonlarni tanlash va ishlab chiqish hisoblanadi.

O'quv material mazmunini talabalarga tushunarli bo'lishni ta'minlash uchun quyidagilar tavsiya qilinadi:

- o'rganilgan materialning talabalar hayoti, ularning amaliy ishlari va ixtisosligi bilan yetarli darajada bog'lanish bo'lishini ta'minlash;
- muammoli topshiriq va savollarni kiritish, ularning ishonarliligini, qiziqarliligini hamda ehtirosiy ifodadorligini kuchaytirish orqali talabalarining bilim olish jarayonini faollashtirish;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qobiliyatlarini va imkoniyatlarini inobatga olgan holda o'quv maqsadlariga erishishni ta'minlovchi topshiriqlar tizimini ishlab chiqish.

Agar yuqorida ta'kidlab o'tilgan jihatlar ta'minlansa, u holda o'qitish texnologiyasini ifodalovchi model haqidagi so'z yuritish mumkin bo'ladi.

Darslikni yaratish pedagogik tizimni modellashtirishning yakunlovchi bosqichi bo'lib, o'qitishning tashkiliy ko'rinishlarini ishlab chiqishini nazarda tutadi. O'qitishning tashkiliy ko'rinishlari deganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilim olish faoliyatini tashkillashtiradigan va mashg'ulotni o'tkazishdagi (auditoriyada, laboratoriyada, o'quv ustaxonalarida, uyda va hokazo) tashqi sharoitlar tushuniladi. Agar modelda pedagogik tizimning u yoki bu elementlarini yoritishda aniqlik bo'lmasa, biz turli xildagi "komplektlashmagan" darsliklarga ega bo'lamiz.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, darsliklarning yangi avlodi o'qitish texnologiyalariga bog'liq holda quyidagi talablarga javob berishi kerakligi aniqlandi:


Ushbu maqsad va talablardan kelib chiqib, biz umumta'lim maktablarida "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" ni modulli o'quv materiallaridan foydalanib o'qitish texnologiyasini ishlab chiqdik⁵⁶ [68].

Ammo ba'zi pyedagogik tadqiqotlarda o'quv materiallarini loyihalashga yangi pedagogik texnologiyalar asosida yondashish haqida fikrlar ham bildirilgan.

Masalan G.Ergashevaning ilmiy ishlarida o'quv materialini loyihalashga yangi pedagogik texnologiyalar asosida yondashuvlar keltirgan [128].

Ba'zi ishlarda [90,93] kreativ-modulli texnologiya asosida o'quv adabiyotlarini yaratish imkoniyatlari o'rganilib amaliy tavsiyalar berilgan.

⁵⁶ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>




2.2.1.-rasm. Yangi avlod o'quv materiallariga qo'yiladigan talablar

Modulli o'qitish texnologiyalari ko'pgina olimlar va pedagoglar tomonidan atroflicha o'rganilgan bo'lib, ularda modulli o'qitishning mohiyati, ishlab chiqish tamoyillari hamda nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish metodikalari yoritilgan.

Modul-fanning o'zaro bog'liq fundamental tushunchalarini o'rganishga yo'naltirilgan, didaktik tamoyillar asosida tuzilgan o'quv materialining birligidir [91].

Har bir modul o'zida bir yoki bir nechta fundamental tushunchalarni va faoliyat turini o'rganishga qaratilgan nazariy bilimlar va shu nazariy bilimlarni egallashga ko'maklashuvchi amaliy mashg'ulotlar⁵⁷, bilim va ko'nikmalarni baholash tizimini qamrab oladi. Quyida (2.2.2-rasm) ushbu tuzilmaning har bir komponenti to'g'risida qisqacha to'xtalamiz:

⁵⁷ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>



2.2.2.-rasm. Texnologiya va uni o'qitish metodikasi darsligining modulli tuzilmasi

Biz “Texnologiya va uni o'qitish metodikasi” darsligi o'quv dasturidagi bir-biriga o'zaro bog'liq mavzular bitta modulda (guruhda) birlashtirdik. Ya'ni bitta mehnat faoliyati usuli bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarga oid o'quv materiallari bitta modul tarkibiga kiritildi.

Modulli o'quv materiallarida matnlar mustaqil tartibda va mantiqiy uzviylikda ifoda etiladi. Har bir modul mavzusi o'zgarishi bilan uning shakli va tuzilishi o'zgarmas bo'lib qoladi. Bu kabi bir xil tuzilishga ega bo'lgan modullar o'qituvchi tomonidan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'zlashtirish samaradorligini nazorat qilish va baholash imkoniyati kengayadi. Bizning nazarimizda “Texnologiya va uni o'qitish metodikasi” fanidan kreativ-modulli texnologiya asosida o'quv materiallarini ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga joriy

etishda modulli o'qitish tizimini to'liq amalga oshirish mumkin. Biz tomondan "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" darsligining modulli tuzilmasi (2.2.2-rasm) ishlab chiqildi [90].

1. Kirish-darslikning zaruriy qismi bo'lib hisoblanadi. Unda "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" fanining rivojlanishi, boshqa fanlar bilan bog'liqligi, ta'lim jarayonidagi roli, ushbu fanni o'rganish maqsadi, darslikdan foydalanishda e'tibor berish kerak bo'lgan jihatlar, o'rganish davomida qo'llaniladigan metodlar berilishi kerak. Kirish tushunarli, qisqa, ikki-uch betdan oshmagan hajmda bo'lishi kerak⁵⁸.

2. "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" fanini moduli o'qitishda va ish o'rinlarini tashkil etishda yaratilishi lozim bo'lgan shart-sharoitlar bo'yicha tavsiyalar hamda texnika va mehnat xavfsizligi qoidalari batafsil bayon etilishi kerak.

3. Modulning o'quv maqsadlarini belgilashda har bir modulning o'quv maqsadlari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatiga qo'yiladigan maxsus talablar, o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalardan kelib chiqqan holda ishlab chiqilishi hamda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining harakati orqali erishiladigan natijalar orqali belgilanishi kerak. Modulli o'rganish davomida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari egallashi lozim bo'lgan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar keltiriladi.

4. Darslikdagi har bir modul va uning ichidagi modul birliklariga ajratilgan soatlar hamda ularning taqsimoti aniq berilishi lozim. Bu modulning belgilangan vaqt doirasida o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

5. Har bir modul oxirida uni o'zlashtirish uchun qo'shimcha adabiyotlar, zaruriy jihozlar, ko'rgazmalar, texnik vositalar, asbob-uskunalar va mahsulotlar ro'yxati berilishi kerak. Chunki bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mashqlar va topshiriqlarni bajarishlari davomida qo'shimcha adabiyotlardan foydalanishlari uchun imkoniyat bo'lishi kerak. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari amaliy ishlarni bajarishlari uchun zaruriy jihozlar va uskunalar ro'yxati berilishi shart.

⁵⁸ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

6. Har bir modulga tegishli asosiy nazariy va amaliy o'quv materiallari bayon etiladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi ushbu o'quv materiallaridan modul bo'yicha o'rganiladigan asosiy nazariy bilimlarni oladi hamda amaliy mashqlar mazmuni va ularni bajarish bo'yicha tavsiyalar va boshqa ma'lumotlarga ega bo'ladi.

7. Texnologik xarita – modul bo'yicha mehnat faoliyati usullarining bajarilishi asosida amalga oshiriladigan amaliy harakatlar majmuidir. Shuning uchun ham modul davomida bajariladigan amaliy ish jarayoni texnologik xaritada qoidali tarzda tasvirlanishi kerak.

8. Har bir modul yakunida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nazariy bilimlarini baholash uchun testlar, amaliy ko'nikmalarni aniqlash uchun mashqlar va topshiriqlar berilishi, shuningdek, baholash mezonlari keltirilishi lozim.

9. Har bir modul oxirida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari modul o'rganishning natijalarini qayd etish uchun baholash varaqasi ildova qilinadi. Ushbu varaqa orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining modulni qanchalik darajada o'zlashtirganliklari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

10. Oxirgi qismda barcha modullarni o'rganish bo'yicha tavsiya etiladigan elektron ta'lim resurslarining ro'yxati va ularning disketada yozilgan elektron versiyasi, shuningdek, qo'shimcha o'quv va uslubiy materiallar beriladi.

Biz tomondan yuqoridagi texnologiya asosida "Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi" fanidan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun modulli o'quv materiallari [90] ishlab chiqildi va ta'lim jarayoniga tatbiq etildi. Quyida modulli o'quv materialidan namuna berilgan. Modulli o'quv materialining to'liq ishlanmasi 3 ilovada keltirilgan.

Talabalarning kreativligini rivojlantirish va innovasiyalarni yaratishga yo'naltirish, muammoli faoliyat turlarini tahlil qilish, muammolarni mustaqil anglash, o'z imkoniyatlarini rivojlantirishga sarflash - kreativ o'qitishning maqsadi hisoblanadi va aynan kreativ o'qitishga bo'lgan ehtiyojni talab qiladi⁵⁹. Bo'lajak

⁵⁹ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>


boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini va pedagogik mahoratini rivojlantirish hamda ularning ijodiy fikrlashini kreativ o'qitish metodlari va innovasion texnologiyalari yordamida takomillashtirish ahamiyatlidir.

O'qitish jarayonining vazifasi ta'lim tarbiya va rivojlanish birligini ta'minlashni nazarda tutadi. Ta'lim beruvchilarning ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarini oshirishda ularning kasbga bo'lgan qiziqishi va pedagoglarini kreativligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativlik tushunchasi (lot. ing. "create" yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilganda ijod ma'nosini anglatadi [21]. Haqiqatdan esa yang original (o'ziga xos) yanada sayqallangan moddiy va ma'naviy bog'liqliklarni yaratishdir. Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Pedagogik faoliyatda kreativlikning ahamiyatini "Kreativlik" va "pedagogik kreativlik" tushunchalarining mohiyatida, kreativlik sifatlanda, kreativlikni rivojlantirish shartlarida ko'nshimiz mumkin Bo'lajak pedagoglarda kreativlikni shakllantirish shartlarini keltiramiz. Bo'lajak pedagoglarni kreativlikni shakllantirish shartlari

- ✓ qiziqarli, murakkab vazifalar, aniq maqsad va vaqt bilan ta'minlash;
- ✓ kreativlik narvozasizlik hissini yuzaga keltirishini anglatish;
- ✓ bezovtalik va qo'rquv hissidan xalos bo'lishga yordam bensch
- ✓ kreativ fikrlash ko'nikmalarini boshqa ko'nikmalar bilan rivojlantirishga yordam berish;

Kreativlik - ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'zida mujassamlashtirib, kreativ o'qitish jarayonini shakllantirish, kreativ o'qitish metodlari va innovasion texnologiyalari orqali kasbiy-texnologik bilimlar olish va kreativ salohiyatni oshirish, turli uslublardan ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirishda foydalanish, talabalarning ta'lim dasturlarini shakllantirishda faol ishtirok etishni o'z ichiga oladi.



2.2.3-rasm. Kreativlikni oshirishga qaratilgan kompetensiyalar sxemasi

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy⁶⁰ vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olishdir.

Kreativ kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan asosiy vazifalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

⁶⁰ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>



2.2.4-rasm. Kreativ kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan asosiy vazifalar

Ta’lim mazmuni darajasi insonlarning tabiat, jamiyat, insoniyat haqidagi bilimlariga, inson imkoniyatlari natijasida yaratilgan faoliyat turlari yuzasidan egallagan bilimlariga va muammolarni yangicha echimini topish, dunyoni anglash kabi qobiliyatlariga qarab aniqlanadi.

Ta’lim mazmunini shakllantirish tamoyillari quyidagilardan iborat:



2.3.5.-rasm. Ta’lim mazmunini shakllantirish tamoyillar

Texnologiya ta’limida onglilik va faollik tamoyili.

Talabalar tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirishi uchun qilayotgan ish mazmunini yaqqol tasavvur qilgandagina ishga ongli ravishda kirishadi. Bu

tamoyil talabalarni tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirishda ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutqi rivojlanatiradi. Talabalarni tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirishdagi onglilik tamoyili ta'lim jarayonining aniq maqsadlarini tushunish, o'rganilayotgan dalil, hodisa, jarayonlar va ular o'rtasidagi bog'lanishni tushungan holda o'zlashtirib olish, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay bilish kabi me'yorlarni anglatadi.

Texnologiya ta'limida ilmiylik va tizimlilik tamoyili talabalarning tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirishda ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi. Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng so'ngi yutuqlari va kashfiyotlaridan foydalanish kerak.

- Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida talabalarning tikuvchilikka oid kreativligi ilmiy dunyoqarash, tafakkur rivojlanadi. Har bir darsda o'qitiladigan o'quv materialining ilmiy mazmuni keng va chuqur bo'lishi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tikuvchilikka oid bilim, balki tafakkur hosil qilishi hamda uning ijodiy qobiliyati kreativ rivojlantirishi kerak⁶¹. Buning uchun esa o'qituvchi o'z ilmiy saviyasini izchil ravishda oshirib borishi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kashfiyotlar va ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tikuvchilikka oid o'rganayotgan bilimlar, albatta nazariy tasdiqlangan va amalda sinalgan bo'lishi kerak.

Texnologiya ta'limida tizimlilik va izchillik- o'qitishni shunday tashkil etishni talab etadiki, bunda o'quv fanlarini o'qitish qat'iy mantiqiy tartibda olib boriladi. Talabalarni tikuvchilikka oid kreativ rivojlanishlari uchun bilim ko'nikma va malakalarini izchillik bilan egallab boradilar va ayni paytda amaliy vazifalarni hal qilish uchun ulardan foydalanishni o'rganadilar. Tizimlilik va izchillik tamoyili pedagogik jarayonning hamma bo'g'inlarida amalga oshiriladi. Uning talablari darsliklar va dasturlarni tuzishda o'z aksini topadi. O'quv materialini to'g'ri

⁶¹ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

taqsimlash ya'ni oddiydan murakkabga, oddiy operasialardan qiyinroq operasialarni bajarishga o'tishni talab qiladi.

- Texnologiya ta'limida izchillik tamoyili talabalarni tikuvchilikka oid kreativ rivojlantirishda didaktika qoidalariga amal qilishni talab etadi: Oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga. Mavzularni o'tishda yoki texnologik muammolarni yechishda o'qituvchi darsni shunday rejalashtirishi kerakki, o'quvchilarning hammalariga tushunarli bo'lishi kerak. Talabalarni tikuvchilikka oid kreativ rivojlantirishda yoshi va individual xususiyatlari hisobga olinishi talab etiladi.

Ushbu tamoyillarga muvofiq, barcha o'quv modullari doirasida Boshlang'ich ta'lim va sport ta'lim yo'nalishi talabalarini kreativ o'qitishning mazmuni takomillashtirildi

**Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ rivojlantirish
mazmunini takomillashtirish**

№	Modul nomi	Kreativ o'qitishning taklif qilingan elementlari (mukammallashtirilgan dastur uchun)
	Oliy ta'limning normativ - huquqiy asosi	
	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining jamiyatni rivojlantirish va texnologiya ta'limi masalalari	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining jamiyatni, har bir kishining shaxs sifatida rivojlanishi, uning kompetentligi va mehnat faoliyatidagi kreativligi masalalari Innovation jamiyat tushunchasi. Innovation jamiyatni rivojlanishida kreativ shaxsning roli
	Ta'lim - tarbiya jarayonini tashkillashtirishda huquqiy normalar	Ta'lim maqsadi, ta'lim - tarbiya jarayonini tashkillashtirishda o'sib kelayotgan kelajak avlod ijodiy qobiliyatlarini normativ - huquqiy hujjatlarda berilishi
	Innovation texnologiyalar va pedagogik mahorat	
	Innovation ta'lim texnologiyalari va	Innovation jamiyat. Innovation jamiyatni qurishda ta'limning roli. Innovation jamiyatni

	pedagogik kompetentlik	rivojlantirishda kreativ shaxsning roli. Kreativlik tushunchasi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativligi. Kreativlikni rivojlantirishning pedagogik shartlari. Kreativlik hususiyatlari. Kreativlikni rivojlantirish texnologiyalari. Metodologik konsepsiyasi. Tarmokni rejalashtirish texnologiyasining kreativlikni rivojlantirishdagi roli.
	Elektron ta‘lim muhitini tashkillashtirish	Kreativlikni rivojlantirishda informasion ta‘lim muhiti imkoniyatlari Kreativ o‘qitishni rivojlantirishda informasion texnologiyalar muhiti mavjudligi zarurati
AKT ni ta‘lim jarayoniga tadbiq etish		
	Elektron pedagogika asoslari va shaxsiy professional informasion muhitni loyihalash	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kompetenligini va kreativligini baholash.
Tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari		
	Oliy ta‘lim muassasalari boshqaruvining tizimli tahlili va qaror qabul qilish texnologiyasi	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ta‘lim - tarbiya jarayonini boshqarishda kreativligi
Ixtisoslik fanlar		
	Ma‘lumotlar omborini boshqarish tizimi	Kreativ metodlar va innovasion texnologiyalardan, amaliy mashg‘ulotlardan foydalanish
	Dasturlash asoslari	Dasturlashda kreativlik. Amaliy mashg‘ulotlarda kreativlikni qo‘llash.
	Operasion tizimlar	Amaliy mashg‘ulotlarda kreativ metodlardan foydalanish.

Talabalarning o‘zlashtirishini baholash mezonlari

1. Modul raqami: 2 2.Mavzu: Asbob-uskunalar, moslamalar va ulardan foydalanish.	Baholash varaqasi
	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining

3. Modulni o'zlashtirishga ajratilgan vaqt – 6 soat 4. Modulni o'tkazish sanasi	ismi sharifi													
Baholash mezonlari	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
I. Ish o'rnini tashkil etish: - asbob uskunalarini to'g'ri tanlash. - asbob uskunalaridan to'g'ri foydalanish.														
II. Texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish - yong'in xavfsizligi; - sanitariya qoidalari; - mehnat muhofazasi va sanitariya qoidalariga rioya qilish.														
III. Amaliy ko'nikmalar:														
- Detallar maxsus cho'tka bilan tozalash.														
- Asbob-uskuna, moslamalardan to'g'ri foydalanish.														
IV. Test natijalari														
JAMI:														

“Texnologiya ta’limi va uni o’qitish metodikasi” fanidan modulli o’quv materiallari ta’lim jarayoniga tadbiiq etilishi natijasida quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mustaqil izlanish va ishlash qobiliyatiga ega bo'ladi⁶²;
- tabaqalashtirilgan ta'limga o'qitish imkoniyati yuzaga keladi;
- o'qitishning uzluksizligi va ketma-ketligi ta'minlanadi;
- modulning pirovard maqsadi tushunib yetiladi;
- mehnat jarayonlarining asosiy jihatlari ajratib ko'rsatiladi;

⁶² <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

- modulning butun hajmi va maqsadi talabning ko'z oldida yaqqol gavdalanadi;
- har bir modul ichida va ular orasida uzviylik ta'minlanadi, o'quv jarayoni barcha turlarining uslubiy jihatdan muvofiqligi ta'minlanadi.

Buning natijasida bo'lajak o'qituvchilar yetarli bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladi. Shunday qilib, "Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi"da modulli o'quv materiallari qo'llanilganda talabalarning bilim imkoniyatlari, ijodiy va amaliy qobiliyatlari rivojlanadi. Mashg'ulotlar davomida kasbga qiziqtirish asosida fanni samarali o'zlashtirishga erishiladi⁶³.

2.3. Modulli-kreativ o'quv materiallaridan foydalanib "Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi" fanini o'qitish texnologiyasi

Kyeyingi yillarda respublikamizda oliy va professional ta'limi tizimi muassasalarida modulli o'qitish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borildi va natijalari amalda tatbiq etildi. Bu sohada xaligacha izlanishlar olib borilmoqda, tajribalar o'tkazilmoqda. Biz quyida modulli o'qitish texnologiyasi bo'yicha berilgan fikrlar va ilmiy tadqiqotlar haqida qisqacha to'xtalamiz.

N.X.Avliyoqulov, Musayeva N.N. fikricha modulli o'qitish - o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir. Modulli o'qitish, kasbiy ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini xar tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi [30].

- Modul – faoliyatlik asosida o'qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash, dasturlarni o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlaydi;
- o'qitishni individuallashtirish;0
- amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish;

⁶³ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

- kasbga qiziqtirish asosida, faollashtirish, mustaqillik va o‘qitish imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish.

Modulli o‘qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liq [31]:

- ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;
- malakali professor-o‘qituvchilar tarkibi darajasi;
- bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorgarlik darajasiga;
- kutiladigan natijalar bahosiga;
- didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga;
- modullar natijasi va tahliliga.

Modulli o‘qitishda amaliy va nazariy mashg‘ulotlari bilan birga olib boriladi, har bir modul yangi material bilan to‘ldirilib borilishi kerak.

Bir qator tadqiqot ishlarida [31,34,37] modulli o‘qitish qo‘llanilganda quyidagi afzalliklar va imkoniyatlar bo‘lishi keltiriladi:

- fanlar ichidagi modullar orasidagi o‘qitish uzluksizligini va uzviyligi ta’minlanadi;
- har bir modul yaxlit tugallangan o‘quv jarayoniga moslashgan;
- bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar o‘zlashtirishi muntazam va samarali nazorat qilinadi;
- har bir modul to‘la o‘zlashtirilgandan so‘ng ikkinchi modulga o‘tiladi. Buning natijasida, o‘kuvchi yetarli bilimlarga, ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

- modulli metodika o‘qitishda faoliyatlik, tizimli kvantlash, qiziqtirish, modullilik, muammolilik, kognitiv vizuallilik, xatoliklarga tayanish tamoyillariga muvofiq ishlab chiqishi lozim .

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, modulli o‘qitish bo‘yicha N.X.Avliyoqulov, B.Nuriddinov [31,89], A.Shoyusupova [125], D.M.Fayzullayeva [117], S.Yu.Ashurova [46], N.Musayeva [79] tadqiqotlar olib borganlar. F.Daminov fizika ta’limini kreativ-modulli texnologiya asosida takomillashtirgan [51]. G.Najmiddinova zoologiya fanini o‘qitishda kreativ-modulli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha dissertasiya ishini bajargan [53].

Modulli o‘qitish texnologiyasining boshqa texnologiyalardan farqi shundaki, bunda har qaysi bosqichda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar o‘quv materiali bo‘yicha yetarli bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaganlaridan keyingina so‘nggi bosqichga o‘tadilar⁶⁴.

Modulli o‘quv materiallari bilan mustaqil ishlash quyidagicha amalga oshirish mumkin:

- talabalar o‘quv materiali tuzilishi bilan tanishish;
- berilgan savollarga modulli o‘quv materialidan va boshqa manbalardan javob izlash;
- mavzuni mustaqil o‘rganib referat yozish;
- amaliy topshiriqlarni texnologik xaritalardan foydalanib bajarib, natijalari bo‘yicha hisobot yozish;
- test savollariga javob berish;
- o‘rganilgan ma’lumotni tahlil etish;
- modulli o‘quv materialida berilgan vazifalar va mashqlarni mustaqil bajarishi⁶⁵.

Biz “Texnologiya ta’limi va uni o‘qitish metodikasi” ixtisolik fanini modulli o‘quv materiallaridan foydalanib o‘qitish jarayonini quyidagi bosqichlarda amalga oshirdik.

1. Tashkiliy ishlar.

Modulli o‘quv materiallaridan foydalanib o‘qitish jarayoniga tayyorgarlik ko‘rish muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir modul o‘ziga xos tayyorgarlikni talab etadi.

O‘qituvchi har bir talabaning dastlabki bilimi va o‘zlashtirish imkoniyatlarini o‘rganish kerak. Chunki talabalar o‘quv materialini o‘zlashtirishda dastlabki bilimlar va ko‘nikmalariga tayanadilar. Ularning o‘rganish va mustaqil ishlash qobiliyatlari, psixologik imkoniyatlari modulli o‘qitishga ta’sir ko‘rsatadi.

⁶⁴ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

⁶⁵ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

Biz kreativ-modulli texnologiya asosida mashg'ulotlarni olib borish uchun ishlab chiqilgan modulli o'quv dasturi va modulli o'quv materiallari bo'yicha tashkiliy ishlarni amalga oshirdik.

Modul tarkibidagi nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish uchun:


- o'qitish joyini tanlandi;
- mashg'ulotlarni o'tkazish vaqti o'rnatildi;

Mehnat jarayonlarini amalga oshirish uchun jihozlar, moslamalar, audiovizual vositalar, o'qitish va o'rganish vositalari (doska, flipchart, proyektor, videomagnitafon) ning yaroqliligi, shuningdek, elektr toki, suv, havo bosimi va hokazolar holatini o'rganildi. Shuningdek o'quv ustaxonasi holati ham ko'zdan kechirildi.

2. Ta'lim mazmuni va maqsadni belgilash.

“Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi”ni modulli metodika asosida o'qitishda o'quv maqsadi va o'quv material mazmunini belgilash muhim hisoblanadi. Umumiy o'quv maqsadi belgilangandan so'ng har bir modul bo'yicha o'quv maqsadlari belgilandi. O'quv maqsadlari modul yakunida ta'lim jarayoni natijasida ,bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari erishishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni belgilaydi.

Biz tomondan “Texnologiya va uni o'qitish metodikasi” ixtisolik fani modulli o'quv materiallaridan foydalanib tashkil etilgan o'qitish jarayonini quyidagi sxema orqali tasvirlash mumkin.



2.3.1-rasm. Modulli o‘quv materiallaridan foydalanib tashkil etilgan o‘qitish jarayoni

Modulli o‘qitishda o‘quv maqsadlari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar harakatida ifodalanadigan, aniq ko‘rinadigan va baholanadigan natijalar orqali qo‘yiladi. Har bir modul yakunida o‘quv maqsadlari mos baholash materiallari va mezonlari berilishi kerak.

Modulni o‘quv maqsadi qanchalik aniq qo‘yilsa, unga erishilganlik darajasini baholash shunchalik oson bo‘ladi.

3. O‘qitish vosita va materiallarni tayyorlash.

Modulli metodika asosida o‘qitishda har bir modul bo‘yicha va vositalardan foydalanildi. Har bir modul bo‘yicha darslik, kartoteka, tarkatma materiallardan, uslubiy qo‘llanmalar, ko‘rsatmalar, jadvallar, jihoz yoki asbobni ishlatish bo‘yicha ko‘rsatmalar tayyorlab qo‘yiladi. Shuningdek bunday didaktik materiallarga qo‘shimcha ravishda tasviriy materiallar (fotosuratlar, rasmlar, chizmalar, grafiklar) tayyorlash mumkin. Dars jarayonida ko‘rgazmaliligini ta‘minlash juda muhim ahamiyatga ega.

Ovozli va tovushli audio-vizual vositalar mehnat usullari, texnologik jarayonlar va funksiyalar, buyumlar va ob‘yektlar real tasavvurlarni vujudga keltiradi⁶⁶.

Mehnat sohasiga tegishli asl narsalar, mehnat qurollari, mahsulotlar, jihozlar va asboblar ishchi holatiga keltiriladi.

Mehnat usullarini bajaruvchi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ko‘rgazmali vositalar, jihozlar, uskuna va moslamalarni ishlata olishni va ulardan maqsadga muvofiq va samarali tarzda foydalanishni bilishi kerak. O‘qituvchi texnik vositalardan foydalanilayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni hal qila oladigan bo‘lishi lozim.

4. Mashg‘ulotlarni o‘tkazish.

⁶⁶ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga modul tarkibidagi nazariy o'quv materiallarini o'rgatish quyidagi bosqichlarda o'tkazish tavsiya etildi:

1. Tashkiliy qismda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar davomati tekshiriladi. Oldingi o'tilgan mavzu bo'yicha savol-javoblar o'tkaziladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faollashtiriladi.

2. Asosiy qismda yangi mavzu bo'yicha o'quv axborotlari uzatiladi, har bir kichik mavzu bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga savollar orqali bilimlari tezkor baholanadi. Dars paytida umumiy savollar orqali bilimlar baholanadi, qo'shimcha ma'lumotlar beriladi, o'quv maqsadiga erishilganligiga aniq ishonch hosil qilgandan so'ng talabalarga modulli o'quv materiallaridan foydalanib ishlashlari uchun mustaqil ish topshiriqlari beriladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining modulli o'quv materiallaridan foydalainib ishlashlari uchun quyidagi mazmunda topshiriqlar beriladi. Berilgan mavzu bo'yicha to'plangan ma'lumotlarni tizimlashtirish, mavzu bo'yicha referat yozish, mavzuga oid muammolari aniqlash, guruhlariga ajratish, taqqoslash, mashq va topshiriqlarni bajarish nazariy va amaliy testlarga javob izlash kabilardir.

Talabalar ustaxonalar, ish joylari va sharoitlari, mehnat usullarini bajarishda atrof-muhitga ta'sir etmaydigan faoliyat, mehnat xavfsizligi qoidalari bilan tanishtiriladi.

Mehnat xavfsizligi qoidalariga, baxtsiz hodisalar va ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir etuvchi salbiy holatlarning oldini olish borasidagi harakatlar kiradi, ya'ni ish o'rnida shaxsiy xavfsizlik, himoya vositalari va mexanizmlardan to'g'ri foydalanish, yong'inni oldini olish choralari, olov o'chiruvchi moslamalar kiradi. Mashg'ulotlarda mehnat xavfsizligi qoidalari tushuntirishlari ish bilan bog'liq ravishda olib borilishi kerak.

Texnologiya va uni o'qitish metodikasi ixtisolik fani bo'yicha o'quv ustaxonalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga bajariladigan ish bosqichlari, asbob-uskunalardan foydalanish, ish sifatini nazorat qilish usullari kabi turli amaliy ko'nikmalar o'rgatiladi. Texnologiya va uni o'qitish metodikasi fanidandan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishning turli qoidalari mavjud bo'lib, biz

modulli o'qitishda bevosita va bilvosita olib boriladigan amaliy mashg'ulotlarni tavsiya etamiz. Biz har bir mashg'ulot uchun dars ishlanmalarini ishlab chiqdik. Quyida dars ishlanmasidan namuna keltirdik.

5. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarni baholash.

Har bir topshiriq yoki mashqdan keyin talabalar o'zlari bajargan ishlarini baholashlari lozim. Boshqa bir imkoniyat esa natijalarni kichik guruhlarda ochiq-oydin va samimiy muhokama qilishdan iboratdir. Modul yakunida yakuniy suhbat uchun vaqt ajratilishi kerak. Bu esa o'z navbatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining natijalari, ularning amalga oshirgan va oshirolmagan ishlari, shuningdek, o'qituvchilarning natijalar yuzasidan mulohaza yuritishlari uchun yaxshi imkoniyatdir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf fani o'qituvchilari innovasiyalardan samarali foydalanish asosan uning kasbiy tayyorgarligiga hamda uning shaxsiy tajribasiga bog'liq. Innovasion ta'lim texnologiyalari butun insoniyatning hayot tarzini va mehnat shaklini o'zgartirib, uni o'z bilimlarini chuqurlashtirishga, malakasini oshirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativligini rivojlantirishda texnologiya va uni o'qitish metodikasi praktikumi fanini o'qitishda "Tarmoqli rejalashtirish" texnologiyasini qo'llash yaxshi samara beradi.

"Tarmoqli rejalashtirish" texnologiyasi dars jarayonini tashkil qilish amaliy jihatdan kreativ ijodkorlikni talab etadi. Bu holatni uning didaktikaning asosini belgilovchi funksiyalardan biri sifatida quyidagicha ta'rif berishganini ko'rish mumkin: "O'qish, o'rganish, o'qitish va o'rgatish hamda tarbiya bu didaktikaning o'zaro bog'langan doimiy faoliyat ko'rsatish funksiyasi bo'lib hisoblanadi" [136.].

"Tarmoqli rejalashtirish" texnologiyasi- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tarmoqli rejalashtirish texnologiyasining ahamiyati, mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari amalga oshirish bosqichlari hamda shartlari haqida bilimlarni shakllantiradi.

Tarmoqli rejalashtirish - bu o'qitishning kompyeks metodik usuli bo'lib, vaqtli va mantiqiy ketma-ketlik jihatdan loyihani rejalashtirishni, kompyeks loyihaning alohida sikllarini grafik ko'rsatish yordamida loyihani boshqarish hamda nazorat qilishni yaxshilaydi.

Didaktik maqsadi. Tarmoqli rejalashtirishning didaktik maqsadi, o'z-o'zini tashkil etish kompyetyensiyasini yaxshilashdan iborat.

Metodik maqsadi. Tarmoqli rejalashtirishning metodik maqsadi, loyihalarni samarali (yaxshi qo'yilgan, tejamkor, uzluksiz) rejalashtirish va o'tkazishdan, shuningdek, umumiy muvaffaqiyatni nazorat qilishdan iborat.

Asosiy belgilari va asoslari. Tarmoqli rejalashtirish – murakkab strukturali kompyeks loyihalarni samaraliroq rejalash-tirish, boshqarish va nazorat qilish vositasidan biridir. Biroq, bu metodni kichik loyiha ishlarini tayyorlash hamda nazorat qilish uchun ham qo'llanilishi mumkin. Shunday qilib, tarmoqli rejalashtirish predmeti bo'lib istalgan turdagi loyihalar hisoblanadi. Loyihani operativ va kalendar rejalashtirish byerilgan metodning asosiy tashkil etuvchilari hisoblanadi. Tarmoqli grafik reja – loyihaning alohida komponentlarini ularning vaqtini va mantiqiy ketma-ketlikda grafik tarzda ko'rsatishdir.

Kelib chiqishi. Tarmoqli rejalashtirish metodi fransiyalik rejalashtirish bo'yicha mutaxassislar tomonidan katta loyihalar doirasida ishlab chiqilgan. Bu vaqtga kelib shunday fikr bo'lganki, bitta tarmoqli rejalashtirish metodi orqali loyihani boshqarishning barcha qiyinchiliklarini bartaraf etish mumkin. Asosiy maqsad bo'lib loyihaning minimal davomiyligini va uning jarayonlari ketma-ketligining ehtimolli variantlarini aniqlash bo'ldi.

Qo'llanilish sohalari. Hozirgi vaqtda tarmoqli rejalashtirish metodi kompleks loyihalar yoki katta loyihalar uchun, masalan, istalgan turdagi qurilish loyihalari, mashinasozlik va sanoat jihozlarini ishlab chiqarish, montaj ishlari, shuningdek reklama kompaniyalarida hamda ilmiy tadqiqot ishlarida qo'llaniladi. Tarmoqli rejalashtirish metodi loyihani boshqarishning dasturiy ta'minoti uchun asos hisoblanadi.

Shartlari. Tarmoqli rejalashtirish metodi butun loyiha davomida, ya'ni uning oxirigacha qo'llanilishi mumkin. U rejadagi va amaldagi holatni taqqoslash yordamida doimiy qaytar aloqa uchun xizmat qiladi. Metodni amalga oshirish struktura va vaqt analizini taqozo etadi, keyingi yondashuvlar esa xarajatlar analizini hamda ishlab chiqarish hajmi analizini kiritadi. Tarmoq grafigini tuzish uchun turli tahlil ishlarini o'tkazish shart hisoblanadi.

Amalga oshirish bosqichlari. Bu loyihani o'tkazish zarur bo'lgan barcha jarayonlarning (ish, faoliyat, harakat jarayonlari) ularning vaqtdagi va mantiqiy ketma-ketlikda quyidagi savollarga javob berish tizimida amalga oshiriladi:

- Qanday jarayonlarni (ish, faoliyat, harakat jarayonlari) o'tkazish va hisobga olish kerak?
- Qanday jarayonlar qay tarzda bir-biriga bog'liq bo'ladi (oldingi, keyingi)?
- Qanday jarayonlar parallel olib boriladi?
- Alohida jarayonlar qanchalik uzoq davom etadi?
- Qanday manbalar kerak bo'ladi (moddiy, moliyaviy, kadrlar)?
- Qanday muhim muddatlar belgilanishi kerak?
- Kritik jarayonlar, ya'ni vaqt rezervisiz jarayonlar yoki bufer vaqt mavjudmi?

Ishlar ro'yxati. Grafiklar nazariyasiga qisqa quyidagi asosiy tushunchalar tushuntirilishi kerak: grafikni bir-biriga (chekli yoki cheksiz) qirralar bilan bog'langan (chekli yoki cheksiz) tugunlar miqdori sifatida tushunish mumkin. Yo'nalish ko'rsatilgan qirrani strelka sifatida tasvirlash mumkin. Yopilgan kontur ostida «tugunni o'z-o'zi bilan bog'lovchi» strelkani tushunish mumkin. Yo'l marshrut «bir strelka oxirgi tuguni boshqa strelkaning boshlang'ich tuguni bo'ladigan strelkalar qatorini» bildiradi. Agar yo'l chetga chiqmasa, bunda zanjir deyiladi.

Tarmoqli grafik. Tarmoqli grafik bir-biri bilan bog'liq bo'lgan tugun jarayonini va strelka yo'nalishini saqlaydi. Tugunlar (to'g'riburchak, aylana va boshq.) mos jarayon haqida ma'lumotni saqlaydi, strelkalar jarayonlar orasidagi munosabatni ifodalaydi, ya'ni ular jarayonlar tartibi bo'yicha tugunlarni bog'lashadi.

Quyidagilarni farqlash tavsiya etiladi:

- ob'yektlar va jarayonlar strelkalar ko'rinishida ko'rsatilgan tarmoq grafiklari (kritik yo'l metodi, kritik yo'l metodiga asoslangan tarmoq grafigi);
- ob'yektlar va jarayonlar tugunlar ko'rinishida ko'rsatilgan tarmoq grafiklari (potensiallar metodi, potensiallar metodiga asoslangan tarmoq grafigi);
- tugunlar voqealarni bildiradigan tarmoq grafiklari (dasturlarni baholash va tahlil metodi, dasturlarni baholash hamda tahlil metodiga asoslangan tarmoq grafigi).

Jarayonlar. Strelkali tarmoq grafiklari jarayonlarni strelkalar ko'rinishida tasvirlaydi va ko'rsatadi. Tugunli tarmoq grafiklari jarayonlarni tugunlar ko'rinishida tasvirlaydi hamda ko'rsatadi. Voqealar tugunlari saqlagan tarmoq grafiklarida voqealar tugunlar ko'rinishida tasvirlanadi va ko'rsatiladi (voqealarni strelkalar ko'rinishida ko'rsatish qabul qilinmagan). Strelkalar, tugunlar yoki voqealar ketma-ketligi loyihadagi jarayonlar ketma-ketligiga mos keladi. Deyarli barcha loyihalarda vaqtda harakatlar erkinligini, ya'ni kritik jarayonlarni topish mumkin. Bu vaqt rezervi jarayonni o'tkazish yoki uni uzaytirish uchun mumkin bo'lgan erkin vaqt makonini beradi. Barcha kritik jarayonlarni ketma-ket tartiblash natijada loyihaning eng davomiy yo'li hisoblangan kritik yo'lni beradi.

Amalga oshirish qoidalari:

Tarmoq grafigini tuzishning quyidagi keyingi qoidalari bo'lishi mumkin:

- har bir tarmoq boshlang'ich va oxirgi tugunga ega;
- ikki tugun to'g'ridan-to'g'ri faqat bitta strelka yordamida bog'lanishi mumkin;
- strelkalar yo'nalishi aylanaga olib kelmasligi kerak;
- to'g'riburchakning chap tomoni alohida jarayon boshlanishini ifodalaydi, to'g'riburchakning o'ng tomoni alohida jarayon tugallanishini ifodalaydi;
- to'g'riburchak kattaligi jarayon davomiyligiga dahli yo'q.

Strelka uzunligi vaqt intervaliga dahli yo'q.

Kuchli jihatlari. Tarmoqli rejalashtirish metodi loyihalarni rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilishning ko'p vositalaridan biri bo'lib, u shuningdek manbalarni ham e'tiborga oladi. Istalgan turdagi yirik loyihalarda rejalashtirish va

o'tkazish jarayonini optimallashtirish uchun hamda loyihani sustlashtiruvchi ehtimolli kritik jarayonlarni topish, rejaga kiritish uchun (alohida e'tiborni talab qiladi) tarmoqli rejalashtirish metodi qo'llanilishi mumkin. Tarmoq grafigida muddatlarga amal qilinmaslik yoki jarayonlar o'zgarishi ma'lum bo'ladi. Loyihaning umumiy borishi oldindan puxta ishlab chiqiladi, natija bo'lib ishonarli kalendar reja hisoblanadi. Tarmoq grafiklari jarayonlar orasidagi bog'liqlikni ifodalaydi, temperatura o'zgarishi tufayli uni o'zgartirish kerak emas, ya'ni operativ va kalendar rejalashtirish alohida o'tkaziladi. Tarmoqli rejalashtirish metodi asoslarini oson va tez o'rganish mumkin.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'qitishning bosqichli kreativ o'qitish metodikasi asosida quyidagi metodlarini tavsiya qilamiz:

1-bosqichda: "10 kashfiyot", "K'yubing";

"10 kashfiyot" kreativ metodida qo'llash jarayonida tinglovchilar o'zlarining kasbiy faoliyatida nimalar o'rab turgani va bir hafta ichida o'zlari uchun 10 ta kashfiyot qilishlarini taklif qilishadi. Hisobot qisqacha tavsifiga ega fotosurat shaklida taqdim etiladi.

5-bosqichda: "SCAMPER", "O'zganing fikri".

"O'zganing fikri" kreativ metodi turli nuqtai nazarga ega va bu sohada mutaxassis hisoblangan uch-to'rt tinglovchidan iborat guruhlariga ajratiladi va har bir guruhga nom beriladi. Har bir guruh to'liq ijodkorlik qobiliyatini ishga solib teatral ma'noda rolga kirishadilar. Asosiy vazifa, muammoni turli jihatdan qarashni o'rganish. Har bir guruh o'z nuqtai nazarini boshqa guruhlariga yetkazishi zarur. Fikr shaxsiy rolga bog'liq muammolarni o'z ichiga olishi kerak.


Har bir guruh boshqalarga hisobot beradi, voqealarni bo'lishib oladilar, muhokama davomida guruhlar eng muvaffaqiyatli yechimlarni aniqlaydilar.

Yuqorida aytilganlarni shunday xulosalash mumkin:

- Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbga o'rgatish jarayonida mustaqil harakatlari shakllanadi;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mashg'ulotdagi faolligi oshadi;
- mustaqil ishlash qobiliyatlari va kryeativ ijodkorligi rivojlanadi;

- amaliy ko‘nikmalarni yaxshi o‘zlashtirish imkonini beradi;
- individual ishlashda barcha bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari mashg‘ulotga jalb etiladi⁶⁷;

⁶⁷ <https://elibrary.ru/item.asp?id=17719254>



2.3.2.-rasm. Modulli o'quv materiallaridan foydalanib "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" fanini o'qitish texnologiyasi

Texnologiya va uni o'qitish metodikasi ta'limi praktikumi fani bo'yicha egallashi kerak bo'lgan shaxsiy qobiliyatlar va ko'nikmalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, topshiriqni bajarish jarayoni davomida bilim va ko'nikmalar shakllanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari berilgan topshiriqni bajarishda vazifalarni individual yoki o'zaro taqsimlab mustaqil ravishda rejalashtirilishidan boshlab amalga oshirish va xulosa chiqarishda birgalikda ishlashadi.

Ushbu innovasion o'qitish texnologiyalari texnologiya va uni o'qitish metodikasi praktikumi fanini o'qitishda qo'llanilganda ta'lim sifati oshganligi, shuningdek bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kreativ ijodkorlik faoliyatlari ancha rivojlanishi kuzatildi.

“Tarmoqli rejalashtirish” texnologiyasidan foydalanish metodikasini takomillashtirish

Jahon miqyosida pedagog kadrlarining ijodiy salohiyati, texnologik kompetentligi va kreativligini rivojlantirish, axborot-kommunikasiya texnologiyalari va dasturlari orqali o'qitishning innovasion texnologiyalardan kompleks foydalanish orqali ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishning intellektual resurslarini hamda ta'lim mazmuniga mos o'qitishning zamonaviy o'quv-uslubiy ta'minotini ishlab chiqish, o'quv materiallarini mazmunan takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Mazkur zaruriyatdan kelib chiqib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy fikrlashi va kreativligini rivojlantirish masalalariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Dunyodagi innovasiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiq etish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish usullarini ilmiy asoslab berish, ta'lim tizimi mazmuniga mos kreativ o'qitish metodikasini joriy etish va o'quv materiallarini takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Respublikadagi shiddatli o'zgarishlar ta'lim tizimiga ham jahon miqyosida keng yo'l ochib bermoqda, jumladan, zamonaviy axborot texnologiyalarning tezkor rivojlanishi, global telekommunikasion texnologiyalarning takomillashib borishi elektron ta'lim muhitida insonni ishga bo'lgan munosabatini kreativ yondashuvini talab etmoqda.

Ta'lim innovasiyalari – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.


Zamonaviy sharoitda talabalarning o'quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovasion xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modul-kredit tizimi, masofali o'qitish, blended learning (aralash o'qitish) va mahorat darslari ta'lim innovasiyalarining asosiy turlari orqali amalga oshiriladi (2.3.3-rasm).

Individual yondashuvlar asosida “Texnologiya va uni o'qitish metodikasi” fanini o'qitish orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatiga tayyorlashda quyidagi innovasion texnologiyalardan foydalanildi

Muammoli ta'lim texnologiyasi (muammo va muammoli vaziyat)

Rivojlantiruvchi ta'limning vazifasi – shaxsning individual kamol topishi uchun zarur bo'ladigan hayotiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish sanaladi.

Rivojlantiruvchi ta'limning o'ziga xos xususiyatlari – talabalarda topshiriqlarni yechishga oid nazariy tushuncha va amaliy ko'nikma, malakalarni shakllantiradi. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasining asosiy bo'g'ini muammoli ta'lim yo'nalishi sanaladi.



2.3.3-rasm. Ta'lim innovatsiyalarining asosiy turlari

Muammoli ta'lim turi ilmiy-uslubiy jihatdan 3 xil ko'rinishga ega.

Muammoli vaziyatni vujudga keltirish.

Muammoning qo'yilishi.

Muammoning yechimini topish.

Muammoli vaziyatni o'quv mashg'ulotlarining barchasida shakllantirish mumkin. Uni dars jarayonida qancha ko'p shakllantirish o'qituvchiga bog'liq. Muammoli vaziyatning ahamiyati shundaki, u talabalar diqqatini bir joyga (muammoga) qaratadi va o'quvchilarning izlanishiga, fikrlashga o'rgatadi.

Muammoli ta'lim o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo talabalarning faol, mustaqil faoliyati natijasida nazariy

bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni ijodiy o‘zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta’lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi.

Muammoli o‘qitish jarayonida talabalarga tadqiqiy, evristik, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish bo‘yicha topshiriqlar beriladi.

Bunda:

nostandart masalalarni tuzish bo‘yicha;

shakllantirilmagan savol bilan;

ortiqcha ma’lumotlar bilan;

o‘zining amaliy kuzatuvlari asosida mustaqil umumlashtirish;

“bir lahzada” topish kabi topshiriqlarni berish mumkin.

Muammoli vaziyatlarda yechimga kelishning algoritmi quyidagi tartibda amalga oshiriladi: muammoni qo‘yish, ma’lumotlar fondini to‘plash, qayta ishlash, yechim modelini aniqlash, qo‘shimcha ma’lumotlar to‘plash va ularni tanlangan yechim modelida aks ettirish, yangi ma’lumotlar va yechim modeli o‘rtasidagi zidlikni aniqlash, zidlikni yechimini topish, yangi yechim modelini yaratishdan iboratdir.

“Muammoli vaziyat” usuli – ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish, hamda ularning yechimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan usuldir.

“Muammoli vaziyat” usuli uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi zarur. Ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmaslik, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. “Muammoli vaziyat” usuli qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadilar.

“Muammoli vaziyat” usulining bosqichlari:

Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.

Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

1. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.
2. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
3. Bu bosqichda muammoning oqibatlari to'g'risidagi fikr-mulohazalarni taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
4. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama va tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar.
5. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.
6. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi (2.3.4, 2.3.5-rasmlar).

O'qituvchi barcha talabalarning javobini umumlashtirish jarayonida quyidagilarga e'tiborini qaratishi lozim:

1. Muammoli savolga aniq javob topishga undash.
2. Muammoga aloqasi bor deb o'ylagan barcha fikrlarga e'tibor qaratish.
3. Ko'rgan, eshitgan, o'qiganlari asosida mustaqil fikrlarini aytish, o'z bilimlarini baholay olishga sharoit yaratish.
4. Har bir guruh a'zolarining mustaqil fikrlarini qisqa, lo'nda, tiniq, aniq qilib ifodalashlariga ko'maklashish.
5. O'rtog'ining o'zidan yaxshi fikrlashini sidqidildan tan olishga, ularga havas qilishga, ularni past darajada fikrlayotganligini tan olishga yo'naltirish.
6. O'rtog'ining ijobiy javoblarini o'zlashtirishga harakat qilish.
7. Darslikdan unumli foydalanishni bilish.

Овқат тайёрлаш жараёнида тайёрланаётган овқатнинг мазаси шўр бўлиб қолса қандай йўл тутасиз?

Муаммоли вазият

Жавоб
варианти

Жавоб
варианти

Жавоб
варианти

Жавоб
варианти

Жавоб: овқатга яна кўшимча картошка, гуруч қўшаман, чунки улар тузни ўзига тез тортиб олади. Суюқ таомларга сув қўшиб бир оз қайнатиш керак. Овқат сал кўпаяди, лекин бу йўл орқали шўр таъмдан қўтилиш мумкин (ёки бошқа асосли жавоблар).

2.3.4-rasm. Muammoli vaziyat usuli ko‘rinishi

Тирнокпи бирикмаларни бириктиришда ёғоч исканжаси ёғоч сиртига ботиб кетса, яъни буюм сифатига салбий таъсир кўрсатса нима қилиш керак?

Муаммоли вазият

Жавоб
варианти

Жавоб
варианти

Жавоб
варианти

Жавоб
варианти

Жавоб: Ёғоч юзасига исканжа томонидан етказилган зарарни қум қоғоз ёрдамида ишқаланса яна ўз холига қайтади, ёки унинг устидан махсус елим қоғоз елимланади. Исканжа сиқиб қолган жойни ёғоч кипиғига елим аралаштириб қоришмани суртиб текислаб қўйса ҳам нуқсон баргараф этилади.

2.3.5-rasm. Muammoli vaziyat usuli ko‘rinishi

О‘қитувчи умумлаштираш jarayonida aniq asosli javob aniqlanadi, yaxshi ishtirok etgan talabalar rag‘batlantiriladi, baholanadi.

“Muammo” texnologiyasi

Texnologiyaning maqsadi: talabalarga o‘quv fanining mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala vaziyatlarining yechimini to‘g‘ri

topishlariga o'rgatish, ularda muammo mohiyatini aniqlash bo'yicha malakalarni shakllantirish, muammolar yechishning ba'zi usullari bilan tanishtirish va uslublarni to'g'ri tanlashga o'rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini, muammoni yechishdagi hatti-harakatlarni to'g'ri aniqlashga o'rgatadi.

Mashg'ulotning o'tkazish tartibi:

O'qituvchi talabalarni guruhlariga ajratib, ularni o'rinlariga joylashtirilgandan so'ng, mashg'ulotni o'tkazish tartib-qoidalari va talablarini tushuntiradi, ya'ni u mashg'ulotni bosqichli bo'lishini va har bir bosqich o'quvchilardan maksimum diqqat-e'tibor talab qilinishi, mashg'ulot davomida ular yakka, guruh va jamoa bo'lib ishlashlarini aytadi. Bunday kayfiyat talabalarga berilgan topshiriqlarni bajarishga tayyor bo'lishlariga yordam beradi va bajarishga qiziqish o'yg'otadi. Mashg'ulotni o'tkazish tartib-qoidalari va talablari tushuntirilgach, mashg'ulot boshlanadi:

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan mashg'ulot uchun tayyorlangan video lavhani diqqat bilan tomosha qilib, unda yoritilgan muammoni aniqlashga harakat qilish, xotirada saqlab qolish yoki daftarga belgilab qo'yish (agar video lavhani ko'rsatishning imkoniyati bo'lmasa, u holda o'qituvchi o'quv predmetining mavzusi bo'yicha plakat, rasm, buklet, afisha yoki bir muammo bayon qilingan matn, kitobdagi o'quv materialidan foydalanish mumkin):

✓ har bir guruh a'zolari tomonidan ushbu lavhadan (rasmdan, matndan, hayotiy voqeadan) birgalikda aniqlangan muammolarni vatman yoki formatdagi qog'ozga flomaster bilan yozib chiqiladi;

✓ berilgan aniq



vaqt tugagach, tayyorlagan ishni guruh vakillari tomonidan o'qib eshittiriladi;

✓ o'qituvchi

guruhlar tomonidan tanlangan va muammolar yozilgan qog'ozlarni almashtirgan holda guruhlargai tarqatiladi;

✓ tarqatilgan qog'ozlardaguruhlar tomonidan yozilgan muammolardan har bir guruh a'zosi o'zini qiziqtirgan muammodan birini tanlab oladi;

✓ o'qituvchi tomonidan tarqatilgan quyidagi chizmaga har bir guruh a'zosio'zini qiziqtirgan muammodan birini tanlab oladi;

✓ o'qituvchi tomonidan tarqatilgan quyidagi chizmaga har bir guruh a'zositanlab olgan muammosini yozib, mustaqil ravishda tahlil etadi.

✓ yakka tartibdagi faoliyat tugagandan so'ng har bir o'quvchi bajargantahliliy ishini barchaga o'qib eshittiradi;

Masalan;

T/r	Muammoning turi	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muammoni yechish
1.	Yog'ochni yelimlashda yelim qotib qolsa qanday yo'l tutar edingiz.	Belgilangan talablarga amal qilinmaganligi	-
2.	Tikuv mashinasi ignasining sinibqolsa qanday yo'l tutar edingiz.	Belgilangan talablarga amal qilinmaganligi	-

3.	Taom sho‘r bo‘lib qolsa qanday yo‘l tutar edingiz.	Belgilangan me‘yorg aamal qilinmaganligi	-
----	--	--	---

- ✓ muammolar va ularning yechimi bo‘yicha jamoaviy fikr almashiladi;
- ✓ himoyadan so‘ng o‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi.

Kichik guruhlariga qiziqarli ishlari uchun minnaddorlik bildiradi.

Bunday texnologiya bilan o‘tkazilgan mashg‘ulot natijasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari qaysidir muammoni yechishdan avval uning sababini aniqlanishi kerakligini, keyin esa ularga zarur bo‘lgan uslub va usullarni tanlashi hamda o‘z harakatlarini aniq belgilab olishlari kerakligini bilib oladilar.

Loyihalash texnologiyasi

(juftlik, kichik guruhlar, jamoada o‘quv loyihalarini tayyorlash).

Loyiha metodi – bu bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhli bo‘lishi mumkin, lekin har bir loyiha o‘quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo‘lishi va u bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo‘llay olishni talab qiladigan topshiriq bo‘lishi kerak.

Loyiha o'rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishi, ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo'lishi kerak.

Loyiha metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. O'qituvchi loyiha ishi bo'yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma'lumotlar yig'adilar.

2. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarni rejalashtirishlari lozim.

3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo'yicha qaror qabul qiladilar. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'qituvchi bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo'yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. o'qituvchi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan birgalikda "Baholash varaqasi"ni ishlab chiqadi.

4. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

5. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ish natijalarini o'zlarini tekshiradilar. Bundan tashqari kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalarini "Baholash varaqasi" da qayd etiladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari yoki kichik guruhlar hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: og'zaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha ko'rinishidagi yozma hisobot.

6. O'qituvchi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ish

jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. O'quv amaliyoti mashg'ulotlarida erishilgan ko'rsatkichlarni me'yoriy ko'rsatkichlar bilan taqqoslaydi. Agarda me'yoriy ko'rsatkichlarga erisha olinmagan bo'lsa, uning sabablari aniqlanadi.

O'qituvchi loyiha metodini qo'llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta'minlanishi lozim. Loyiha metodini amalga oshirishning uch xil shakli mavjud (2.3.6-rasm):



2.3.6-rasm. Modulli ta'lim texnologiyasi(modul va modullar dasturi)

Modulli o'qitish – o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri

hisoblanadi, chunki u ta'lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

An'anaviy ta'limda o'quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalangan ya'ni bilim berishga yo'naltirilgan bo'lsa, modulli o'qitishda ta'lim oluvchilar faoliyati orqali ifodalanib, kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan bo'ladi.

An'anaviy o'qitish texnologiyasiga asoslangan	Modulli o'qitish texnologiyasiga asoslangan
Bir tomonga yo'naltirilgan axborot	Fikrlash va amaliy faoliyat orqali tahsil olishda faol ishtirok etishni rag'batlantirish
Bir tomonlama muloqot (darslik → o'qituvchi → o'quvchi)	Ikki tomonlama muloqot
Axborot olish	Tahlil qilish orqali ma'lumotni eslab qolish
Xotirada saqlash	Bilim va ko'nikmalarni namoyish etish
Ma'nosini tushunmagan holda mexanik tarzda yodlash	Mazmuni tushunish va hayotga bog'lash

Ushbu jadvalning tahlili shuni ko'rsatadiki, modulli texnologiyaga asoslangan ta'lim an'anaviy ta'limdan o'qitish usullari va vositalari uni tashkil etish va natijalari bilan sezilarli farq qiladi.

Modulli o'qitish ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi.

- modul – faoliyatlik asosida o'qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash dasturlarini o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlaydi;
- o'qitishni individuallashtirish;
- amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholashdarajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish;
- kasbga qiziqtirish asosida faollashtirish mustaqillik va o'qitishimkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish.

Modulli o'qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq:

- ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;
- malakali o'qituvchilar tarkibi;
- talabalar tayyorgarligi darajasiga;
- kutiladigan natijalar bahosiga;

- didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga;
- modullar natijasi va tahliliga.

Modulni o‘qitishning samaradorligini oshirishga erishish uchun o‘qitishning quyidagi usullarini qo‘llash mumkin:

- muammoli muloqotlar;
- evristik suhbatlar;
- o‘quv o‘yinlar;
- loyihalash va yo‘naltiruvchi matnlar va hokazo.

O‘quv materialining o‘zlashtirilishiga mashg‘ulotlar paytida modulning amaliy ahamiyati qay darajada ochib ko‘rsatilganligi modul mazmunining boshqa modullar bilan bog‘liqligi shu modulni o‘rganishdagi o‘quvchilarning bir xilxatoliklari tahlili muhim ahamiyatga ega.

Hamkorlikdagi ta’lim texnologiyasi (komandada o‘qitish, kichik guruhlarda o‘qitish)

Komandada o‘qitishda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari teng sonli ikkita komandaga ajratiladi. Har ikkala komanda bir xil topshiriqni bajaradi. Komanda a‘zolari o‘quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi mavzudan ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga e’tiborni qaratadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘rtasida tom ma’nodagi hamkorlik har bir talabanning qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bilimlarni o‘zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir talabanning kundalik natijasi avval qo‘lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. Shundagina o‘quvchilar o‘zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishni anglagan holda mas’uliyatni his qilib, ko‘proq izlanishga, bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta o‘zlashtirishga intiladi.

Kichik guruhlarni hamkorlikda o'qitish.

Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tashkil topadi. O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra talabalarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga berilgan o'quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir talaba topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir talabalar o'zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o'rtoqlarini o'qitadi, so'ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O'qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kichik guruhlardagi o'quv faoliyati o'yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin.

II-Bob bo'yicha xulosalar

O'tkazilgan izlanishlar va amaliy tajribalar asosida Texnologiya va uni o'qitish metodikasi darsligi modeli ishlab chiqilib, uning har bir komponenti mohiyati yoritib boriladi. Tavsiya etilgan modul bo'yicha darslik ikki qismdan iborat bo'lib, har bir qism funksiyasi berilib, ilmiy jihatdan olib borildi.

“Texnologiya va uni o'qitish metodikasi” ixtisolik fani darsligida asosiy, tushuntiruvchi va qo'shimcha matnlar mazmuni yoritilishi, ularga qo'yiladigan talablar bayon etildi. Darslikda tasviriy materiallarni jozibali taqdim etish qoidalari keltirildi.

Darslikning ikkinchi qismida fandan etiladigan elektron ta'lim resrslari ahamiyati, afzalliklari va imkoniyatlari ochib ta'lim tizimida modulli o'qitish texnologiyasini qo'llash bo'yicha ilmiy tadqiqot va metodik ishlar tahlili o'tkazilib, tadqiqotlar o'rganildi.

Darslikda pedagogik tizimni modellashtirish imkoniyatlari keltirildi.

Pedagogik texnologiyalar asosida o'quv adabiyotlarini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalardan ekanligi ko'rsatib o'tildi.

Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanidan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun kreativ-modulli texnologiya asosida o‘quv materiallari yaratilib o‘quv jarayoniga tadbiq etish metodikasi ishlab chiqildi. Modulli o‘quv materiallardan foydalanib o‘qitish jarayoni mohiyati ochib berildi. Modulli o‘quv jarayonining har bir bosqichi mazmuni yoritilib, amalga oshiriladigan ishlar keltirildi. Modulli o‘quv materiallaridan foydalanib o‘qitish tashkil qilinganida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nafaqat mustaqil ishlash qobiliyatlari rivojlanadi, balki ularni faollashtirishga o‘z-o‘zini baholashga imkoniyat yaratish mumkinligini asoslab berildi.

III BOB. PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARI VA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI

3.1. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish va o'tkazish metodikasi

Ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqilgan har qanday yangi texnologiya, metodika, metod va o'quv adabiyotlarining o'quv jarayonida ta'sirini o'rganish muxim ahamiyatga ega. Buning uchun pedagogik tajriba sinov ishlarini samarali tashkil etish, o'tkazish va baholash metodikasini ishlab chiqish talab etiladi. Oliy ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan tajriba sinov ishlarining natijasi -bu bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini baholash hisoblanadi.

Baholash – ta'lim jarayoning ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarini aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir [109].

Ta'lim jarayonida bilim va amaliy ko'nikmalarni baholashni amalga oshirishda o'qituvchi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv materialini qay darajada ongli o'zlashtirishi, ularning mehnatga munosabatlari qanday ekanligini aniqlashi va baholashi mumkin.

Baxolash va nazorat orqali pedagog va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rtasida ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining aqliy va amaliy ishlarini boshqarishga imkon beruvchi teskari aloqa o'rnatiladi.

To'g'ri tashkil etilgan va amalga oshirilgan nazorat, shuningdek bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" fani mashg'ulotlarida faoliyatini baholash jarayoni o'z vaqtida tizimli tashkil etilgandagina yaxshi samara beradi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv natijalari va yutuqlarini nazorat qilinishi va baholanishi, ularning o'qishga bo'lgan motivasiyani oshiruvchi ma'lum rag'batlantiruvchi omillardan biri hisoblanadi.

Talabalar faoliyatini nazorat qilishda o'qituvchi ularning muvofaqiyatini baholaydi. Baho albatta ob'yektiv va adolatli bo'lishi kerak. To'g'ri qo'yilgan baho talabaga, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholashga, o'z imkoniyatini ro'yobga chiqarishga yordam beradi, shuningdek bahoning tarbiyaviy roli namoyon bo'ladi.

Bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirishini baxolashda talabalarning yosh va individual xususiyatlari inobatga olinishi kerak. Tabiiyki, sinfning barcha talabalariga bir xil mazmundagi va darajadagi bilimlarni egallashga talablar qo'yiladi. Shu bilan bir qatorda talabalarning tortinchoqlik va uyalish, fikrlash va amaliy faoliyatidagi sustlik, ortiqcha o'ziga ishonish, jismoniy imkoniyatlar kabi sifatlarini ham e'tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, biron bir uzrli sabablarga ko'ra darsga qatnasholmagan talabalarning vaqtinchalik qiynalishlarini ham hisobga olish zarur.

Talabalar o'quv yutuqlarining nazorat va baholanish talablariga ham muvofiq bo'lishi kerak. Nazorat va baholash usullari hamda vositalarining ta'lim mazmuniga, egallashi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar darajasining qo'yilgan o'quv maqsadlariga, bilimlar hajmi va malakalar darajasiga mos kelishi, nazorat natijalarining ob'yektiv to'g'riligi, o'lchov aniqligini ta'minlashi kerak.

Ta'lim oluvchilar bilimini baholashning zamonaviy usullaridan biri –testlar orqali baholashdir.

Test - bilim, qobiliyat, ko'nikma shuningdek xarakter va munosabatni tekshirish jarayoni va vositasidir. Test topshiriqlarini ishlab chiqishda quyidagi talablar qo'yiladi [79]:

- Test topshiriqlarining barcha javoblari haqiqiy javobga yaqin bo'lishi kerak
- Javoblarni ifodalovchi jumlar xajmi deyarli bir xil bo'lishi kerak.
- Javoblar asos bilan uyg'unlashgan hamda grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan bo'lishi kerak.
- Savolning asosi ta'lim oluvchining o'qish natijalariga mos holda uning bilim darajasini baholay oladigan qilib tuzilgan bo'lishi kerak.
- Asos qismining tili ta'lim oluvchining tushunishi uchun mos bo'lishi kerak.
- Javoblarning hech biri sinonim bo'lmasligi kerak.

- Asosda ham, javoblarda ham ikki fikrlilik bo‘lmasligi kerak.
- To‘g‘ri javob bitta bo‘lishi kerak.
- Asos imkon qadar keng mazmunli bo‘lmog‘i kerak.
- Asosda murakkab jummalardan iloji boricha foydalanmaslik kerak.

Shuningdek, ta‘lim jarayonida nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni baholashga mo‘ljallangan test topshiriqlari bir qator talablarga berishini inobatga olib tuzish zarur.

Biz oliy ta‘lim muassasalarida “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” ixtisolik fanidan talabalarining nazariy bilimlarini baholash uchun testlarni ishlab chiqdik.

Talabalarning amaliy ishlarini baholashda esa topshiriqlar va mashqlardan foydalandik.

Mashq-ta‘lim usuli bo‘lib, o‘tilgan o‘quv materiallarini amaliyotda qo‘llash maqsadida, reja asosida ketma –ketlikda amallarni ko‘p marotaba bajarishdan iboratdir.

Bu usuldan foydalanib o‘rgatuvchi va rivojlantiruvchi kabi asosiy funksiyalar amalga oshiriladi.

Mashq usulining afzalligi shundan iboratki, u ko‘nikma va malakalarni samarali shakllanishini ta‘minlaydi.

Mashqlarning maxsus; sharxlangan; yozma; og‘zaki; ishlab chiqarish-mehnat, laboratoriya-amaliy kabi turlari mavjud bo‘lib biz har biriga qisqacha to‘xtalamiz.

O‘quv jarayonini faollashtirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar. Bunday mashqlar mohiyati shundan iboratki, avvalo bu jarayonga eng yaxshi talabalar jalb etiladi, keyin esa o‘quv materialini tushuntirishda butun guruh ishtirok etadi. Faol mashqlar usuli o‘quv mashg‘ulotining yuqori sur‘atini ta‘minlaydi, o‘quv materialini barcha talabalar tomonidan ongli ravishda, mustahkam o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Amaliy mashqlar mehnat qurollaridan, laboratoriya asbob-uskunalaridan (jihozlar, o‘lchov apparatlari) foydalanish malakalarini egallashga imkon

beradi, konstruktorlik-texnik mahoratni rivojlantiradi. Talabalar ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Mehnat mashqlari o'quv va ishlab chiqarish xarakteridagi alohida ishlab chiqilgan tarmoqni tashkil etadi. Ular oddiy va murakkab turlarga bo'linadi: birinchisi-alohida mehnat usullarini bajarish mashqlari, ikkinchisi-ishlab chiqarish – mehnat ishlarini butunligicha yoki ularning talay qismini (stanoklarni sozlash, detal qismlarini tayyorlash va h.k) o'rganishga yo'naltirilgan.

Mashqlar samarali bo'lishi uchun, ular quyidagi bir qator talablarga rioya qilish kerak, ya'ni:

- talabalarni ongli ravishda amaliy faoliyat sifatini oshirishga yo'naltirish;
- talabalar tomonidan bajarilayotgan ish qoidalarini bilish;
- mashq bajarilishi kerak bo'lgan shartlarni ongli ravishda hisobga olish va nazorat qilish;
- erishilgan natijalarga baho berish va tahlil qilish.

Yuqorida keltirilgan qoidalarga tayanib texnologiya va uni o'qitish metodikasi fanidan mashq va topshiriqlarini ishlab chiqdik.

Biz oliy ta'lim muassasalarida "Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi" ixtisoslik fanidan boshlang'ich ta'lim va sport ta'lim yo'nilashlarini modulli o'quv materiallaridan foydalanib modulli o'qitish metodikasi asosida tajriba sinov ishlari o'tkazish uchun modulli o'quv dasturi, metodik tavsiyalar va boshqa ishlanmalarni ishlab chiqdik. Shuningdek oliy ta'lim muassasalari "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" fani o'qituvchilari bilan muhokamalardan o'tkazdik. Muxokama va suxbat natijasi shuni ko'rsatdiki, 82 % Texnologiya va uni o'qitish metodikasi fan o'qituvchilari modulli o'quv dasturi tuzilmasidagi modullarning o'quv maqsadining qo'yilishi, ajratilgan soatlar, modullar bo'yicha egallanadigan bilim va ko'nikmalar tarkibi, modulni o'zlashtirish bo'yicha zaruriy o'quv-uslubiy vositalar, mashg'ulotlarni o'tkazishga beriladigan tavsiyalar, modulli o'qitishda tavsiya qilinadigan faol usullar va axborot texnologiyalar, baholash mezonlari va adabiyotlar, o'quv materiallar

ro'yxati mos kelishini ta'kidladilar, Shuni ta'kidlash joizki, muhokamadan o'tgan tavsiyalarni e'tiborga olib tayyorlangan modulli o'quv dasturi asosida modulli o'quv materiallarini qo'llab o'qitish jarayonini samarali tashkil etish imkonini berdi.

“Texnologiya va uni o'qitish metodikasi » ixtisolik fani bo'yicha modulli o'qitishni jarayonini o'tkazish uchun biz tomondan modulli o'quv materiallari ishlab chiqildi (namunaviy modul 2-ilovada keltirilgan). Modulli o'quv materialida modul o'quv maqsadi, modul yakunida egallanadigan bilim va ko'nikmalar, baholash turi, nazariy materiallar, texnika xavsizligi qoidalari, mashg'ulotlarni o'tkazish texnologik xaritasi, testlar, jihozlar va uskunalarni ishlatish bo'yicha talaba uchun yo'riqnoma va baholash varaqalari kiritilgan, ya'ni modulni mustaqil o'zlashtirish uchun barcha o'quv materiallari berilgan.

Biz tomondan “Texnologiya va uni o'qitish metodikasi” ixtisolik fanini modulli metodika asosida tajriba-sinov natijasini amalga oshirish uchun Oliy ta'lim muassasalari talabalarini innovasion faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirish sohasida tashkil etilgan amaliy faoliyat uchun ob'yekt (tajriba maydoni) sifatida Jizzax, Guliston, Qarshi davlat universitetlari tanlandi. Mazkur oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning 375 nafari tajriba-sinov ishlari uchun respondent etib belgilandi.

Tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichida quyidagi ishlar amalga oshirildi va rejalashtirildi:

- “Texnologiya va uni o'qitish metodikasi” ixtisolik fanini o'qitish bo'yicha boshlang'ich ta'lim va sport ta'lim yo'nalishidan nazorat va tajriba-sinov guruhlarini tanlandi;
- tajriba sinov ishlari bo'yicha “Texnologiya va uni o'qitish metodikasi” ixtisolik fanidan modulli metodika asosida o'qitish jarayonini tashkil etish bo'yicha modulli o'quv dasturi, o'quv materiallari, tarqatma materiallar, o'quv adabiyotlari, elektron darsliklar bilan ta'minlandi va testlar ishlab chiqildi;

- tajriba-sinov o'tkaziladigan maktablarda "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" fani xonalarining, ustaxonalarining moddiy-texnik jihozlanishi, o'quv-uslubiy ta'minotining qanday darajadagi o'rganildi.

Tadqiqotimizning tajriba-sinov ishlari maqsadi va vazifalari quyidagicha belgilandi;

- tanlangan maktablarda "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" ixtisolik fanini modulli o'qitish jarayonni tashkil etish uchun o'quv xonalari va ustaxonalar holatini o'rganish va tayyorlash;

- tajriba-sinov ishlarida ishtirok etayotgan nazorat va tajriba sinov guruhlarida "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" ixtisolik fanini modulli o'qitish va an'anaviy o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib olish, o'qitishni tashkil etish bo'yicha o'qitish jarayonini yo'lga qo'yish bo'yicha turli tavsiyalar, yo'l-yo'riqlar ishlab chiqish va amalda joriy etish;

- modulli o'qitish jarayonida nazariy va amaliy mashg'ulotlarini o'tkazishda faol ta'lim metodlarini qo'llash;

- "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" ixtisolik fanidan talabalarning modulni o'rganish bo'yicha munosabatlarni o'rganish.

Tajriba – sinov ishlarini olib borishda olingan natijalarni samaraliligini, talabalarning bilim va ko'nikmalarini baholashda Jizzax, Guliston, Qarshi davlat universitetlari tanlandi. Mazkur oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning 375 nafari tajriba-sinov ishlari uchun respondent etib belgilandi va ular maqsadli ravishda 182/173 nafar tarzida ikkitadan parallel tajriba sinov va nazorat guruhlarida modulli o'qitish jarayonida faol o'qitish usullaridan foydalanish imkoniyatlari aniqlanib, ularning samaradorligi nazariy asoslanib amaliy jihatdan isbotlandi. Nazorat guruhlarida o'qitish jarayoni amaldagi an'anaviy o'quv dasturi va metodikasiga binoan amalga oshirilgan bo'lsa, tajriba-sinov guruhlarida biz taklif etgan modulli o'quv materiallaridan foydalanib tashkil etiladigan metodika asosida amalga oshirildi.

Nazorat va tajriba-sinov guruhlarining natijalari muntazam tahlil etilib va bir-biri bilan taqqoslanib borildi. Baholash natijalari va maktab o'qituvchilar tomonidan bildirgan fikr-mulohazalar atroflicha muhokama etildi.

Talabalarning bilimi, amaliy ko'nikmasi, topshiriq va mashqlarni mustaqil holda bajarishlarini, ob'yekt va jarayonlarni o'rganish, mehnat usullarini yoki amallarni bajarish qobiliyatlari baholanib borildi.

Shakllangan ko'nikmalarini baholashda berilgan talabalarning amaliy topshiriq yoki mashqni bajarish bo'yicha mustaqil rejalashtirish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish kabi mezonlardan foydalanildi. Yuqorida bayon etilgan tartibda biz nazariy va tajriba-sinov guruhlarini bo'yicha quyidagi paragrafda jadvallar va gistogrammalar hamda metodik statistik bo'yicha eksperiment natijalarini beramiz.

Tajriba-sinovdan olingan natijalarining haqqoniyligini aniqlash uchun, ular matematik statistika (xususan, St'yudent mezonini asosda) metodi bilan qayta ishlandi.

3.2. Tajriba-sinov ishlarining borishi va olingan natijalar tahlili

Talabalarning bilim va malakalarini baholash o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan me'yor va mezonlari asosida amalga oshirilishi kerak. Ushbu me'yor va mezonlarga rioya qilib baholashning ob'yektivligi ta'minlanishi lozim.

Talabalarning texnologiya va uni o'qitish metodikasi fanidan o'quv natijalarini baholashning umumiy me'yorlariga ishni bajarish usullarini to'g'riligi, bajarilgan ish sifati talablariga rioya qilishi; ish unumdorligi; mehnat xavfsizligi talablariga rioya qilish kabilarni kiritish mumkin. Shuni ta'kidlash joizki "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" ixtisoslik fanida asosan talabalarda dastlabki amaliy ko'nikma va malakalar shakllantiriladi.

Nazariy ta'limda talabalar bilimini baholashda quyidagi umumiy mezonlar qo'llanildi: bilimlarning o'zlashtirilganligi (testlar yordamida), mustaqil va erkin fikrlash qobiliyatlari (og'zaki savollar orqali) kabilarni kiradi.

Bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashning asosiy mezonlaridan tashqari talabalarning bilim olish faolligi, qiziqishi, mehnati madaniyati kabi ko‘rsatkichlar ham hisobga olinadi. Biroq mezonlarda aks ettirilgan va rasmiy hujjatlarda qayd etilgan bu umumiy ko‘rsatkichlar texnologiya va uni o‘qitish metodikasi ixtisolik fani o‘qituvchisiga talabaning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda qobiliyatlarini yetarli darajada ob‘yektiv baholash imkonini bermaydi. Real o‘quv jarayoni sharoitida talabalarning savolga ishonch bilan javob berishi, yordamchi savollarga ta’sirchanligi fikrni ifodalay olishi, topshiriqlarni bajarish, asbob va uskunalardan foydalana olish, chizmani tushunish kabilar ham ta’sir etadi.

Baholash qoidasini ishlab chiqishda muhim masalalardan biri - salbiy bahoga munosabatdir. Ba’zi o‘qituvchilar qoniqarsiz baho bilan qo‘rqitadilar, jazolaydilar biroq bu odatda foyda bermaydi. Dangasalik va beparvolikka moyil talabalarga bunday ta’sir etishdan foydadan ko‘ra ko‘proq zarari ko‘p, chunki u eng avvalo o‘qishga qiziqishni sundiradi. Talabaning o‘qishdan ko‘ngli qolish va ezilish hissi butun aqliy faoliyatiga ta’sir etadi.

Biz talabalarning bilim va ko‘nikmalarini baholashda quyidagi qoidalarga rioya qilish bo‘yicha tavsiyalar beramiz:

1. Talabalarni nazorat qilish va baholash paytida ishonch, adolat muhitini yaratish lozim. Talaba va o‘qituvchi bahoning ob‘yektivligi va adolatliligiga doimo ishonishi kerak.
2. Talabalarni darsning barcha bosqichlarida baholash mumkin va kerak: so‘rash jarayonida, yangi materialni tushuntirish vaqtida, mustaqil ish jarayonida, dars oxirida.
3. Javob, topshiriq bajarilishining bahosi talaba uchun kutilmagan bo‘lmasligi kerak. Talaba undan nima talab etilayotgani, uning javoblari, harakatlari baholanadigan ko‘rsatkichlarni aniq bilish huquqiga ega.
4. Talabaga va guruhga qo‘yilayotgan bahoni doimo tushuntirib, izohlash.
5. Talaba baho bilan ichida rozi bo‘lgan va uning ma’nosini tushuntirgandagina o‘zlashtirish bahosi ijobiy rol o‘ynaydi.

6. Past o‘zlashtiruvchan talabalarni tekshirish va baholashda doimo avval o‘rgatish, keyin baholash qoidasiga rioya qilish kerak.

Biz yuqoridagi qoidalarga rioya qilib tajriba sinov ishlarini amalga oshirdik.

“Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” ixtisolik fanini modulli o‘qitish metodikasiga asoslanib, talabalarning shu fandan egallagan bilim va ko‘nikmalari testlar, savollarga bergan javoblari, amaliy mashq va topshiriqlarni bajarishlariga qarab aniqlandi.


Guliston davlat universitetida o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalariga ko‘ra, tajriba va nazorat guruhlaridagi talabalarning natijalari quyidagicha bo‘ldi: Tajriba guruhlarida tajriba boshida 11,4% (5 nafar) talaba yuqori baho olgan bo‘lsa, nazorat guruhlarida tajriba boshida 14,3% (6 nafar) talaba yuqori baho olgan, tajriba oxirida tajriba guruhlarida 25,0% (11 nafar) talaba yuqori baho olib tajriba boshiga nisbatan 13,6% ga ortganligini, nazorat guruhlarida esa o‘zgarmaganligini ko‘rishimiz mumkin (3.2.1-jadval, 3.2.1-diagramma).

Guliston davlat universitetida o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalari

3.2.1-jadval

Ta‘lim muassasasi nomi	Ko‘rsatkichi	Tajriba guruhlarida				Nazorat guruhlarida			
		Tajriba boshida talabalar soni	%	Tajriba oxirida talabalar soni	%	Tajriba boshida talabalar soni	%	Tajriba oxirida talabalar soni	%
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti	Yuqori	5	11,4	11	25,0	6	14,3	6	14,3
	O‘rta	11	25,0	23	52,3	12	28,6	14	33,3
	Past	28	63,6	10	22,7	24	57,1	22	52,4

3.2.1-rasm. Guliston davlat universitetida o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalarining diagrammasi




Qarshi davlat universitetida o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalariga ko‘ra, nazorat va tajriba guruhlaridagi talabalarning natijalari quyidagicha bo‘ldi: Tajriba guruhlarida tajriba boshida 17,0 % (15 nafar) talaba yuqori baho olgan bo‘lsa, nazorat guruhlarida tajriba boshida 14,1% (12 nafar) talaba yuqori baho olgan, tajriba oxirida tajriba guruhlarida 33 % (29 nafar) talaba yuqori baho olib, 16,0 % ga ortganligini, nazorat guruhlarida esa 16,5 % (14 nafar) talaba yuqori baho olib 2,4 % ga ortganligini ko‘rishimiz mumkin.

Qarshi davlat universitetida o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalari

3.2.2-jadval

Ta'lim muassasasi nomi	Ko'rsatkichi	Tajriba-sinov guruhlari				Nazorat guruhlari			
		Tajriba boshida talabalar soni	%	Tajriba oxirida talabalar soni	%	Tajriba boshida talabalar soni	%	Tajriba oxirida talabalar soni	%
Buxoro muhandislik instituti	Yuqori	15	17,0	29	33,0	12	14,1	14	16,5
	O'rta	28	31,8	41	46,6	28	32,9	30	35,3
	Past	45	51,1	18	20,5	45	52,9	41	48,2

3.2.2-rasm. Qarshi davlat universitetida o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalarining diagrammasi




Jizzax davlat pedagogika universitetida o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalariga ko‘ra, nazorat va tajriba guruhlaridagi talabalarning natijalari quyidagicha bo‘ldi: Tajriba guruhlarida tajriba boshida 14,0 % (7 nafar) talaba yuqori baho olgan bo‘lsa, nazorat guruhlarida tajriba boshida 15,2 % (7 nafar) talaba yuqori baho olgan, tajriba oxirida tajriba guruhlarida 24,0 % (12 nafar) talaba yuqori baho olib 10,0 % ga ortganligini, nazorat guruhlarida esa 17,4% (8 nafar) talaba yuqori baho olib 2,2 % ga ortganligini ko‘rishimiz mumkin.

Jizzax davlat pedagogika universitetida o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalari 3.2.3-jadval

Ta'lim muassasasi nomi	Ko'rsatkichi	Tajriba-sinov guruhlari				Nazorat guruhlari			
		Tajriba boshida talabalar soni	%	Tajriba oxirida talabalar soni	%	Tajriba boshida talabalar soni	%	Tajriba oxirida talabalar soni	%
Jizzax politexnika instituti	Yuqori	7	14,0	12	24,0	7	15,2	8	17,4
	O'rta	13	26,0	26	52,0	16	34,8	18	39,1
	Past	30	60,0	12	24,0	23	50,0	20	43,5

3.2.3-rasm. Jizzax davlat pedagogika universitetida o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalarining diagrammasi



Nazorat guruhlarida mashg‘ulotlar an‘anaviy tarzda o‘tkazildi. Tajriba-sinov guruhda texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanini o‘rganish ishlab chiqilgan metodika bo‘yicha olib borildi. O‘quv materialini tuzilmalashtirish va modulli texnologiyani qo‘llagan holda, asosiy e‘tibor loyihalash faoliyati elementlari bo‘lgan amaliy ishlarini bajarishga, umumlashgan namunaviy masalalar va ijodiy loyihalarni yechishga qaratildi.

Javoblar tahlilidan ko‘rinadiki, talabalar ixtisoslik fanlaridan (texnologiya va uni o‘qitish metodikasi) o‘quv materiallarini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan har bir bosqichi bo‘yicha yetarlicha yuqori baholashgan.

Kursni o‘rganishni tashkil etish buyicha o‘tkazilgan so‘rovda ishtirok etgan talabalarning 92% kursning o‘quv materialini tuzilmalashtirish zarurligi va tuzilmaviy-mantikiy sxemalarni ko‘llash, shuningdek so‘rovda ishtirok etgan talabalarning 70% o‘quv materialini o‘rganishning blokli tuzilmasini ma‘qul hisoblangan.

Nazorat va tajriba-sinov guruhlarida talabalarining anketa savollariga, javoblarini solishtirib, quyidagicha hulosalar chiqarish mumkin: nazorat guruhida “Javob berishga qiynalaman” javobining foizi ancha katta, bu esa talabalarning tajriba-sinov guruhi talabalarini ta‘lim olgan metodika bilan tanish emasligini ko‘rsatadi. Ammo “Ha” javoblarning foizi katta bo‘lishi ishlab chiqilgan

metodikadan foydalanish zarurligi haqida guvohlik beradi. Anketaning ochiq savoliga (kurs materialini o'zlashtirish bo'yicha nazoratni tashkil etishga o'z munosabatingizni bildiring) talabalarning deyarli barchasi davriy nazorat kerak, chunki u talabalarning intizomini oshiradi, o'z-o'ziga baho berishga imkon beradi va o'quv materialini mazmunini yaxshi o'zlashtirishga yordam beradi, deb javob berishdi. So'rovnomada ishtirok etgan talabalarning 67,3% test nazorati va topshiriqlarni individuallashtirish zarurligi haqida fikr bildirishgan.

Ixtisoslik fanlarni o'rganishda reyting nazoratni tashkil etish zarurligi haqidagi savolga so'rovnomada ishtirok etgan talabalarning 88% dan ortig'i ijobiy javob berishdi va aniqlik kiritishdi. Ularning fikricha, reyting nazorat intizomlashtiradi va talabaning bajarilgan ishi uchun ma'suliyatni oshiradi.


Nazorat va tajriba guruhlaridagi talabalarning barcha ko'rsatkichlar bo'yicha umumiy natijalari quyidagicha bo'ldi: Tajriba guruhlarida tajriba boshida 14,8 % (27 nafar) talaba yuqori baho olgan bo'lsa, nazorat guruhlarida tajriba boshida 14,5 % (25 nafar) talaba yuqori baho olgan, tajriba oxirida tajriba guruhlarida 28,6 % (52 nafar) talaba yuqori baho olib, 13,8 % ga ortganligini, nazorat guruhlarida esa 16,2 % (28 nafar) talaba yuqori baho olib 1,7 % ga ortganligini ko'rishimiz mumkin; tajriba guruhlarida tajriba boshida 28,6 % (52 nafar) talaba o'rta baho olgan bo'lsa, nazorat guruhlarida tajriba boshida 32,4 % (56 nafar) talaba o'rta baho olgan, tajriba oxirida tajriba guruhlarida 49,5 % (90 nafar) talaba o'rta baho olib 20,9 % ga ortganligini, nazorat guruhlarida esa 35,8% (62 nafar) talaba o'rta baho olib 3,4 % ga ortganligini ko'rishimiz mumkin; tajriba guruhlarida tajriba boshida 56,6 % (103 nafar) talaba past baho olgan bo'lsa, nazorat guruhlarida tajriba boshida 53,2 % (92 nafar) talaba past baho olgan, tajriba oxirida tajriba guruhlarida 22,0 % (40 nafar) talaba past baho olib 34,6 % ga kamayganligini, nazorat guruhlarida esa 48,0% (83 nafar) talaba past baho olib 5,2 % ga kamayganligini ko'rishimiz mumkin (3.2.4-jadval, 3.2.4-diagramma).

Tajriba-sinov ishi barcha ob'yektlari deyarli bir xil pedagogik natijalarni ko'rsatdi.

Tajriba-sinov o‘tkazilgan oliy ta’lim muassasalari bo‘yicha umumiy natijalar
3.2.4-jadval

Ta’lim muassasasi nomi	Ko‘rsatkichi	Tajriba-sinov guruhlari				Nazorat guruhlari			
		Tajriba boshida talabalar soni	%	Tajriba oxirida talabalar soni	%	Tajriba boshida talabalar soni	%	Tajriba oxirida talabalar soni	%
Barcha OTMlarida	Yuqori	27	14,8	52	28,6	25	14,5	28	16,2
	O‘rta	52	28,6	90	49,5	56	32,4	62	35,8
	Past	103	56,6	40	22,0	92	53,2	83	48,0

3.2.4-rasm. Tajriba-sinov o‘tkazilgan oliy ta’lim muassasalari bo‘yicha umumiy natijalar diagrammasi



Tadqiqot natijalari Qarshi davlat universiteti, Guliston davlat universiteti va Jizzax davlat pedagogika universitetlarining Boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish ta’lim yo‘nalishlarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanini o‘qitish orqali o‘quv materillarini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoniga joriy etildi.

Tajriba–sinov ishi barcha ob’ektlari deyarli bir xil pedagogik natijalarni ko‘rsatdi.

O'tkazilgan tajriba-sinov natijalariga asoslangan holda talabalarning tajriba va nazorat guruhlaridagi o'rtacha o'zlashtirishlarini Styudentning matematik-statistika metodi yordamida tahlil qildik.

Tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari va talabalar sonini mos ravishda X_i va n_i lar shuningdek nazorat guruhidagini esa Y_j va n_j lar orqali belgilab olib, quyidagi statistik guruhlangan variasion qatorlarga ega bo'lamiz, shuningdek, yuqori ko'rsatkichni 5 ball (80 % dan yuqori), o'rta ko'rsatkichni 4 ball (55 % dan 80 % gacha) va past ko'rsatkichni 3 ball (55 % dan kam) bilan belgilaymiz.

Statistik hisob-kitoblarni bajarishda nazorat va o'lchov materiallariga muvofiq ballarda ifodalangan nazorat va tajriba guruhleri ishtirokchilarining kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini baholash natijalaridan foydalanildi.

Styudent statistikasi orqali tekshiramiz.

Bu ma'lumotlar asosida quyidagi belgilanishlar kiritildi:

Belgilanishlar:

x_i – tajriba guruhiga mos keladigan baholar, $i = 1 \dots 3$;

y_i – nazorat guruhiga mos keluvchi baholar;

\bar{x} va \bar{y} – tajriba va nazorat guruhleri uchun mos keladigan o'rtacha arifmetik qiymatlar.

$$\bar{x} = \frac{\sum x_i n_i}{n} ; \quad \bar{y} = \frac{\sum y_i m_i}{m} , \quad (1)$$

bu yerda: $x_i, y_i = 3, 4, 5$ qiymatli baholarni mos ravishda qabul qiladi.

m, n – tajriba va nazorat guruhidagi talabalar soni.

m_i, n_i – mos baholarga nisbatan talabalar soni.

O'quv jarayoni samaradorligini baholovchi o'rtacha qiymat tajriba va nazorat guruhleri baholarining o'rtacha arifmetik qiymatlari nisbatidir, ya'ni samaradorlik koeffitsiyenti quyidagicha olindi:

$$\eta = \frac{\bar{x}}{\bar{y}} . \quad (2)$$

O'rtacha kvadratik og'ish kattaliklari:

$$S_x^2 = \frac{1}{n} \sum_i n_i \cdot (x_i - \bar{x})^2; \quad S_y^2 = \frac{1}{m} \sum_i m_i \cdot (x_i - \bar{x})^2 \quad (3)$$

Standart og'ish kattaliklari:

$$S_x = \sqrt{S_x^2}; \quad S_y = \sqrt{S_y^2} \quad (4)$$

O'rtacha qiymatlarni aniqlash ko'rsatkichi:

$$C_x = \frac{S}{\sqrt{n \cdot x}} \cdot 100\%; \quad C_y = \frac{S}{\sqrt{m \cdot x}} \cdot 100\% \quad (5)$$

Bosh to'planning noma'lum o'rta qiymatlari uchun ishonch oraliqlari:

$$a_x \in \left[\bar{x} - \frac{t}{\sqrt{n}} \cdot S_x; \bar{x} + \frac{t}{\sqrt{n}} \cdot S_x \right];$$

$$a_y \in \left[\bar{y} - \frac{t}{\sqrt{m}} \cdot S_y; \bar{y} + \frac{t}{\sqrt{m}} \cdot S_y \right], \quad (6)$$

bu yerda: t – normallashtirilgan chetlanish ishonch ehtimoli R asosida aniqlanadi. Masalan, R=0,95 bo'lganda t=1,96 ga teng.

O'rtacha qiymatlar tengligi haqidagi $H_0: a_x = a_y$ farazni ilgari surib, unga qarama-qarshi $H_1: a_x \neq a_y$ ekanligini yuqoridagi ma'lumotlar asosida Student statistikasi orqali tekshiramiz.

$$T_{m,n} = \frac{|\bar{y} - \bar{x}|}{\sqrt{\frac{S_x^2}{n} + \frac{S_y^2}{m}}} \quad (7)$$

Agar $T > T_{\alpha} = t$ bo'lsa, N_0 faraz rad etilib, N_1 faraz olinadi.

Quyida ushbu ma'lumotlarga asoslanib, har bir o'quv yili uchun hisob ishlarini olib boramiz va ularning qiyosiy tahlilini jadvallarda keltirdik.

m=182, n=173 – tajriba va nazorat guruhidagi o'quvchilar soni.

b – tajriba boshida; o – tajriba oxirida

Tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari: tajriba boshida.

$$\begin{cases} X_i & 5; & 4; & 3; \\ n_i & 27; & 52; & 103 \end{cases} \quad n = \sum_{i=1}^3 n_i = 182$$

Nazorat guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

$$\begin{cases} Y_j & 5; & 4; & 3; \\ n_j & 25; & 56; & 92 \end{cases} \quad n = \sum_{j=1}^3 n_j = 173$$

Statistik tahlilni har ikki guruh bo'yicha o'rtacha o'zlashtirishlarini hisoblab, taqqoslashdan boshlaymiz. O'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari quyidagi natijalarni berdi:

$$\bar{x}_6 = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^{n=3} p_i x_i = \frac{5 * 27 + 4 * 52 + 3 * 103}{182} = 3.6$$

$$\bar{y}_6 = \frac{1}{n} \sum_{j=1}^{n=3} p_j y_j = \frac{5 * 25 + 4 * 56 + 3 * 92}{173} = 3.6$$

$$\text{Samaradorlik koeffisienti: } \eta = \frac{\bar{x}_6}{\bar{y}_6} = \frac{3.6}{3.6} = 1,00$$

Tajriba boshida tajriba va nazorat guruxlarida o'zlashtirish koefisientlari bir xil ekanligini ko'rishimiz mumkin.

O'zlashtirishni aniqlash jarayonida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklarni aniqlash maqsadida dastlab o'rtacha kvadratik va standart xatoliklarni aniqlaymiz.

O'rtacha kvadratik xatoliklar:

$$S_x^2 = \sum_{i=1}^3 p_i x_i^2 - \bar{x}^2 = 0,5519$$

$$S_y^2 = \sum_{j=1}^3 P_j Y_j^2 - \bar{Y}^2 = 0,5519$$

$$S_x = \sqrt{0,5519} = 0.7429; \quad S_y = \sqrt{0,5519} = 0.7429$$

O'rtacha qiymatlar aniqlanish ko'rsatkichlari:

$$C_x = \frac{S_x}{\sqrt{n} \cdot x} \cdot 100\% \approx 1.56\%$$

$$C_y = \frac{S_y}{\sqrt{n} \cdot y} \cdot 100\% \approx 1.56\%$$

Demak, tajriba va nazorat guruxlaridagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi bir xil ekan.

Ushbu hisob kitoblarni tajriba oxirida talabalarning kartografik kompetentligini rivojlanganligini ko'rib chiqamiz ($m = 182$, $n = 173$ – tajriba va nazorat guruhidagi talabalar soni):

Tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari: tajriba oxirida.

$$\begin{cases} X_i & 5; & 4; & 3; \\ n_i & 52; & 90; & 40 \end{cases} \quad n = 182$$

Nazorat guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

$$\begin{cases} Y_j & 5; & 4; & 3; \\ n_j & 28; & 62; & 83 \end{cases} \quad n = \sum_{j=1}^3 n_j = 173$$

Statistik tahlilni har ikki guruh bo'yicha o'rtacha o'zlashtirishlarini hisoblab, taqqoslashdan boshlaymiz. O'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari quyidagi natijalarni berdi:

$$\bar{x}_o = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^{n=3} p_i x_i = \frac{5 * 52 + 4 * 90 + 3 * 40}{182} = 4.07$$

$$\bar{y}_o = \frac{1}{n} \sum_{j=1}^{n=3} p_j y_j = \frac{5 * 28 + 4 * 62 + 3 * 83}{173} = 3.67$$

$$\text{Samaradorlik koeffisienti: } \eta = \frac{\bar{x}_o}{\bar{y}_o} = \frac{4.07}{3.67} \approx 1,11$$

$$\text{O'rtacha o'zlashtirish koeffisienti: } \left(\frac{4.07}{3} - \frac{3.67}{3} \right) * 100 = 13.3\%$$

Tadqiqot natijasida tajriba-sinov ishlari nihoyasida tajriba guruhidagi talabalrning egallagan bilim va ko'nikmalari darajasi nazorat guruhiga nisbatan 1,11 barobar yuqori, o'rtacha o'zlashtirish koeffisienti 13.3 % ga yuqori ekanligi aniqlandi.

Agar tajriba boshiga nisbatan taqqoslaydigan bo'lsak:

$$\text{tajriba guruhida: } \eta = \frac{\bar{x}_o}{\bar{x}_g} = \frac{4.07}{3.6} \approx 1,13$$

$$\text{nazorat guruhida: } \eta = \frac{\bar{y}_o}{\bar{y}_g} = \frac{3.67}{3.6} \approx 1,019$$

samaradorlikga erishilgan.

O'zlashtirishni aniqlash jarayonida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklarni aniqlash maqsadida dastlab o'rtacha kvadratik va standart xatoliklarni aniqlaymiz.

O'rtacha kvadratik xatoliklar:

$$S_x^2 = \sum_{i=1}^3 p_i x_i^2 - \bar{x}^2 = 0,505$$

$$S_y^2 = \sum_{j=1}^3 P_j Y_j^2 - \bar{Y}^2 = 0.548$$

$$S_x = \sqrt{0.505} = 0.711; \quad S_y = \sqrt{0.548} = 0.740$$

O'rtacha qiymatlar aniqlanish ko'rsatkichlari:

$$C_x = \frac{S_x}{\sqrt{n} \cdot x} \cdot 100\% \approx 1.38\%$$

$$C_y = \frac{S_y}{\sqrt{n} \cdot y} \cdot 100\% \approx 1.56\%$$

Demak, tajriba guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi aniqligi nazorat guruhidan kichik ekan.

Endi ikkita bosh to'planning noma'lum o'rta qiymatlariga o'xshashligini hisobga olib Styudentning tanlanmali mezoni asosida nolinch gipotezani tekshiramiz:

$$H_0 : \mu = \mu_y$$

Shunga asosan quyidagi hisoblanishni bajaramiz:

$$T_{x,y} = \frac{\bar{x} - \bar{y}}{\sqrt{\frac{S_x^2}{n} + \frac{S_y^2}{m}}} = \frac{4.07 - 3.67}{\sqrt{\frac{0,505}{176} + \frac{0.548}{170}}} = 7.116$$

Styudent mezoni asosida erkinlik darajasini quyidagi formula orqali hisoblaymiz:

$$k = \frac{\left(\frac{S_x^2}{n} + \frac{S_y^2}{m}\right)^2}{\frac{\left(\frac{S_x^2}{n}\right)^2}{n-1} + \frac{\left(\frac{S_y^2}{m}\right)^2}{m-1}} = \frac{\left(\frac{0.505}{176} + \frac{0.548}{170}\right)^2}{\frac{\left(\frac{0.5051}{176}\right)^2}{176} + \frac{\left(\frac{0.548}{170}\right)^2}{170}} = \frac{0,0000406896}{0,000000118} = 344,827$$

ushbu ehtimollik uchun statistik alomatning qiymatdorlik darajasini $\alpha=0,05$ deb olsak, u holda $r=1-\alpha=0,95$ ga hamda erkinlik darajasi $k=344,827$ ga teng. Styudent funksiyasi taqsimot jadvalidan ikki tomonlama mezonning kritik nuqtasi:

$$t_{1-\frac{1-p}{2}}(k) = t_{1-\frac{1-0,95}{2}}(344,827) = t_{0,975}(344,827) = 1,96$$

Bundan ko‘rinib turibdiki, statistikaning tanlanma qiymati kritik nuqtadan katta ekan. Bundan Styudentning tanlanma mezonini:

$$T_{x,y} = 7.116 > 1,96 \text{ ga teng.}$$

Demak, bosh o‘rtacha qiymatlar tengligi haqidagi N_0 nolinch gipoteza rad etiladi. Buni 95% ishonchlik bilan aytish mumkinki, tajriba-sinov guruhlaridagi o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari nazorat guruhlaridagi o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlaridan yuqori bo‘ldi.

Endi baholashning samaradorlik ko‘rsatkichini aniqlash uchun ishonchli intervalni topamiz:

$$\Delta_x = t_\gamma \cdot \frac{S_x}{\sqrt{n}} = 1,96 \cdot \frac{0,711}{\sqrt{176}} \approx 0,11$$

$$\Delta_y = t_\gamma \cdot \frac{S_y}{\sqrt{n}} = 1,96 \cdot \frac{0,740}{\sqrt{170}} \approx 0,1$$

ga teng. Topilgan natijalardan tajriba guruhi uchun ishonchli intervalni topsak: $\bar{X} - \Delta_x \leq a_x \leq \bar{X} + \Delta_x$


$$4.07 - 0.11 \leq a_x \leq 4.07 + 0.11$$

$$3.96 \leq a_x \leq 4.18$$

Nazorat guruhi uchun ishonchli interval: $\bar{Y} - \Delta_y \leq a_y \leq \bar{Y} + \Delta_y$

$$3.67 - 0.1 \leq a_y \leq 3.67 + 0.1$$

$$3.57 \leq a_y \leq 3.77$$



Bundan $\alpha=0,05$ qiymatdorlik darajasi bilan aytish mumkinki, tajriba guruhidagi o‘rtacha o‘zlashtirish nazorat guruhidagi o‘rtacha o‘zlashtirishdan yuqori va oraliq intervallari ustma-ust tushmayapti. Demak, matematik-statistik tahlilga asosan, yaxshi natijaga erishilgani ma’lum bo‘ldi.

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko‘rsatkichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma’lum $\bar{X}=4.07$; $\bar{Y}=3.67$; $\Delta_x=0.11$, $\Delta_y=0.1$; ga teng.

Bundan sifat ko‘rsatkichlari:

$$K_{yc6} = \frac{(\bar{X} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{4.07 - 0.11}{3.67 + 0.1} = \frac{3.96}{3.77} = 1,05 > 1;$$

$$K_{6d6} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (4.07 - 0,11) - (3.67 - 0,1) = 0,39 > 0;$$

Olingan natijalardan o‘qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko‘rish mumkin.

Demak, bosh o‘rtacha qiymatlar tengligi haqidagi H_0 nolinchgi gipoteza rad etilib, H_1 gipoteza qabul qilinadi. 90 % ishonchlik bilan aytish mumkinki, tajriba-sinov guruhlaridagi talabalarning o‘quv materiallarini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlanganlik ko‘rsatkichlari har doim nazorat guruhlaridagi ko‘rsatkichlaridan yuqori bo‘ldi. Bundan, joriy qilingan ta’lim samarali ekanligi haqidagi xulosa kelib chiqadi.

Taqdim etilgan ma’lumotlarga asoslanib, biz nazorat guruhida olingan natijalarning ozgina va tajriba-sinovdan so‘ng tajriba guruhi natijalarining sezilarli o‘zgarishini ta’kidlaymiz. Yakuniy tashxisdan keyin nazorat guruhi va tajriba guruhi o‘rtasidagi katta farq talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik jarayonida tasdiqlangan pedagogik shart-sharoitlarning samaradorligini ko‘rsatadi (3.2.5-jadval).

Tajriba-sinov ish jarayonida olingan natijalar o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlash modelining ishlashi uchun ushbu ishda nazariy jihatdan asoslanganligini isbotladi.

Miqdoriy mezonlar ko'rsatkichlari

3.2.5-jadval

	Ko'rsatkichlar	Tajriba boshida		Tajriba oxirida	
		Tajriba-sinov guruhi m=182	Nazorat guruhi n=173	Tajriba-sinov guruhi m=182	Nazorat guruhi n=173
.	O'rtacha arifmetik qiymat	3,60	3,60	4.07	3.67
.	Samaradorlik ko'rsatkichi	1,0		1,11	
.	O'rtacha qiymat ishonch oralig'i	[3,59;3,61]	[3,59;3,61]	[3,96;3,18]	[3.57;3,77]
.	O'rtacha qiymat standart xatolik	0.7429	0.7429	0,711	0,74
.	Styudent statistikasi (T)	0.37(0.37<1,96)		7.116 (7.116 >1,96)	
.	Ko'rsatkichlar xulosasi	N0 gipoteza qabul qilinadi		N1 gipoteza qabul qilinadi	

Tadqiqotimiz natijasida, barcha tajriba-sinov maydonchalari sifatida tanlab olingan ta'lim muassasalarida, tajriba guruhidagi o'quvchilarning o'quv materiallarini loyihalash ko'nikmalarini rivojlanganlik darajalarining samaradorlik ko'rsatkichi 1.11 barobarga, o'rtacha o'zlashtirish koeffisienti 13.3 % ga yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa olib borilgan tadqiqot ishining samarali ekanligini ko'rsatadi.

III-bob bo'yicha xulosalar

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga o'qitiladigan "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" fanini o'qitish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini o'tkazish uchun modulli o'quv dasturi ishlab chiqildi. Unda modullarning o'quv maqsadining qo'yilishi, ajratilgan soatlar, modullar bo'yicha egallanadigan bilim va ko'nikmalar tarkibi, modulni o'zlashtirish bo'yicha zaruriy o'quv-uslubiy vositalar, mashg'ulotlarni o'tkazishga beriladigan tavsiyalar,

modulli o'qitishda tavsiya qilinadigan faol usullar va axborot texnologiyalar, baholash mezonlari va adabiyotlar, o'quv materiallar ro'yxati aniq ko'rsatib berildi.

“Texnologiya va uni o'qitish metodikasi” ixtisolik fani bo'yicha modulli metodika asosida nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun har bir mavzu bo'yicha o'quv materiallari, muammoli savollar va topshiriqlar, talabalar bilimni baholash uchun testlar va nazorat savollari ishlab chiqildi.

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasi shuni ko'rsatdiki, “Texnologiya va uni o'qitish metodikasi” ixtisolik fanini o'qitishda tajriba guruhida nazorat guruhiga qaraganda “a'lo” baho olgan talabalar soni 19 % ga, “yaxshi” baho olganlar esa 14 % ga ortgan, “qoniqarli” baho olgan talabalar soni esa, nazorat guruhiga nisbatan 27 % ga, “qoniqarsiz” baho olganlar esa 5 % ga kamaygan.

Demak, tajriba-sinov guruhlarida “qoniqarsiz” va “qoniqarli” baho olganlar soni nazorat guruhlariga nisbatan kamaygan.

UMUMIY XULOSALAR

Texnologiya va uni o‘qitish metodikasidan o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish muammolari quyidagi xulosalar qilish imkonini berdi:

1. Tadqiqot ishlarni o‘rganish va tahlili asosida zamonaviy ta’lim sharoitida “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” ixtisolik fani uchun darsliklar va materiallarining ishlab chiqish muammolari yetarli darajada o‘rganilmaganligi shuningdek, “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” ixtisolik fanidan pedagogik texnologiyalar asosida o‘quv materiallari va qo‘llanmalarini yaratish hamda amalda joriy etish metodikalari ishlab chiqilmaganligi va ilmiy-nazariy jihatdan asoslanmaganligi ko‘rsatib o‘tildi..

2. Darslik to‘g‘risida pedagog olimlar fikr va muloxazalari, o‘quv adabiyotlarini yaratish muammolariga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari taxlil qilindi va oliy ta’lim muassasalari uchun “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi”dan o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish ehtiyoji yuzaga kelganligi aniqlandi.

3. “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” darsliklari talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalar, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi, mazmunida mehnat usullarining yoritilishi, talabalarni kasbga yo‘naltirishga hamda mustaqil ta’lim olishga imkoniyat yaratishi, egallagan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashni ta’minlashi, pedagogik texnologiyalar hamda o‘z-o‘zini baholash metod va materiallarini o‘zida qamrab olishi kerakligi asoslandi .

4. Oliy ta’lim muassasalari uchun “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” darsligini yaratishda ularning tuzilishi, hamda mazmuniga qo‘yiladigan talablar mohiyati yoritib berildi.

5. O‘quv adabiyotlarni modellashtirishga qaratilgan ilmiy ishlarini o‘rganish va tahlil qilish natijasida pedagogik va axborot texnologiyalari asosida “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” darsligining modeli yaratildi va uning komponentlarining har birining mohiyati ochib berildi.

5. Texnologiya va uni o‘qitish metodikasidan kreativ-modulli texnologiya asosida darslik va o‘quv materiallarini yaratish metodikasi ishlab chiqildi. Talabalari uchun modulli o‘quv materiallari ishlab chiqildi va ta’lim jarayoniga tatbiq etildi.

6. Modulli o‘quv materiallaridan foydalanib “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi ixtisolik fani” ni o‘qitish texnologiyasi ishlab chiqildi va oliy ta’lim muassasalarida tajriba sinov ishlari olib borildi.

7. Texnologiya va uni o‘qitish metodikasini modulli o‘quv materiallaridan foydalanib bo‘yicha o‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinov natijalari matematik statistik metodlari shartlariga ko‘ra ishonchli ekanligini ko‘rsatdi va ta’lim sifati hamda samaradorligini oshirish mumkinligi isbotladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. Toshkent – “O'zbekiston” – 2018 y. – 75 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni. Toshkent sh., 2020 yil 23 sentyabr', O'RQ-637-son.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: “O'zbekiston” NMIU. 2018 y. –592 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent – “O'zbekiston” – 2016 y. – 61 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: “O'zbekiston”. 2017 y. – 104 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent. “O'zbekiston”. 2021 y. – 464 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4884-sonli Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 iyundagi “Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5099-sonli Qarori

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli Qarori
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli Qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 iyundagi 2020/2021 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida” gi PQ-4749 sonli Qarori.
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Makamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli Qarori bilan tasdiqlangan umumiy o‘rta ta’limning kasbiy fanlar bo‘yicha malaka talablari asosida tuzilgan o‘quv dasturi. Texnologiya, tasviriy san’at, chizmachilik, musiqa madaniyati, jismoniy tarbiya (1-9-sinflar). Toshkent, 2017 y.
16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Makamasining 2018 yil 24 iyuldagi “Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 569-son Qarori.
17. 5112100-Texnologik ta’lim ta’lim yo‘nalishining malaka talablari. O‘zR OO‘MTVning 14.08.2020 yildagi buyruq № 418.
18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-sonli Qarori.
19. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2020 yil 30 iyundagi 357-sonli buyrug‘i, 1-ilovasi.
20. . Antonova S. G. i dr. Redaktorskaya podgotovka izdaniy: Uchebnik //Antonova S.G., Vasil’yev V.I., Jarkov I.A., Kolan’kova O.V., Lenskiy B.V.,

Ryabinina N.Z., Solov'yev V.I., Pod obщ. red. Antonovoy S.G., d.f.n. –M.: Izd-vo MGUP, 2002. –468 s.

21. 100. Tolipov O'. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umumehnat va kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari. Doktorlik dissertasiyasi. Toshkent. 2004.

22. 101. Toshev A.I. Mehnat ta'limida "Yashil qo'riqchilar" va "Posponlar" boshlang'ich sinf o'quvchisilar uyushmalari asosida ekologik tarbiya berish. Uzluksiz ta'lim T. 2008. № 3 85-89 betlar

23. 102. Toshqulov A.X. "Oliy ta'lim: yuksalish yo'lidagi muhim qadamlar" "Yangi O'zbekiston" gazetasi. 2021 yil 31 dekabr'. № 266 (522). – 1-5 b

24. Abduquddusov O. Sovershenstvovaniye metodiki obucheniya predmetu sel'skoxozyaystvennyye mashiny: Avtoref. dis....kand. ped.nauk.-Kazan'.: 1984 g.-13 s.

25. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. Toshkent. 2009. -131 bet.

26. Abduquddusov O.A. Kasbiy ta'lim va ilg'or texnologiyalar // J. Xalq ta'limi. –2000 y. -№5. - B. 29–33.

27. Abduquddusov O. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashga integrativ yondashuv. - T.: Fan, 2005 y. – 160 b.

28. Abduquddusov O. Mehnat ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda maxsus fanlardan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish. - T.: TDPI, 1992 y. – 46 b.

29. Abduquddusov O.A. Kasbiy ta'limda asosiy o'quv materialini o'rganish texnologiyasi // "O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sifatini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari" resp. il.-amaliy konf. materiallari. –T., 2006. –B. 7-8.

30. Avliyakov N.X., Musayeva N.N. Modulli o'qitish texnologiyalari. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2007 y. – 97 b.

31. Avliyaqulov N.X. O'qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyalar amaliy asoslari. Buxoro. 2001 98 bet.

32. Avliyaqulov N.X., Musayeva N.N. Kasbiy fanlarni modulli o'qitish texnologiyasi. T., Yangi asr avlodi. 2006.
33. Adizov B. O'quv material va uning shakllari. Uzluksiz ta'lim T. 2006. № 1, 3-8 b
34. Azimova E. Umumiy o'rta ta'lim tizimida "Mehnat ta'limi" va "Chizmachilik" o'quv fanlari mazmunini integrasiyalash. Xalq ta'limi T-2008 № 3 117-120 betlar.
35. Ayvazyan S.A., Yenyukov I.S., Meshalkin L.D. Prikladnaya statistika. – M.: Finansy i statistika, 1983. – 471 s.
36. Akmalov A.A. Matematika ta'limida tarixiy materiallarni tanlash mezonlari va ulardan foydalanish metodikasi. Nomz diss. Avtoreferati. T.-2008.24 b.
37. Al'djanova I. O'quv portfoliosi – bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish vositasi sifatida // Pedagogik ta'lim j. – T.: 2012 y, 4 - son. – 46 b.
38. Al'muxambetov B. A. Kakim my vidim sovremennyyu uchebnyk. "Uchebnyk tret'yego tysyachaletiya: sozdaniye, izdaniye, rasprostranniye" 5-7 iyunya 2003.- Almaty: Atamura. S. 89-94.
39. Antonova S. G. va Tyurina A. G. Novoye pokaleniye uchebnoy literatury: teoreticheskiye i metodicheskiye predposylki // Univ. Kniga. 2000 №8. s. 15-19. Gosudarstvennyye obrazovatel'noye standarty vysshego profes-sional'nogo obrazovaniye-osnova sodержaniya uchebnykh izdaniy // Tam je. №9 s. 19-29; Sistema uchebnykh izdaniy dlya vysshego professionalnogo obrazovaniya. // Tam je. 2001. №1-2, s. 26-30, 34-37.
40. Aripov I.Yu. Boshlang'ich sinf o'quvchisilarni mehnat ta'limi jarayonida badiiy hunarmandchilik kasblariga yo'naltirish. Uzluksiz ta'lim. T. 2004 № 1 106-110 betlar.
41. Askarov Ye.S. Uchebnyye posobiya o nauchnoy rabote // Uchebnyk tret'yego tysyacheletiya: Materialy III Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii. 5-7 iyunya 2003.– Almaty, Atamura, 2003. – 76 s.

42. Axliddinov R.Sh. O‘zbekistonda oliy ta‘lim muassasalari uchun o‘quv dasturlarini yaratishdagi izlanishlar. DTS asosidagi o‘quv dasturlari: muammolar, izlanishlar, yechimlar, seminar materiallari T.2002 17-24 bet.
43. Axmedjanov M.M., To‘xtayeva Z.Sh. Didaktik vositalar majmuasi. O‘quv qo‘llanma. T.: “Fan va texnologiyalar”, 2008 y. – 100 b.
44. Axmedova M.T. O‘quv amaliyotidan modulli o‘quv qullanma. Xalq ta‘limi. Toshkent. 2003 №6- 155-159 bet
45. Ashurov N.R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisilarni mehnat va kasbga tayyorlashni takomillashtirishda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik sharoitlari. Nom.diss. Toshkent – 2007 yil.
46. Ashurova S.Yu. Yengil sanoat yo‘nalishlari bo‘yicha kichik mutaxassislar tayyorlashda maxsus fanlarni modulli o‘qitishning ilmiy-uslubiy asoslari: Ped.fan.nom.diss. avtoreferati. –T.: O‘KXTRI, 2005.- 21 b.
47. Bepal’ko V.P. Teoriya uchebnika. Didakticheskiy aspekt. –M.: Pedagogika, 1988. –26 s.
48. G‘afforov A.X. Maxsus fanlardan zamonaviy o‘quv-uslubiy adabiyotlar yaratish va amalda joriy etish metodikasi. Nomzodlik dissertasiya avtoreferati. T.- 2007. 22 b.
49. Grebenev I.V. Didaktika predmeta i metodika obucheniya. // J. Pedagogika, – 2003. – №1. S. 45-46.
50. G‘ulomov S., Nazirov E., Xalilov N. O‘quv adabiyotlarini yaratish va uni baholash metodlari. – T.: 1998. DITAF. 40 b.
51. Daminov F. Izika ta‘limini kreativ-modulli texnologiya asosida takomillashtirish. T. 2008. Nom.diss. avtoreferati.
52. Doblavev L.P. Smyslovaya struktura uchebnogo teksta i problemy yego ponimaniya. M.: Pedagogika, 1982. – 176 b.
53. Doneyev B.B. Mehnat ta‘limi o‘qituvchisi pedagogik faoliyatini nazorat qilishning uslubiy asoslari. Nom.diss. avtoreferati. Toshkent 2008 yil. 24 bet.

54. Jumayeva N. Boshlang'ich sinf o'quvchisilarda mehnat ko'nikmalari shakllangan darajasini aniqlashning didaktik masalalari. Uzluksiz ta'lim. T. 2004 № 1 93-98 bet.
55. Jo'rayeva B. Mehnat ta'limi o'qituvchilarining texnologik tayyorgarligini takomillashtirish to'g'risida. Ta'lim muammolari. 2008 yil № 1 68-69 betlar.
56. Ibragimov X.I., Toyloqov I.I. Yangi avlod darsliklarini yaratishning didaktik tamoyillari. Uzluksiz ta'lim. T.2004. №1. 9-15b.
57. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish.: Avtoref. diss. ... dokt. ped. nauk. - M.: 2017 y. – 39 b.
58. Izbullayeva G.V., Rasulova Z.D. Mehnat ta'limi o'qituvchisi kasbiy kompetentligini rivojlantirishda psixologik yondashuv // "Psixologiya". № 1. Buxoro, 2019 y.–36-40 b.
59. Inoyatova M.E. O'zbek alifbo darsliklarining tarixiy taraqqiy bosqichlari va didaktik asoslari. 13.00.01. Toshkent-2000
60. Islomov I.N. Texnologiya mashg'ulotlarida boshlang'ich sinf o'quvchisilar dizaynerlik ijodkorligini rivojlantirishning pedagogik asoslari. Nom.diss. avtoreferati.Toshkent – 2005 yil
61. Ismoilova Z.K. Talabalarning kasbiy pedagogik malakalarini shakllantirish.: Avtoref. diss. ... ped. fan. nom. - T.: 2000 y. – 18 b
62. Yo'ldoshev O'.J.. O'quv materialini bayon qilishga tarixiy yondashish Didaktik prinsip sifatida. Nom.diss. avtoreferati Toshkent – 2007.
63. Kanke V.A., Paxomov N.N. Filosofskiy zametki na polyax uchebnika // Vyssh.Obrazovaniye v Rossii.-2001. -№2. -S. 22.
64. Krayevskiy V.V. Opredeleniye funktsiy uchebnika kak metodologicheskaya problema didaktiki. Problemy shkol'nogo uchebnika. Выр.4. –M.: Prosveshcheniye, 1976.
65. Kulajanov K. S. i dr. Problemy sozdaniya uchebnikov novogo pokoleniya v pishchevoy promyshlennosti // Uchebnik tret'yego tysyacheletiya sozdaniye,

izdaniye, rasprostraneniye: Materialы III Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii. 5-7 iyunya 2003. – Almaty, Atamura, –S. 312-313.

66. Kusainov A.K. Aktual'nyye problemy uchebnikovedeniya. M.: Prosveshcheniye, 2003. –85 b.

67. Qodirov B.E. Elektron axborot ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchisilarning hunarmandchilikka oid tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref.-Termiz.: 2021 y.-52 b

68. Qodirov M.M. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini shakllantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref.-T.: 2020 y.-54 b

69. Qo'ysinov O.A va b. "Kasb ta'limi metodikasi" fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish. – T.: "Yusuf yangi nashr". 2012 y. – 60 b.

70. Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi yo'nalishi bakalavr o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limning ilmiy - metodik asoslari: Ped.fan.nom. diss. - Toshkent: TDPU.: 2008 y. – 160 b.

71. Qurbonov Sh.E. Sosial'no-pedagogicheskiye ossobennosti nasional'noy modeli i programmy po podgotovki kadrov. Avtoref. dis.... dokt. ped. nauk. – T.: 2000. 51 s.

72. Lerner I. Ya. Metodologicheskiye problemy didakticheskoy teorii postroyeniye uchebnika // Kakim byt' uchebniku didakticheskiye prinsipy postroyeniya. –M.: 1992. S.12 – 13. Lerner.I.Ya., Shamayev N.I. Kakim byt uchebniku. Didakticheskiye postroyeniya.- M.: ITPIMIO, 1994. B. 7 – 26

73. Maxmudov M.X. Ta'limni didaktik loyihalashning nazariy asoslari: Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: O'PFITI,2004.- 46 bet.

74. Mikk. Ya.A. Optimizasiya slojnosti uchebnogo teksta. - M.: Pedagogika, 1981.- 187 b.

75. Mirzaxmedov B.M. Zamonaviy darslikka qo'yiladigan didaktik talablar // "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimda zamonaviy o'qitish texnologiyalarini

- ishlab chiqish va o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish muammolari” Resp. il.-amaliy anjum. materiallari. –Buxoro, 2006. B. 148.
76. Mualliflar uchun qo‘llanma. Osiyo Taraqqiyot Bankining O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limini rivojlantirish loyihasi. –T.: Bilim, 2005. 80b.
77. Musayev J. Darslik – boshlang‘ich sinf o‘quvchisining mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish omili. // Xalq ta’limi T-2009 № 1 8-12 betlar.
78. Musayev U., Safarova R., Darslik-pedagogik tizimning axborotli modeli sifatida // J. Uzluksiz ta’lim. –T., 2003. –№1, B. 3-8.
79. Musayeva N. Kasbiy fanlarni modulli o‘qitish texnologiyasi. Nom.diss. avtoreferati. Toshkent 2007.
80. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy - metodik asoslari.: Ped. fan. dokt. ... diss. avtoref. - T.: 2007 y. – 45 b.
81. Muslimov N.A. Elektron darslik yaratish metodik tamoyillari va texnologiyalari //Infocom.uz, 2004 y. – 62-66 b.
82. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. / Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – T., 2015 y. – 120 b.
83. Muslimov Sh.N. Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref.-T.: 2020 y.-50 b.
84. Muhiddinova X. Yangi tildagi darsliklar davlat tili ta’limi samaradorligining muhim omilidir. // Xalq ta’limi T-2008. Toshkent № 6 32-36 betlar.
85. Najimiddinova G. O‘quv material o‘quv-biluv faoliyati predmeti. // Xalq ta’limi 2005. №3. 40-42 b.
86. Nazarov A.A. “Talabalarni umumkasbiy fanlar negizida innovasion muhandislik kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodikasini takomillashtirish” (texnologik mashinalar va jihozlar ta’lim yo‘nalishi misolida) Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref.-T.: 2020 y.-52 b
87. Nishonaliyev U.N. Formirovaniye lichnosti uchitelya trudovogo obucheniya: problemy i perspektivy. –T.: Fan, 1990. – 86 s.

88. Novikov D.A. Sticheskiye metody v pedagogicheskix issledovaniyax. M.: MZ- Press, 2004. – 66 s.
89. Nuriddinov B.S. Kasb ta’limi o’qituvchilarini malakasini oshirishda faol o’qitish metodlaridan foydalanish. Nom.diss.avto-ref.-T.: UMKXTTKMO va KTI .- 2002. -16 b.
90. Olimov Q.T. Kreativ-modulli texnologiya asosida o’quv adabiyotlarni yaratish kasb- hunar ta’limi 2004. - №6.-27 bet.
91. Olimov Q.T., Maxsus fanlardan o’quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning nazariy va uslubiy asoslari. Ped. fan. dokt.... diss. –T. 2005. –286 b.
92. Olimov Q.T., Mirzaxmedov B.M., G’afforov A.X. Mutaxassislik fanlarini o’qitish metodikasi. –T. Fan va texnologiyalar markazi, 2007. – 148 b.
93. Orymbetov N.T. Mehnat ta’limi yo’nalishi talabalarining elektrotexnika, radiotexnika va elektronika bo’yicha kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) diss. avto-ref.-Nukus.:2019 y.-45 b.
94. Rajabova S.Yu. Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarining konstruktorlik-texnologik kompetentligini rivojlantirish metodi-kasi. 13.00.05-Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi. Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD). diss. –T.: 2020 y.–147 b.
95. Rasulova Z.D. “Talabalarining kreativligini rivojlantirishda dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish (texnologik ta’lim yo’nalishi misolida)”. Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD). Diss. – B.: 2021 y. – 143 b.
96. Rashidov X.F., Xabibov X., Zoirov A. Kasbiy pedagogika. O’quv-uslubiy qo’llanma. T.2007. 198 b.
97. Rozin V.M. Uchebnik novogo pokaleniya: naznacheniya i priuipy. Universitetskaya kniga 2001 №12 s-20-24
98. Saidova X.X. Maxsus fanlardan o’quv adabiyotlarini amaliy ekspertizadan o’tkazish metodikasi. Ped. Fan. Nom. Diss. ... –T., 2007 y. -146 b.

99. Sarsenboyeva R.M. Texnologiya negizida o'quv-tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishning ilmiy-metodik asoslari. Nom.diss.avtoref Xalq hunarmandchiligi misolida Toshkent-2004 yil.
100. Safarov R., Rixsheva M. Oliy ta'lim muassasalari darsliklarining yangi avlodiga qo'yiladigan talablar. Darslik yaratuvchi mualliflar uchun qo'llanma. T. UZPFITI. 2001 yil.
101. Safarova R. Darslik pedagogik tizimning axborotli modeli sifatida. Uzluksiz ta'lim T. 2007. № 2 18-20 betlar.
102. Safarova R. Oliy ta'lim muassasalari darsliklarining yangi avlodiga qo'yiladigan talablar. –T.: UzP FITI, 2001.–28 b.
103. Skatkin M.N. Metodologicheskiye problemy didakticheskoy teorii postroyeniya uchebnika. M.: Prosveshcheniye, 1994.
104. Taylaqov A.N. Ta'lim darslikdan boshlanadi. Xalq ta'limi. 2006 № 3. 17-20 bet.
105. Taylaqov N. I. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy pedagogik asoslari dok.dissertasiyasi. T. 2006 yil. 331 b
106. Tkachenko Ye. Chas pik dlya uchebnika // J. Narodnoye obrazovaniye. –M. 1996. –№7.
107. Tojiyev M., Barakayev M., Izetayeva G., Turdiboyev D. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quv fanlarining modulli o'qitish metodikasi va amaliyoti, Monografiya.– Toshkent: TURON-IQBOL, 2016 y. – 180 b.
108. To'rabekov F.S. Bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llash metodikasi. 13.00.02 (mehnat ta'limi) diss. ped. fan. nom. – T.: 2011 y. – 176 b
109. To'raqulov O.X. Axborotlashgan ta'lim muhitida kichik mutaxassislar tayyorlashning ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirish (axborot va komp'yuter texnologiyalariga ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlari misolida). Ped. fan. dokt. ...avtoref.–T., 2017 y. – 64 b.

110. Turg'unova N.A. Xalq milliy an'analarida mehnat tarbiyasi. Uzluksiz ta'lim. T. 2005. №6. 85-92 bet.
111. Tursunova N.N., G'afforov A. O'quv dabiyotlari bilan mustaqil ishlash texnologiyasi. Kasb-hunar ta'limi. №6. 2008 y. 11-12 b.
112. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quv adabiyotlar yangi avlodini yaratish konsepsiyasi. T. Sharq.
113. Umarov S. B. Oliy ta'lim muassasalarilari boshlang'ich sinf o'quvchisilarini kasb-hunarga yo'naltirish texnologiyalari. Nomzodlik dissertasiyasi. Toshkent-2005 yil.
114. Urazova M.B. Tyeoriya i praktika podgotovki budushyego pedagoga professional'nogo obrazovaniya k proyektivnoy deyatel'nosti: avtoreferat diss. ... dokt. ped. nauk. - T.: 2012. – 45 s.
115. Ustemirov K. O problemax razrabotki uchebnikov po spesial'nyim dissiplinam nachal'nogo i srednego professional'nogo obrazovaniya // Materialy III Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii 5-7 iyunya 2003.- Almaty, Atamura, 2003. –S. 329
116. Fayzullayev R.X. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining o'quv-bilish kompetentligini modulli-reyting ta'lim asosida takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref.-T.: 2019 y.-56 b.
117. Fayzullayeva D.M. Zamonaviy mashina jihozlaridan foydalanish bo'yicha talabalarda ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Pyed.fan.nom. ... diss. – T., 2005. – 157 b.
118. Xodjabayev A.R. Nauchno-pedagogicheskiye osnovo' uchebno-metodicheskogo kompleksa podgotovki uchitelya truda.: Avtoref. dis...dok.ped. nauk. T.: 1992. - 42 b.
119. Hamidov J.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi. Ped. Fan. Dokt. diss. Toshkent.: 2017 y. – 337 b.
120. Choriyev E.T. Sistema trudovogo vospitaniya uchahixsya. – T.: O'qituvchi, 1982.- 112 b.

121. Shapovalenko S.G. Uchebnik v sisteme sredstv obucheniya. –M.: Pedagogika, 1974. –13 s
122. Sharipov Sh.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta‘minlashning nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dokt. ... diss.–T., 2012 y. – 264 b.
123. Sharipov Sh.S., Abduraimov Sh. Texnologiya va kasbiy fanlar mazmunini uzluksizligini ta‘minlash yo‘llari. // Uzluksiz ta‘lim. T. 2006. №6 94-101
124. Shodiyev D., Safarova R., Rixsiyeva M. Oliy ta‘lim muassasalarii darsliklarini tekshirish va baholash mezonlari. Darsliklarni ekspretizadan o‘tkazuvchilar uchun qo‘llanma. T.UZPFITI. 2001 yil 16 bet.
125. Shoyusupova A.A. Kasb-hunar kollej o‘qituvchilari malakasini oshirish o‘quv-uslubiy majmuasini yaratishning ilmiy-uslubiy asoslari. Ped.fan.nom. ... diss. avtoref.-T., 2005.-22 b
126. Ergasheva G. Darslikdagi o‘quv materialini saralashning ba‘zi jihatlari. Uzluksiz ta‘lim 2003 yil №4 son 3-16.
127. Ergasheva G. S. Oliy ta‘lim muassasalari biologiya darsliklari o‘quv materiallarini loyihalash didaktik asoslari. Nomzodlik dissertasiya avtoreferati. Toshkent 2006 yil.
128. Ergasheva G.. O‘quv materiallarini loyihalashga yangi pedagogik texnologiyalar asosida yondashish.Xalq ta‘limi T-2004 №3 64-66.
129. Yusupov M.M. Bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarini o‘quv jarayoni natijalarini baholashga o‘rgatish metodikasi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref.-Jizzax.:2021 y.-52 b
130. Yangabayeva Ye. Kakim byt’ uchebniku? // J. Xalq ta‘limi –T., 2005. –№5. B.151-155.
131. Yarlaqabov U.M. Talabalarda to‘liq fikrlashni rivojlantirishning pedagogik asoslari. // Kasb hunar ta‘limi. T. 2008. 36. 9-11 b.
132. Brown, A.L. 1992. Design experiments: theoretical and methodological challenges in creating complex interventions in classroom setting. The journal of the learning sciences (Hillsdale, HJ), vol. 2, – p. 141-178.

133. . Jacques Delors, Issues for the 21st Century. Organizovano podrazdeleniyem YUNESKO po analizu i prognozirovaniyu 6 noyabrya 1999 goda na temu: “Towards a Global Contact?).
134. Falk Pngel. UNESCO Guidebook on Textbook Research and Textbook Revision. Georg Ekkert Institute for International Textbook Research, 1999.
135. Beazden W.O., Hansen V., E.Business Studies Preliminary.-Sydney: – Longman, 2001. –358 p.
136. <http://www.legprominfo.uz/>
137. <http://www.pedagog.uz/>
138. <http://www.ziyonet.uz/>
139. <http://www.istedod.uz/>